ISSN: 2181-3914

XXI ASR TILSHUNOSLIGI: tahlil va talqin

VOLUME 1 ISSUE 3 MARCH, 2025



TAHRIRIYAT HAY'ATI

Bosh muharrir
Murodova Nigora Qulliyevna
filologiya fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinbosari
Yusubova Rano Norboyevna
filologiya fanlari doktori, professor

Editor – in – chief
Murodova Nigora Kulliyevna
doctor of philological sciences, professor

Deputy Editor-in-Chief
Yusubova Rano Norboyevna
doctor of philological sciences, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI

Kalonov Muhiddin Bahriddinovich — *Iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

Xujjiyev Sodiq Oltiyevich — *Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent*

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich — *Kimyo fanlari doktori, professor*

TAHRIRIYAT A'ZOLARI

Aynur Öz Özcan - filologiya fanları doktori, professor (Turkiya)
Nadir Mammadli- filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon)
Ra'no Sayfullayeva- filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)
Azamat Pardayev - filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev - filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)
Mehri Abuzalova - filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)
Qo'ysin To'xtayeva - filologiya fanlari nomzodi, dotsent (O'zbekiston)
O'rolboy Oripov - filologiya fanlari nomzodi (O'zbekiston)
Manzura Ernazarova - filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)
Gulchehra Boltayeva - filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Dilorom Shamsiyeva - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (O'zbekiston)
Ra'no Davlatova – filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Fazliddin Najmiddinov - filologiya fanlari nomzodi, dotsent (O'zbekiston)
Xolbibi Qurbonova- pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (O'zbekiston)
Feruza Jumayeva- pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (O'zbekiston)
Ra'no Sharopova- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)
Gulnoza Ernazarova - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (O'zbekiston)
Gulsanam Norova - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)
Nasiba Yarashova - filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Navro'z Rahmonov- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (O'zbekiston)
Omongul Xolibekova- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (O'zbekiston)
Dildora Agzamova - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)
Erkin Musayev – Katta o'qituvchi (O'zbekiston)
Bobir Maxammadov – filologiya fanlar bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)

Tahririyat bilan bog'lanish:
Manzil: Navoiy shahar, Ibn Sino ko'chasi, 45-uy
Web-site: http://lingej.nspi.uz
Tel: +998(97) 378 – 34 -45

Editorial staff of the journal:
Address: 45, Ibn Sino street, Navoi city
Web-site: http://lingej.nspi.uz
Tel: +998(97) 378 – 34 -45

MUNDARIJA / CONTENT

Yusubova Ra'no..... **5**
Lisoniy shaxsning motivatsion darajasi

Matnazarov Javlanbek, Sabirova Gulnoza..... **13**
She'riy matnlarda tarixiy shaxs nomlari asosidagi intertekstuallik

Sobirova Dilnoza..... **19**
Muloqotda hamkorlik tamoyili va uning reklama matnlarini yaratishdagi o'rni

Tursunov Akmal..... **24**
O'zbek tili darslarida innovatsion texnologiyalar asosida darslarni tashkil etish usullari

Ergasheva Nodira..... **30**
Alisher Navoiy asarlarida toponimlarning qo'llanilishiga doir

Zaylobova Nazokat **36**
Oilaviy muloqotlarda zohir bo'ladigan munosabatlar

Urkinbayeva Maqpal..... **42**
O'zbek va qozoq tilidagi "tuya" zoonim komponentli frazemalar tahlili

Sayidqulova Nozigul **47**
Nutqiy muloqotda murojaat birliklarining ijtimoiy-madaniy farqlanishi

Niyozova Hulkar..... **54**
Zebo Mirzo she'riyatida jonlantirish san'atining ifodalanishi

Barnoyeva Shahnoza..... **58**
Diskurs mohiyati va uning qamrovi masalasi

Sobirova Dilnoza..... **63**
Reklama tarixi va uni joylashtirish manbalari

Yoqubov Sodiqjon **68**
Jahon va o'zbek olimlarining arealingvistika fani shakllanishiga qo'shgan hissasi

Mamatkulova Saidaxon..... **75**
Diniy-mental konseptlarning to‘qqiz katakli matritsasi: umumiy va milliy belgilar qaysi zonada to‘planadi? (ingliz va o‘zbek tillaridagi “ruh / soul” va “iymon / faith” misolida)

Muxammadiyev Nodir..... **82**
O‘zbek tilshunosligida o‘zlashma qatlam masalalarining yoritilishi

Jumaniyazova Surayyo..... **86**
O‘zbek tilshunosligida lingvomadaniy birliklarning o‘rganilishi

Rahmatova Yulduz..... **90**
Gazeta tilida gap qolipli frazemalar

LISONIY SHAXSNING MOTIVATSION DARAJASI

Yusubova Ra'no,
Navoiy davlat universiteti,
professor, filologiya fanlari doktori

Annotatsiya. Maqolada til va inson munosabati lisoniy shaxs haqidagi nazariyalar va lisoniy shaxs tuzilishining turli modellari asosida yoritilgan, lisoniy shaxsning motivatsion darajasi borasida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: lisoniy shaxs, lingvopersonologiya, kognitiv daraja, motivatsion daraja, motivatsion nutq, nutq, matn.

Аннотация. В статье рассматриваются отношения языка и человека на основе теорий о языковой личности и различных моделей структуры языковой личности, рассуждается о мотивационном уровне языковой личности.

Ключевые слова: языковая личность, лингвоперсонология, когнитивный уровень, мотивационный уровень, мотивационная речь, текст.

Annotation. The article examines the relationship between language and man on the basis of theories about linguistic personality and various models of the structure of linguistic personality, discusses the motivational level of linguistic personality.

Keywords: linguistic personality, linguistic psychology, cognitive level, motivational level, motivational speech, text.

Kirish. Til – nafaqat aloqa vositasi yoki ma'nolar tizimi, inson hayotining barcha jabhalari bilan bog'liq bo'lgan universal hodisa; to'plangan, orttirilgan bilimlarni saqlovchi; hayotiy tajriba, etnik-milliy hamjamiyatning urf-odatlari yig'indisidan iborat madaniyat ifodasiki, vaqt o'tishi bilan bir avloddan keyingi avlodlarga yetkazilishi uchun – millatning yashab qolish sharti sifatida qabul qilinadi. Milliy til umuminsoniy qadriyat va tarixki, usiz hech bir xalqning milliy "qiyofa"sini tasavvur qilib bo'lmaydi. To'g'ri, til – muloqot uchun juda zarur, ammo til xalq va davlat mavjudligi, qadriyati, millatning ma'naviy salohiyatini belgilovchidir. O'z-o'zini anglash, milliy fikrlash, avlodlar o'rtasidagi ma'naviy va axloqiy munosabatlarning ifodasi til orqali namoyon bo'ladi, buyuk maqsadlar, intilishlar inson ongiga til orqali kirib keladi. Shu ma'noda, dunyo tilshunosligida XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab til sohibining barcha shaxsiy sifatlari birinchi galda tilda namoyon bo'lishi masalasiga e'tibor qaratildi, natijada tilning nutqiy voqelanishida inson omilining birlamchi ekanligi haqidagi til-inson diadasi maydonga keldi. Antroposentrik tilshunoslikning tilni undan foydalanuvchi inson bilan bog'liq holda tekshirishi tilning xususiyatlari, imkoniyatlari va bahosini belgilab berdi. Natijada til-inson diadasi tilshunoslikka kategorial statusga ega bo'lgan "til egasi" tushunchasini olib kirdi. Aynan ushbu tushuncha ortidan til

egasining xususiyatlari, sifatlarini tor yoki keng planda o‘rganishga kirishildi, natijada *lisoniy shaxs* muammosini tadqiq etish zarurati kengaydi.

Adabiyotlar tahlili. *Lisoniy shaxs* tushunchasiga ilk bor I.Vaysgerber e’tibor qaratgan, til o‘zida umummadaniy boylikni ifoda etishi, hech kim tilni faqat o‘zining lisoniy shaxsi evaziga egallamasligi, balki uning muayyan lisoniy jamoaga mansubligi asosida tilni egallashi mumkinligi masalasiga to‘xtalingan [1,81]. O‘tgan asrning 60-yillarida muallifni o‘z asarlarida til birliklaridan mahorat bilan foydalana olgan, yashirin ma’nolarni ifoda etgan yoki matnni yaratgan shaxs sifatida emas, balki turli tipli matnlardagi ma’nolar yaxlitligini o‘zaro uyg‘unlashtira olgan, yaratgan matnida o‘zining til imkoniyatlarini chuqur egallaganligini va yuzaga chiqarishini ko‘rsata olish bilan birga, o‘zining shaxsiy sifatlarini ham namoyon qila olgan shaxsni tushunish lozimligi masalasi ilgari surildi. Bu masala lisoniy shaxs masalasi edi. Tilshunoslikda bu haqidagi nazariy qarashlar Boduen de Kurtene, V.V.Vinogradov, G.I.Bogin, Y.N.Karaulov, I.P.Susov, L.N.Klobukova, shuningdek, yangi asrda o‘zbek olimlaridan N.Normurodova, D.Lutfullayeva, D.Xudoyberganova, Sh.Safarov, A.Mamatovlar tomonidan chuqur tahlilga tortilgan. A.Mamatov ta’kidicha, lisoniy shaxsni quyidagi komponentlar tashkil qiladi: gapiruvchi inson – faoliyatlaridan biri nutq faoliyati bo‘lgan shaxs; lisoniy shaxs – o‘zini nutq faoliyatida namoyon qiluvchi, ma’lum bilimlar va tasavvurlar majmuasiga ega bo‘lgan shaxs; nutq shaxsi – fikr almashinishida o‘zini namoyon qiladigan, munosabatning u yoki bu strategiyasi yoki taktikasini, vositalar repertuarini tanlaydigan va amalga oshiradigan shaxs; kommunikativ shaxs – real kommunikatsiyada ishtirok etuvchi aniq kommunikativ harakat ishtirokchisi [2, 48].

Tadqiqot metodologiyasi. Mavzuni yoritishda tavsiflash, tasniflash, kognitiv-diskursiv tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Til – inson diadasi tadqiqida lisoniy shaxs muammosiga duch kelinganlik pirovardida tilshunoslikning yangi yo‘nalishi – linvopersonologiya yuzaga keldi. Lingvopersonologiyaning maydonga kelishiga nutqda lisoniy qobiliyatlari va shaxsiy sifatlarini, ya’ni xalq tili va madaniyati, xarakter-xususiyati, ruhiyati, kasb-kori, ijtimoiy mavqeyi, jinsi, yoshi kabi omillarni namoyon qiluvchi *lisoniy shaxs* muammosining zarurati zamin yaratdi. Tilni uning yaratuvchisi, uzatuvchisi, foydalanuvchisi bo‘lgan – shaxsga murojaat qilmasdan anglash, idrok etish, o‘rganish mumkin emasligi barobarida, alalxusus, lisoniy shaxs haqidagi nazariyalar o‘rganila boshlandi va lisoniy shaxs tuzilishining turli modellari ishlab chiqildi.

L.N.Klobukova ta’kidicha, o‘tgan asrning so‘nggi choragiga kelib tilning shaxs omilisiz voqelana olmasligi, til shaxsning ruhiyati, genderligi, ijtimoiy mavqeyi, etnik mansubligi, milliy-madaniy qarashlari kabi ekstralingvistik omillar bilan bog‘liq holda yaratilgan nutq asosida reallashuvchi imkoniyat tarzida o‘rganila boshlandi va bunda asosiy e’tibor matn tahlili orqali lisoniy shaxsga tavsif berish masalasiga qaratildi [3, 29]. Inson tug‘ilishi bilan unda asta-sekin ijtimoiylik, hissiyot, ong shakllana boradi, aslida tug‘ilish – yangi kognitiv jarayonning boshlanishi, shaxsiy sifatlar jarayonining boshlanishi, “madaniyat” mulkiga ega bo‘lishlikdir. Kognitiv jarayon tilga shunchaki ko‘chmaydi, balki baholay olish bilan birga yuz beruvchi jarayondir, jamiyatda, jamoada, ya’ni muloqotda til vositasida yuzaga chiqadigan jarayondir. Til –

kognitivlikni saqlash vositasi, bunda belgilar, holat-harakatlar, xarakter-xususiyatlar, hodisalar, qadriyatlar so‘zlar hamda iboralarning shakl va ma’nolari ko‘rinishida saqlanadi.

Lisoniy qobiliyati orqali kognitiv darajasi va shaxsiy sifatlarini namoyon etuvchi shaxs tilshunoslikda lisoniy shaxs sifatida baholana boshlandi. Jamiyatning uzluksiz dinamikligi, ijtimoiy hayotdagi o‘sish-o‘zgarishlar barchasida shaxs omili mavjudligini ko‘rsatadi, ilm-fan shaxs omiliga ko‘ra taraqqiy topadi va tabiiy, bularning barchasi til bilan kesishadi. Tilni o‘rganuvchi tilshunoslik fanini esa ushbu hayotdagi boshqa biror bir fan bilan aloqadorligini inkor etib bo‘lmaydi, zero, shu jihat tilning barcha vazifalari, avvalo, birlamchi vazifasi bo‘lgan kommunikativ vazifasidan o‘sib chiqqanligini asoslaydi. Shunday ekan, tilga ta’sir etmagan sohaning o‘zi mavjud emas, bu esa tilshunoslikning boshqa fanlar bilan bir nuqtada kesishishiga olib keldi: “Insonning jismoniy va ma’naviy xususiyatlarining ijtimoiy ahamiyati borasida falsafiy, sotsial va psixologik qarashlar mavjud. Lisoniy shaxs tushunchasi tilshunoslikda fanlararo mavjud atamaning ko‘chishi natijasida paydo bo‘lgan”[4, 19].

Inson faoliyatining barcha jabhasi nutqiy faoliyat vositasida uzatiladi, nutqiy faoliyatning quyidagi darajalari ajratiladi: kognitiv, pragmatik, maqsadni belgilash, motivatsion. Motivatsion daraja inson nutqining tabaqalanish ierarxiyasida eng yuqori, chunki aynan u lisoniy shaxsning rivojlanishiga turtki beradigan motivlar va maqsadlarni ochib beradi, u matn yaratilishini nazorat qiladi va pirovardida lisoniy shaxsning dunyoqarashidagi ma’no va qadriyatlarning bosqichma-bosqich o‘sib borayotganligini belgilaydi. Y.N.Karaulov tomonidan ishlab chiqilgan modelga muvofiq, lisoniy shaxsda til strukturasining uch darajasi mavjudligi ta’kidlanadi: 1) lingvistik struktural daraja, masalan, grammatik vositalar, lug‘at tarkibining aks etish darajasi; 2) lingvokognitiv daraja, ya’ni olam lisoniy manzarasining aks etish darajasi; 3) motivatsion daraja, xulq-atvor va shaxsning rivojlanishini belgilaydigan maqsadlar, motivlar tizimini aks ettirish darajasi [5, 35]. Bu darajalar bir-biri bilan chambarchas bog‘liq va bir-birini to‘ldiradi. Tilshunoslar “lisoniy shaxs” tushunchasini belgilashda u yaratgan matnlarning yuqorida keltirilgan uch darajasini tahlil qilish orqali tushuntiradilar.

Lisoniy shaxs nutqida bir darajadan keyingi darajalarga tomon orttirgan tajribasini namoyon qilib borar ekan (shaxs ijtimoiylashuvi nazarda tutilmoqda), intilishlari samarasi o‘laroq, yetuklik sari qadam qo‘yadi. Lisoniy shaxning ushbu darajalarni egallab borishi mavjud har qanday matn mohiyatini nafaqat to‘g‘ri, balki yangidan, betakror tushunishiga olib keladi, chunki orttirilgan tajribaga ega (darajalarni egallaganlik) lisoniy shaxs matndagi tanlangan biror so‘z, affiks, implikatsiyalarda yashiringan ma’noni shaxsiy prizmasidan o‘tkazadi.

Masalan, implitsitlikning murakkab semantik tarkibidan kelib chiqilsa, implitsit ma’nolar ijodkor lisoniy shaxsini ham, matnning qayta “yaratuvchisi” bo‘lgan o‘quvchi lisoniy shaxsini ham to‘la namoyon qiladi, implitsitlik til birliklari bilan moddiy ifodalanmagan, yashirilgan ma’noni bilvosita tushunishdir va uning yuzaga chiqish maydoni sifatida badiiy matnni ko‘rsatish mumkin. “*...rangi uniqqan chit ko‘ylak ustidan nimcha kiyib olgan Umri xola sharpaday unsiz yurib keldi-da, yapaloq* ***«musulmon»*** *g‘ishtdan yasalgan zinadan ayvonga ko‘tarildi*.” (O‘.Hoshimov,

Urushning so‘nggi qurboni). Xo‘sh, "*musulmon" g‘isht"* jumlasini qo‘llashdan yozuvchining maqsadi nima?

Ma'lumki, O‘rta Osiyodagi yirik me'moriy obidalar qurilishida, asosan, kvadrat va to‘rtburchak tuzilishli g‘ishtlardan foydalanilgan bo‘lib, kvadrat tuzilishli g‘isht "musulmon g‘isht" deyilgan va bu g‘isht suv o‘tkazmaydigan eritmada kuydirilgan (pishirilgan) g‘ishtdir. Demak, xom (kesak) g‘isht arzon, tabiiy, "musulmon g‘isht" qimmat sanalgan. Badiiy matnda ushbu jumla orqali "*Shoikromning oilasi aslida o‘ziga to‘q oila bo‘lgan, oila urush sabab mushkul ahvolda qolgan*" degan implitsit ma'noga ishora qilinmoqda.

Lisoniy shaxs madaniyat yaratuvchisi, milliy til tashuvchisi, xalq madaniyati kabilarni namoyon etuvchi shaxs tipi sifatida tushuniladi. Shunday qilib, til-madaniyat diadasi xususida gap ketganda, "ularning qay biri birlamchi?" degan savolga aniq javob berish mumkin bo‘ladi: albatta, til. Agar madaniyat idrokni belgilaydigan va yaratilgan qadriyatlarni tartibga soluvchi bilim bo‘lsa, til bu bilimlarni saqlash, idrok etish, boyitish, namoyon qilish, tarqatish va motivatsiya berish vositasidir.

Tilshunoslikda lisoniy shaxs muammosini keng o‘rgangan Y.N.Karaulov matn lisoniy shaxsni tavsiflash uchun asosiy unsur ekanligini nazardan qochirmay, struktur-lisoniy murakkablik darajalariga ko‘ra farqlanuvchi muayyan maqsadga yo‘naltirilgan matnlarni yarata olish va idrok etish qobilyatiga ega bo‘lgan insonni lisoniy shaxs sifatida baholaydi. Shuningdek, lisoniy shaxs tuzilishini uch darajadan iborat deb hisoblaydi:

– verbal-semantik yoki shaxs leksikasi; leksika, keng ma'noda tushuniladi, u shaxsning grammatik bilimlar fondini o‘z ichiga oladi;

– shaxs tezaurusini belgilovchi lingvistik-kognitiv darajasi, "dunyo obrazini" yoki dunyo haqidagi bilimlar tizimini qamrab oladi;

– motivatsion yoki shaxsning pragmatikligini aks ettiruvchi – maqsadlari, tushuncha va g‘oyalari darajasi [5, 42].

Odatda, Y.N.Karaulov tomonidan keltirilgan lisoniy shaxs tuzilishining uch darajasi – motivatsion daraja ko‘pincha tahlil obyektiga ko‘tarilmasdan qoladi. Motivatsion daraja yuqorida keltirilgan ikki darajaning harakatlantiruvchi kuchi, ta'sir doirasini, e'tibor qaratuvchilar auditoriyasini kengaytiradi – istalgan matnda (siyosiy, ilmiy, badiiy va b.) motivatsion nutqni yuzaga keltirishga xizmat qiladi.

Motivatsiya so‘zi [*ingl.* motivatsion < *lot.* movere – turtki bermoq] biror faoliyatni bajarishga va qo‘yilgan maqsadga erishishga undovchi kuch; rag‘bat" [6, 231] ma'nosini anglatib, "motiv" so‘zidan olingan, "u kishining ehtiyojlari, istaklari yoki undovlarini bildiradi" [7, 369]. Motivatsiya biror motiv sabab insonni harakatga keltirish, undashdir. Motivatsiya ichki va tashqi ko‘rinishga ega bo‘ladi: ichki motivatsiya insonning o‘zini o‘zi biror harakatga undashi bo‘lib, bu shu insonning individualligi, psixologik xususiyatlariga bog‘liq tarzda vujudga keladi, tashqi motivatsiya "tashqari"dan, ya'ni boshqa bir insonning ta'sir ko‘rsatishi orqali namoyon bo‘ladi, motivatsiya motivatsion qobiliyatga egalikni ko‘rsatadi. Motivatsiya xatti-harakat yoki nutq orqali idrok qilinadi. Sh.Balli motivatsion nutqni sohasidan "tashqariga olib chiqilgan" nutq deb hisoblaydi va uning konseptual sohasini leksikologiya kengaytiradi, deb ko‘rsatadi. Demak, motivatsion daraja lisoniy shaxsni

tavsiflash va tahlil qilishda eng muhim darajalardan biri hisoblanadi. Lisoniy shaxsni boshqargan motivlarni namoyon qilishda yetakchi sanalgan leksik birliklar tahlil qilinganda, "chertib" tanlangan so'zlar va ma'nolar tizimidan hosil qilingan fikr hamda his-tuyg'ular aniq nuqtalarda kesishib motivatsion qobiliyatni yuzaga chiqarishi aniqlanadi.

Y.N.Karaulov lisoniy shaxs tuzilishi ierarxiyasidagi eng yuqori daraja professional kasb egalarining motivatorlik qobiliyatlari hisoblanishini alohida ta'kidlab o'tgan. "Chunki u lisoniy shaxs rivojlanishiga turtki bo'lgan motivlar va maqsadlarni aniqlaydi, matn yaratilishini nazorat qiladi, lisoniy shaxs dunyoqarashidagi ma'no va qadriyatlar ierarxiyasini aniqlaydi"[8, 70]. Masalan, ilmiy diskursda o'zining motivatsion qobiliyatini namoyon etgan lisoniy shaxs o'z sohasi egalariga shu darajada ta'sir o'tkazadiki, natijada ular kasbiy faoliyatidagi qarashlarini yoki shaxsiy sifatlaridagi ma'lum bir jihatlarni o'zgartirishi yoki bo'lmasa, o'zlarining aniq ilmiy strategiyalarini topib olishlari mumkin bo'ladi. Motivatsiyaning aynan ushbu ko'rinishi tashqi motivatsiyaga misol bo'la oladi. Shaxs nutqining motivatsion xarakterga ega bo'lishida orttirilgan tajriba, kuzatuvlar, o'z sohasidagi yetuklik, shaxsiy sifatlarda e'tirofga sazovorlik va ijtimoiy maqom kabi omillar yetakchilik qiladi.

Motivatsion nutq shaxsning maxsus kasbiy va madaniy muhitda shakllangan ongi, xulq-atvori hamda faoliyati xususiyatlari aks etgan intellektual, ijtimoiy-madaniy, axloqiy-irodaviy fazilatlar majmui [9, 474] sanalib, odatda, professional kasb egalarining faoliyatida motivatsion nutqiy faoliyatning yuqori darajadagi o'rni mavjud; o'z sohasining yetuk bilimdoni, katta tajribaga va yuqori salohiyatga ega bo'lgan kasb egalarining ilmiy nutqlarida aforizm darajasiga ko'tarilgan fikrlar, xulosalar salmog'ining ortib borganligi ko'zga tashlanadi, natijada millatning, fanning ushbu vakillari nutqi motivator nutqqa aylanganki, ularning fikrlari nafaqat shu soha egalari uchun, balki butun bir millat uchun motivator ifodaga aylangan. Masalan, o'zbek tilshunosligiga antroposentrik tilshunoslik paradigmasiga doir ilk qarashlarni taqdim etgan, tilni tilshunoslikning faqat obyekti sifatida emas, balki millatning tarixi, buguni va ertasi sifatida o'rgangan va targ'ib qilgan, tilni til egasidan ayro o'rganish til mohiyatidan uzoqlashishga olib kelishini ta'kidlagan, kuchli nazariy tahlillari bilan fanda "atomistik" qarashlarga barham bergan Nizomiddin Mahmudovning ilmiy bayonida so'zga, tilga yondashuvlar betakrorligini, fasohat bilan inkishof etilganligini sezmasdan bo'lmaydi: "*Haqiqat shuki, til millatning tamalini tayin etadigan, iligini sog'lom saqlaydigan, asrlardan asrlarga to'zg'itmay olib o'tadigan betakror qudratdir."* (Til – Eshmat yoki Toshmatniki emas / Tilimizning tilla sandig'i).

Ustoz Nizomiddin Mahmudovning ilmiy bayonida o'z sohasining egalari uchun emas, balki butun bir millatga tilning mohiyatini yetkazish kuzatiladi. Ifodalarda ilmiy bayonga badiiyatning kirib borganligi, til qonuniyatlarini tushuntirishda ong-qalb diadasidan borilganlikdan anglashiladiki, maqsad – bitta, millatni o'z tilini sevishga, til qudratini anglatishga, globalizatsiyalashuv davrida tilni omon saqlab qolishga harakatdir, desak, mubolag'a bo'lmaydi: "*Til xalqning tafakkur tarzi-yu milliy sa'jiyasini, yashash tarzi-yu ming yillik an'analarini, bir so'z bilan aytganda, xalqning botiniy va zohiriy borlig'ini aks ettiradi. Shuning uchun muayyan bir tushuncha bir xalqda mavjud bo'lsa, boshqasida mutlaqo bo'lmasligi ham tabiiy. Bunday hollarda bir*

xalqqa xos bo'lgan va muayyan bir so'z bilan ifodalanadigan tushuncha boshqa tilda tavsiflash yo'li bilan, bir necha so'z orqali ifodalanishi mumkin". (Yonadigan nok / Tilimizning tilla sandig'i).

Aniqki, har bir til egasining shaxsiy sifatlari til tizimi birliklari vositasida pragmatik, kognitiv, psixologik, milliy-madaniy tarzda namoyon bo'ladi, ushbu namoyonlik matn ko'rinishida yuzaga chiqadi. Muayyan matnni tushunish, anglash va idrok qilish uchun til haqidagi umumiy bilimlardan tashqari, etnomadaniy xususiyatlar haqida ham muayyan axborotga ega bo'lish talab qilinadi. Tilshunoslar tomonidan lisoniy shaxsning ko'p qirraliligi ta'kidlanar ekan, masalan, nutqni yaratish, idrok etishda yuqori nutqiy qobiliyatga egaligiga urg'u berilar ekan, lisoniy shaxs, avvalo, milliy til tashuvchisi sifatida baholanadi [10, 3].

Har bir inson o'z konseptual tizimiga ega ekanligini inkor etib bo'lmaganidek, konseptual tizimimizning katta qismi, asosan, metaforiklikdan iboratliligini ham inkor etib bo'lmaydi. Nega aynan shunday? Birinchidan, insonning kognitiv faoliyati – qiyoslashlar, obrazlashtirishlar bilan to'yintirilgan bo'ladi, tajribaga ega bo'lib borilgani sari insonning qarashlari ramzlar, timsollar bilan boyiydi, nutqiy faoliyati individuallashib, tipiklashib boradi, ko'p hollarda yuksak mahoratga ega – lisoniy shaxs darajasiga ko'tarilgan badiiy ijod sohiblari xususida shunday deyish mumkin, bu xususiyat ular mahoratini sayqallaydi, ziynatlaydi. Badiiy diskursda yaratilgan individual yaratilmalar, ko'chimlar va ularga yuklangan badiiyat muallifning motivatorlik qobiliyatini to'la namoyon qiladi. Ikkinchidan, metaforalarga beriladigan birinchi sifatlash ularning "qisqartirilgan qiyos" deb atalishidir. Bizning qanday fikrlashimiz, qanday o'ylashimiz, munosabatimiz, har bir xatti-harakatimiz, holatimiz metafora bilan bevosita bog'liqligi uning ana shu ixchamligiga ko'radir. Badiiy diskursda metaforaning turli va rang-barang ko'rinishlariga duch kelinishining sababi ham shundan. Metafora badiiy matn talabi sanaladi, ijodkorning badiiy-estetik maqsadi birgina so'z bilan ifodalangan o'rinlarda metaforaning badiiy salmog'i ortadi. Bu o'rinda metaforaning XO'ROZQAND – AYOL modeli yuzaga keltirilgan: *Mashina qo'zg'aldi, qo'zg'aldi-yu, o'n-o'n besh qadam yurmasdan, birdan eshigi ochildi,* ***xo'rozqand*** *dodlaganicha o'zini yerga otib, ikki-uch yumalab ketdi. Odam yig'ildi.* ***Xo'rozqandni*** *ko'tarib olishdi.* ***Xo'rozqand*** *gapirolmas, dir-dir titrab, kishnaganday bir tovush chiqarar va qo'li bilan mashinani ko'rsatar edi.* (A.Qahhor, To'yda aza).

Insonning xususiyatlari, tashqi ko'rinishi, ruhiyati, kasbiy faoliyati, tajribasi, dunyoqarashi, saviyasi, yoshi, xulq-atvori, gender farqlanishi kabilar badiiy matnda doimiy metaforik ifodada mujassam etib kelingan, faqat asar qahramonlarining holat va harakatlarini tasvirlashda yoki ularning o'zaro muloqotida emas, balki ularni ikkilamchi nom bilan atashda ham metaforalardan foydalanish usuli barcha tillarda universallik kasb etadi, biroq mazmunan metaforik ko'chim milliy xarakter kasb etadi, bunday o'rinlarda hayotiylik, milliylik ko'rinib turadi. *Xo'rozqand* – xo'roz shaklida tayyorlanadigan qizil rangli bolalar shirinligi, leksemani metaforik qo'llash asnosida matndan anglashiladiki, yosh ayol haqida gap bormoqda. Millatga xos belgilarning til egasi nutqida ekvivalentsiz leksika ko'rinishida namoyon bo'lishi bevosita nutq egasining millatiga ishora qila oladi. A.Qahhor hikoyasida aslida keksa professorning yoshgina talaba qizga uylanishidan, yosh kelinning boshdan-oyoq qip-qizil kiyinib

olishidan kelib chiqib, ushbu hosila ma'noni qo'llamagan. Balki bunga "*yosh, lekin xuddi qiziqchilikka semirganday yum-yumaloq; egnida yengsiz qizil ko'ylak, boshida popushakning tojiga o'xshagan, lekin qizil shlyapa"* kabi tasvirlarni kiritish bilan kinoyaviy ishora berilgan. Binobarin, bu o'rinda A.Qahhor ko'chimning ikki turini *xo'rozqand* so'zida jamlash orqali hikoyaning g'oyaviy-badiiy mazmunini chuqurlashtirib, uning komik ruhini, jonliligini kuchaytirgan, hikoyadagi voqealarni tipiklashtirishda *xo'rozqand* metaforasi mazmunni idrok etishda mantiqiy o'q sifatida joylashtirilgan. So'z kabi ixcham formaga egalik, nominativlik, konnotativlik va konseptual mohiyatga ega metaforalar ijodkorning lisoniy shaxs tipini to'la ochib beradi. Inson metaforani yuzaga keltirayotganda go'yo sifatlar va xususiyatlar olamida, mantiqiy sinflarda va ularning substansiyalari dunyosida yashaganday bo'ladi [11, 89]. Badiiy nutq faktlaridan biz kundalik konseptual tizimimizning kattagina qismi o'z tabiatiga ko'ra metaforikligini ko'rishimiz mumkin. Insonning kundalik konseptual tizimi tabiatida metaforiklikning ustunligi bizning sezgilarimiz, tafakkur va faoliyatimiz metaforik chizgilardan tuzilganligini ko'rsatadi. Metaforalarda bir-biridan uzoq obyektlarning o'xshatilishi tushunchalarning milliy-madaniy belgisiga asoslangan assotsiativ tafakkur mahsulidir, "...assotsiativ tafakkur real voqelikning o'ziga xos in'ikosi bo'lgan lison va olamni obrazli tafakkur prizmasidan o'tkazib tasvirlovchi badiiy adabiyotda ham muhim o'rin egallaydi" [12, 82], chunki bu belgilar ularning inson ongida akslanishi bilan hosil qilinadi va badiiy matnda voqelikni to'liq reallashtirish vazifasini bajaradi.

V.I.Karasik inson nutqini tashkil qilishning besh aspekti mavjudligini ko'rsatadi: 1) lingvistik qobiliyat; 2) kommunikativ ehtiyoj; 3) kommunikativ kompetensiya; 4) lisoniy ong; 5) nutqiy muomala [13,7]. Lingvistik qobiliyat va kommunikativ ehtiyoj tilni egallash va muloqot qilish uchun zarur shart bo'lib, kommunikativ kompetensiya – muloqot vositalarini tanlashda lisoniy ongning namoyon bo'lishi sifatida nutqiy muomalaga xizmat qiladi. Shu ma'noda, lisoniy shaxs nutq tuzuvchi va idrok etuvchi sifatida nutqiy faoliyatga yo'naltirilgan motiv va qadriyatlarning pog'onali munosabatlari doirasida shakllanib borgan shaxs bo'lib, uning tildan foydalanish qobiliyati shaxsiy sifatlari bilan belgilanadi, u til haqidagi bilimlarni chuqur o'zlashtirgani bilan emas, balki tildan qanday foydalana olishi bilan ham tavsiflanadi.

Xulosa va takliflar. *Lisoniy shaxs* atamasidan ma'lumki, bu shaxs – lison yordamida o'zini namoyon qiluvchi shaxs, u ma'lum bir millatga xos bo'lgan umumiy xulq-atvor me'yorlarini nutqida jamlaydi, bu jihat til va madaniyati mushtarak bo'lgan xalqning mentalitetini aks ettiradi. Uning kognitiv darajasi olam manzarasini idrok etish asosida shakllangan bilimi bo'lib, bu bilim orttirilgan tajribaga asoslanadi, natijada kognitiv tafakkur lisoniy tafakkurga uzatiladi – olamning lisoniy manzarasi voqelantiriladi. O'z mohiyatiga ko'ra, har qanday nutqiy ifoda individual hissiy ijoddir, til, birinchi navbatda, ifoda vositasi bo'lib, tilni o'rganishda asosiy obyekt shaxs nutqi sanaladi, nutq shaxsning olam manzarasini aks ettirgan ijodkorligi sifatida tushuniladi. Bunda motivatsion daraja lisoniy shaxsning stratifikatsion ierarxiyasida eng yuqori daraja hisoblanadi, aynan ushbu daraja lisoniy shaxsning rivojlanishiga turtki beradigan, uning matnni qanday yaratish, idrok etilishini boshqaradigan, dunyoqarashidagi ma'no va qadriyatlar ierarxiyasini belgilaydigan motivlar va maqsadlarini ochib beradi. Shu

ma’noda, professional kasb egalarining motivatsion qobiliyatlari mantiqiy “o‘q” sifatida harakatga kelib, boshqalarning motivatsion qobiliyatiga turtki beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Вайсгербер Й.Л. Родной язык и формирование духа. Изд.2-е.и доп. – М.: Едиториал, 2004.
2. Mamatov A.E. Zamonaviy lingvistika (lingvomadaniyatshunoslik asoslari). – Toshkent: Tafakkur avlodi, 2020.
3. Клобукова Л.Н. Феномен языковой личности в свете лингводидактики / Язык, сознание, коммуникация: Сб. статей / Ред. В.В. Красных, А.И. Изотов. – М.: Филология, 1997.
4. Umurzoqova M. Lisoniy shaxs tushunchasi va uning lingvistik talqini // O‘zbekiston: til va madaniyat. –T., 2023. Vol. 3 2023 Vol. 3 www.navoiy-uni.uz www.uzlc.navoiy-uni.uz
5. Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. – М., 1987.
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022.
7. Eshonqulova G. A. Tashqi va ichki motivatsiyalarning yoshga bog‘liqligi. Qo‘qon Universiteti xabarnomasi. http://www.kokanduni.uz
8. Qarang: Солнышкина М.И., Валеева Э.Р. Мотивационный уровень языковой личности. ISSN 1998-9911. Вестн. Волгогр. гос. ун-та. Сер.2. Языкозн. 2009. № 2.
9. Голованова Е.И. Анализ взаимодействия когнитивных и языковых структур при изучении профессиональной языковой личности // Когнитивные исследования языка. Вып. IX: Взаимодействие когнитивных и языковых структур. – М; Тамбов, 2011.
10. Богин Г. И. Типология понимания текста. – Калинин, 1986.
11. Маслова В.А. Лингвокультурология. Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. – Москва: Академия, 2001.
12. Xudoyberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. Monografiya. – Toshkent: Fan, 2013.

Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – М.: Гнозис, 2004.

SHE'RIY MATNLARDA TARIXIY SHAXS NOMLARI ASOSIDAGI INTERTEKSTUALLIK

Matnazarov Javlanbek Kabulovich,
Ma'mun universiteti dotsenti v.b., PhD

Sabirova Gulnoza Xidirbayevna,
UrDU mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada she'riy matnlardagi intertekstuallik hodisasining shaxs nomlari qatnashgan turlari ya'ni allyuziv birliklar haqida so'z yuritilgan va ularga izoh berilgan. Ushbu ishimizning ilmiy mohiyati esa Xorazm shoirlarining ijodida qo'llangan antroponimik birliklarning badiiy xususiyatlari, matndagi amaliy ahamiyatini tahlil qilishdan iborat. Antroponimlarning real tarixiy shaxs nomlari qatnashgan she'r namunalari tahlil qilindi va ularning she'r mazmunini yoritishda ijtimoiy-tarixiy faktga ishora qilinishi o'rganildi.

Annotation. This article talks about the types of intertextuality phenomenon in poetic texts in which personal names participate, i.e. allusive units, and comments on them. The scientific essence of our work is to analyze the artistic properties of the anthroponymic units used in the works of Khorezm poets, as well as their practical significance in the text. Samples of poems with the names of real historical figures of anthroponyms were analyzed, and it was studied whether they refer to a literary fact or a socio-historical fact when explaining the content of the poem.

Аннотация. В данной статье говорится о видах явления интертекстуальности в поэтических текстах, в которых участвуют личные имена, то есть аллюзивные единицы, и комментарии к ним. Научная суть нашей работы заключается в анализе художественных свойств антропонимических единиц, используемых в произведениях хорезмийских поэтов, а также их практического значения в тексте. Были проанализированы образцы стихотворений с именами реальных исторических деятелей антропонимов, а также изучено, относятся ли они к литературному факту или к общественно-историческому факту при объяснении содержания стихотворения.

Kalit so'zlar: intertekst, matn osti matni, intertekstuallik, antroponim, allyuziv birlik, shaxs nomlari, antropopoetonimlar.

Key words: intertext, subtext, intertextuality, anthroponym, allusive unit, personal names, anthropoeponyms.

Ключевые слова: интертекст, подтекст, интертекстуальность, антропоним, аллюзивная единица, личные имена, антропоэпонимы.

Kirish. Ushbu maqolada intertekstuallik hodisasi va uning she'r tarkibidagi badiiy va ilmiy ahamiyati qisman o'rganildi. Bilamizki, intertekstual birliklarning ma'nosi va vazifasini tushunish ba'zi o'quvchilar uchun muammo tug'dirishi mumkin.

Bizning vazifamiz Xorazm shoirlari ijod namunalarida qatnashgan antroponim intertekstual birliklarning ma'no-mohiyati, badiiy-estetik vazifasini tahlil qilishdan iborat. Maqola nomidan ham ma'lumki, biz she'riy matnlardagi tarixiy shaxs nomlari

asosidagi intertekstuallik hodisasini o‘rganib, tahlil qilib chiqqanmiz. Chunki tarixiy shaxs nomlari ma’lum bir davr va hududdagi ijtimoiy-tarixiy faktga ishora tarzida qo‘llaniladi. Ushbu mavzuyimizning dolzarbligi ham shundaki, o‘quvchilar she’r mazmunini to‘g‘ri tushunishi uchun ham, tarixiy shaxs nomlarining nimaga, qaysi fakt, voqea-hodisaga ishora qilayotganligi, ya’ni intertekstuallik xususiyatini tushunishi muhim.

Adabiyotlar tahlili. Maqolamizni yozishda foydalangan adabiyotlardan eng muhimi,bosh manba, Xorazm shoirlaridan Jumanazar Yusupov va Komil Avaz she’riy to‘plamlari obyekt sifatida qaraldi va ulardan tarixiy shaxs nomlari olib tahlil qilindi. Tarixiy shaxs nomlarni tahlil qilishda asosan sohaga doir ilmiy adabiyotlar, ularga qo‘shimcha ravishda internet materiallaridan foydalanildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Uchbu maqolani yozish jarayonida analiz va sintez metodidan, matnlar mazmunini sharhlashda, talqin qilishda esa germineftikadan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Intertekstuallik hodisasi ko‘plab tilshunoslar tomonidan ayniqsa, matnshunos olimlar tomonidan o‘rganilib kelinmoqda. Matnning ma’no-mohiyatini boyitish, ta’sirchanligini va ifodaviyligini oshirish maqsadida yozuvchi va shoirlar o‘z asarlarida intertekstuallardan keng va mohirona foydalanishga harakat qilishadi. Intertekstual birliklarning esa tilshunoslikda allyuziya, presedent birliklar, epigraf, sarlavha, havola, aforizmlar, maqollar kabi turlari mavjud bo‘lib, ushbu maqolada allyuziyaning bir ko‘rinishi bo‘lgan antroponimlar, ya’ni kishi nomlari xususida to‘xtalmoqchimiz. Ushbu ishimizning ilmiy mohiyati esa Xorazm shoirlarining ijodida qo‘llangan antroponimik birliklarning badiiy xususiyatlari, matndagi amaliy ahamiyatini tahlil qilishdan iborat.

Allyuziya so‘zi lotinchadan olingan bo‘lib “allusio-hazil, ishora” degan ma’noni anglatib, badiiy asarlarda hamma uchun tanish bo‘lgan faktlarga ishora qiluvchi stilistik usuldir [12]. Allyuziyani mumtoz adabiyotimizdagi talmeh - ya’ni asarda tarixiy-badiiy ismlarning qo‘llanilish san’ati bilan o‘xshashlik jihatlari mavjud. Lekin farqli jihati shundaki, alyuziya san’atida nafaqat tarixiy-badiiy, balki siyosiy, ijtimoiy, shaxsiy (yozuvchi hayotiga aloqador) nomlar ham qo‘llanilishi mumkin. Kishi nomlariga keladigan bo‘lsak Xorazmiy, Beruniy, Navoiy kabi nomlar talmehga mos kelishi mumkin, ammo Matrosov (Ikkinchi jahon urushi qahramoni), Ahmad Zohir (Mashhur qo‘shiqchi) kabi zamonaviy nomlar talmehga mos kelmaydi. Bu o‘ringa allyuziv nom atamasi o‘rinlidir.

Matnda allyuziv nom qo‘llanishi uchun quyidagi uch jihat talab qilinadi:

1) gorizontal va vertikal matn ishtiroki;
2) allyuziv manbaning mashhurligi;
3) tarixiy-madaniy axborotning mavjudligi [10, 218].

Tushimda Batmina yashar arshimda,
Hamroh bo‘lar yuksak safarda sabo...
Polvon Piyrni yo‘qlab chiqar qarshimdan
Oppoq tuya mingan Rabg‘uziy bobo [5, 85].
Uni so‘ylaguvchi Mashrabdek yurak,
Kuylaguvchi – Ahmad Zoirdek marddir.

Uni quchmoq uchun Matrosov kerak,
Unga uchmoq uchun Gastello shartdir [4, 41].

Birinchi bandda qo‘llangan Polvon Pir (Pahlavon Mahmud) allyuziv antroponimi o‘zbek o‘quvchisi uchun unchalik mashhur emas, xorazmliklar orasida mashhur. Bandda allyuziv nom vositasida adabiy faktga (afsonaga) ishora mavjud. Biroq bu fakt hududiy tarqalishi jihatdan chegaralangandir.

Ikkinchi bandda qo‘llangan Ahmad Zoir (aslida Ahmad Zohir) haqida esa boshqacha holat kuzatiladi. O‘zbeklar orasida bu nom mashhurlik qozonmagan, shundan kelib chiqib, bu allyuziv antroponimning qo‘llanishi muvaffaqqiyatli chiqqan deb bo‘lmaydi. Shunday bo‘lsa ham, misradagi kuylaguvchi so‘zi antroponimning kodini topishga yordam beradi.

Ahmad Zohir bastakor, qo‘shiqchi, kuchli ovoz sohibi (afg‘on farzandi) bo‘lganligi sababli she’r mazmunidagi uyg‘unlik nazarda tutilgan.

Allyuziv nomlar qo‘llanishida avvalo shu ikkala jihatga e’tibor qaratmoq lozim a) allyuziv nomlarning adabiy faktga ishora qilishi va b) ularning turli ijtimoiy-tarixiy faktga ishora qilishi [11.103].

Ushbu maqolamizda Xorazm shoirlaridan: Jumanazar Yusupov, Komil Avaz she’rlarida qo‘llaniladigan allyuziv birliklardan real tarixiy shaxs nomlari asosida hosil qilingan badiiy vazifa bajarib kelgan intertekstlar haqida fikr yuritamiz. Ma’lumki, she‘riy matnda qo‘llangan nomlar juda ko‘p. *Teonimlar, antroponimlar, toponimlar, gidronimlar, kosmonimlar, biblionimlar, zoonimlar, fitonimlar* va hakazo. Shulardan antroponimlar tilshunoslikda yirik ikkita guruhga a) *real tarixiy shaxslar, b) afsonaviy shaxslarga* ajratib o‘rganiladi. Ularning ham ichki tarmoqlanishini amalga oshirsa bo‘ladi. Masalan, real tarixiy shaxslar hukmdorlar, olimlar, shoirlar, me’morlar, bastakorlar v.h kabi. Biz bu o‘rinda yuqorida ko‘rsatilgan mualliflarning she’rlarida uchraydigan real tarixiy shaxslar nomlari qo‘llanishi orqali yuzaga kelgan intertekstlar va ularning badiiy matnni hosil qilishdagi o‘rni haqida to‘xtalamiz.

Tarixiy shaxs nomlarining she’r tarkibida qo‘llanilishi, ya’ni badiiy-estetik vazifasini yoritishda ularni hukmdor, shoir, olim nomlari kabi guruhlarga bo‘linishi tahlil qilishda yordam beradi. Ko‘pincha she’r va matnlar tarkibida *antropopoetonimlar* (matnda badiiy-estetik vazifa bajaruvchi kishi nomlari) Kubro, Jaloliddin, Husayn Boyqaro, Navoiy, Mashrab kabi tarixiy ismlar uchrab turadi va ayni matn mazmunini yoritishda muhim vazifa o‘taydi. Masalan, shoir Jumanazar Yusupovning “Vatan” she’rida Najmiddin Kubro ismini qo‘llash orqali o‘quvchini badiiy maqsadga tomon yetaklab boradi:

Urganchning yirtilgan bayroqlarinda,
Kubroning qon silqqan barmoqlarinda,
Mardlar ot o‘ynatgan tuproqlarinda,
Eldoshim, ko‘zing och, bir hikmat jodir,
Vatanni sotganlar vatangadodir [7, 83].

Tarixiyning dalolatiga ko‘ra 1221-yilning qishida ellik ming kishilik mo‘g‘ul askarlari Urganchni qamal qilishadi. Xorazm hukmdori jonini saqlab qolish ilinjida yurtini tashlab ketganda ham yetmish besh yoshli Shayx Najmiddin Kubro oxirgi nafasigacha yurti uchun mardonavor kurashdi [13]. Tasavvuf allomasi, buyuk shayx

Najmiddin Kubro mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi mardona jang qilib, dushman bayrog‘ini yulqib oladi va mahkam changallab jon beradi. Yer bilan bitta bo‘lgan bayroqni hech kim Kubro qo‘lidan tortib ola ololmagan ekan, dushman jangchilaridan 10 ga yaqin askar barmoqlaridan bayroqni zo‘rg‘a olganligi, xalq orasida esa barmoqlarini kesib olganligi haqida afsonaviy hikoyalar yuradi [6]. She’r tarkibida qo‘llangan ***bayroq, qon silqqan barmoqlar…***kabi qismlar intertekstning va ta’sirchan chiqishiga yordachi vosita bo‘lgan. Shoir bu o‘rinda shu tarixiy faktga murojaat qilish orqali o‘quvchining tarixga oid xotirasini uyg‘otadi va shu bilan buyuk allomaga hurmat hamda Vatanga muhabbat tuyg‘ulari kitobxon qalbida jo‘sh uradi.

Bundan tashqari Komil Avaz she’rlarida ham Kubro obraziga keng o‘rin berilgan. Bu milliy qahramon tariqat pashvosi ekanligi quyidagi misralarda anglashiladi:

...***Shayx Kubro*** sohibi ilmi laduniy,

Shahid bo‘ldi bosgach kuffor zaminni [2, 136],

Bu matnda ham oldingi misoldagi kabi mushtaraklik mavjud bo‘lib, kitobxon allomaning shahid ketganini tushunadi. Tarixiy voqea ko‘z oldida jonlanganday bo‘ladi. Oldingi misoldan farqli o‘laroq bu matnda ko‘lamdorlik keng ekanini ko‘rish mumkin. Ya’ni buy she’rning birinchi misrasida Shayx Kubro antroponimi qo‘llangan bo‘lib, yana bir izohlanishi kerak bo‘lgan o‘rib mavjud bu – “ilmi laduniy” jumlasidir. Buni qisqa qilib Haqni anglash ilmi deyish mumkin. Ko‘rinadiki, Kubro bu ilmning sohibi ekanligiga ishora mavjud bu o‘rinda. Shu ikki misraning o‘zidayoq allomaning ham hayot yo‘liga oid, ham ilmiga oid faktlar she’rxon xotirasida qayta tiklanadi. Shu sabab ham bu misol “***Kubro***ning qon silqqan barmoqlarinda”dan ko‘ra ko‘lamdorroqdir.

Badiiy adabiyotda real tarixiy shaxs nomlaridan eng ko‘p qo‘llaniladigan milliy qahramon *Jaloliddin Manguberdi* bo‘lib, bu nom butun o‘zbek she’riyatida mardlik timsoli sifatida keng ishlatiladigan sarkarda nomlaridan biridir. Quyida Jumanazar Yusupovning “Iftixor” nomli she’rida qo‘llangan Jaloliddin allyuziv birligi yengilmas sarkarda oddiy, ya’ni qalbi bor, mehribon inson sifatida gavdalanadi:

Sokin o‘tmish bilan shahdam bugunning,

Tutashib ketadi asta yo‘llari.

Boshingni silaydi ***Jaloliddin****ning,*

Shamshir dastasini tutgan qo‘llari [7.124].

Jaloliddin Manguberdi (1198–1231) – buyuk xorazmshohlar davlatining so‘nggi vakili, xorazmshoh Alouddin Muhammadning to‘ng‘ich farzandi, mustaqillik uchun fidokorona kurashi, ajoyib sarkardalik faoliyati, shaxsiy jasorati, Vatanga muhabbati bilan tarixdan munosib o‘rin olgan davlat arbobi. Chingizxon boshchiligidagi mo‘g‘ul qo‘shinlari Movarounnahrga bostirib kirib birin-ketin shaharlarni egallab, Samarqandga yaqinlashganlarida xorazmshoh Muhammad Kaspiy dengizi bo‘yida joylashgan Obeskun shahri yaqinidagi Ashura orolidan panoh topgan. Og‘ir bemor bo‘lgan Muhammad o‘g‘illarini yoniga chorlab, so‘nggi damda Jaloliddin Manguberdini o‘z o‘rniga xorazmshoh etib tayinlagan [1].

She’rning tarkibidagi Jaloliddin tarixiy shaxs nomi allyuziv intertekst birlik bo‘lib, she’rda bugungi baxtli kunlarimiz o‘tmish bilan bog‘langanligi, ya’ni shoir mustaqillikka yetishishimiz oson bo‘lmaganligi, yurtimiz sarhadlarini ko‘plab ajdodlarimiz himoya qilganligini nazarda tutmoqda. Jaloliddinning qo‘llari boshingni

silaydi, ya’ni mard, buyuk qahramonning qo‘llari adolat qilganda uning jasorati va mardligi yanada yorqin namoyon bo‘lishi bilan bog‘liq metafora usulda qo‘llangan.

Keyingi misollarda qatag‘on davri qurbonlari bo‘lmish mashhur o‘zbek jadidlari nomlari she’r tarkibida intertekstual birlik bo‘lib kelgan o‘rinlarni ko‘rib chiqamiz.

Ixlos boshin tutib bersa riyoga,
Ezgulikning ro‘yi do‘nar siyoga,
Bo‘ldilar-ku, axir, qurbon, dunyoga
Qodiriy, Cho‘lpon, Usmon tor kelib [2, 46].
Aytsam qatag‘ondan etgan qasrni,
Qodiriy, Fitrat-u, Cho‘lpon, Nosir*ni*,
O‘limi eng mudhish ohi asrning,
Tabassuming gahi giryon yuzingda,
O‘zbekiston, bor bo‘l jahon yuzingda! [2, 80]

1938-yil 4-oktabrdagi qatag‘on qurbonlari bo‘lmish Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon (Usmon Nosir bu ijodkorlardan farqli ravishda 1937-yil 13-iyulda qamoqqa olinadi va surgun qilinib 1944-yilda oqlanadi. Lekin afsuski shu yili olamdan o‘tadi) she’r tarkibda allyuziv intertekst birlik hisoblanib, o‘zbek xalqining mudhish tarixiga ishora tarzida qo‘llangan. Bu ijodkorlarnng nohaq o‘limi, hukmsiz “otuv kuni” hammaning ko‘z oldiga kelishi tabiiy. Albatta, xalq hozirgi milliy ruhimiz, mustaqilligimizni qo‘lga kiritishimizda ushbu jadidchi ajdodlarimizning o‘rni va rolini yaxshi anglab yetadi va unutmaydi. Shuning uchun ham ko‘plab vatanga, mustaqilligimizga bag‘ishlangan ijod namunalarida o‘quvchini ruhlantirish, vatanparlik tuyg‘usini kuchliroq ta’sirliroq ifodalash uchun mustaqilligimiz uchun kurashgan, xalqni ruhlantirgan ajdodlarimiz nomi tilga olinadi. Ushbu allyuziv nomlarning Komil Avazning “Hazratim” she’ridagi intertekstuallik xususiyatiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, shoir ixlos, ya’ni orzu-maqsad o‘zini yolg‘onning qo‘liga topshirsa, ezgulik dunyosi siyo(h)- qora (yovuz) bo‘lib qolishini *Qodiriy, Cho‘lpon, Usmon Nosir*ning qatag‘on davri qurbonlari bo‘lishiga qiyoslab yozgan. Ya’ni bu shoirlarni atrofidagi zamondoshlari sho‘ro hukumatiga ustidan yozib, xalq dushmani, mavjud tuzumni qoralovchilar sifatida ko‘rsatganlar va natijada qamoqqa olinib, *Qodiriy va Cho‘lpon, Fitrat* o‘sha mudhish tunda 1938-yil 4-oktabrda otib tashlanganligi, Usmon Nosir ham surgun qilinib oxir oqibat ushbu tuzum ta’siri qurboni bo‘lgani voqeasiga ishora qilinadi. Bu vaziyat she’rdagi “ixlos o‘zini riyoga-yolg‘onga topshirsa, ezgulik xafalikka aylanishi” ni ochib berishda xizmat qilgan. Albatta bilimdon, ziyrak o‘quvchi buni tezda anglab, she’r tarkibida kelgan ushbu tarixiy voqelikni ko‘z oldiga keltira oladi va shu orqali asosiy ma’noni anglab yetadi.

Komil Avazning yana boshqa bir “O‘zbekiston, bor bo’l jahon yuzingda!” nomli she’rida xuddi shu shoir nomlari qo‘llangan bo‘lib, she’rning mazmuni, vatanga bo‘lgan mehrni aynan shu voqeaga ishora qilgan holda ifodalagan. Ko‘p sonli shoirlarning o‘limi “qatag‘on qasri”ga, ularning o‘limi XX asrning eng mudhish o‘limi ekanligiga ishora qilinib, shoir hozirgi mustaqil O‘zbekiston barpo qilinishida ularning mehnati, roli, katta hissasi borligini yana bir bor ta’kidlaydi.

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, o‘zbek she’riyatida tarixiy shaxs nomlari bilan bog‘liq intertekstlar tarixiy faktga ishora qilishi bilan birga o‘quvchida

vatansevarlik tuyg‘usini qaror toptiradi. Shu bilan birga matnda ishlatilgan antroponimlar tarixiy xotiraga turtki beradi va o‘ylashga, fikr yuritishga majbur qiladi. Yozuvchi ushbu turdagi intertekst birliklardan o‘zi aytmoqchi bo‘lgan fikrni yoki tuyg‘uni o‘quvchiga ta’sirchanroq, aniqroq ifodalash maqsadida foydalanadi. Albatta yozuvchi yoki shoirdan shaxs nomlarini tanlashda ko‘pchilikka ma’lum, ta’sir doirasi kuchliligiga qarab tanlash talab qilinadi. Badiiy adabiyot muxlislaridan, o‘quvchi qatlamidan esa, o‘qiyotgan manbaning ma’nosini to‘g‘ri tushunishi uchun faqatgina adabiyot emas tarixdan ham bilimga egalik talab qilinadi va tavsiya qilinadi. Badiiy adabiyotning vazifalaridan biri o‘quvchida fikrlashni o‘stirishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Buriyev O, Toshev N. Jaloliddin Manguberdi (Davri. Sarkardalak faoliyati. Manbalar) — Toshkent, «Fan» nashriyoti, 1999. 70 b.

2. Kamil Avaz. O‘tayotgan vaqt. – T.; “Yangi asr avlodi”, 2006. – 258 bet.

3. Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O‘zbek xalq maqollari. – T., Sharq, 2005. – 512 b.

4. Matnazar Abdulhakim. Tanlangan asarlar (1-jild) – T: G‘.G‘ulom, 2017. 327 b. Nodirabegim, 2020. B.103.

5. Matnazar Abdulhakim. Ko‘prik – Urganch, 2009. – 143 b.

6. Safarov O. Shayx va Shahidlar Kubrosi. T.; “Javohir – ilm – nashr”, 2024. 220.

7. Yusupov Jumanazar.” Najot ma’budi”. Urganch, “Xorazm” nashriyoti, 2016, 124-bet.

8. Yo‘ldoshev M., Z. Isaqov, Sh. Haydarov: Badiiy matnning lisoniy tahlili: Metodik qo‘llanma/ mas‘ul muharrir N. M. Mahmudov. - T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. – 120 b.

9. Xomidova M.F. Badiiy matn persepsiyasida intertekstuallik. F.f.b.f.d. (doctor of philosophy) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. – T., 2021. – 152 b.

10. Xudoyberganova D. O‘zbek tilidagi badiiy matnlarning antropotsentrik talqini: filol.fan.d-ri. diss. – Toshkent, 2015. – B.218.

11. Xudoyberganova D. Til. Tafakkur. Madaniyat. Ilmiy risola. – T.;

12. https://tsuull.uz/sites/default/files/10._orinova_z.pdf.

13. https://cyberleninka.ru/article/n/najmiddin-kubro-mo-g-ullarga-qarshi-kurashgan-xalq-qahramoni/viewer.

MULOQOTDA HAMKORLIK TAMOYILI VA UNING REKLAMA MATNLARINI YARATISHDAGI O‘RNI

Sobirova Dilnoza Rasulovna,
BuxDU, O‘zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasi doktoranti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Ma’lumki, muloqot ikki yoki undan ortiq shaxs o‘rtasida fikr, g‘oya, his-tuyg‘u yoki ma’lumot almashish jarayoni bo‘lib, uning asosiy maqsadi o‘zaro tushunish va fikr almashishdir. Pragmalingvistika muloqotni faqat semantik va grammatik jihatdan emas, balki uning ijtimoiy, kontekstual va psixologik jihatlarini ham o‘rganadi. Muloqotning samarali yoki muvaffaqiyatsiz bo‘lishi sabablarini aniqlash uzoq yillardan buyon pragmalingvistik tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishlaridan biridir. H.Graysning hamkorlik tamoyili nazariyasi ham aynan shu tadqiqotlar natijasida yuzaga kelgan. Bu tamoyil reklama sohasida samarali aloqani ta’minlash uchun muhimdir. H.Graysning hamkorlik tamoyili (miqdor, sifat, aloqadorlik, muloqot uslubi) reklama xabarlarida qo‘llanilganda, ularning samarali va tushunarli bo‘lishi ta’minlanadi. Mazkur maqolada H.Graysning hamkorlik tamoyili nazariyasi asosida yaratilgan reklama matnlari auditoriyaga aniq, qiziqarli va samarali bo‘lishi, uning reklama va marketingda eng yaxshi aloqani ta’minlashga yordam berishi hamda auditoriyaning brendga bo‘lgan ishonchini oshirishga xizmat qilishi xususida so‘z boradi. Keltirilgan fikrlar reklama matnlari asosida dalillanadi.

Kalit so‘zlar: hamkorlik tamoyili, miqdor tamoyili, sifat tamoyili, aloqadorlik tamoyili, muloqot uslubi, reklama, adresat, maqsadli auditoriya.

Kirish. Muloqot – kommunikantlar o‘rtasida fikr, g‘oya, his-tuyg‘u yoki ma’lumot almashish jarayoni. Muloqot, til va tilga asoslangan vositalar orqali amalga oshiriladi. Muloqot nafaqat so‘zlar orqali, balki boshqa vositalar, masalan, mimika, tana tili (paralingvistik vositalar), ovoz tonalligi kabilarni ham o‘z ichiga oladi. Muloqotning asosiy maqsadi — o‘zaro tushunish va fikr almashishdir. Qayd etish lozimki, muloqot antroposentrik tilshunoslik, xususan, pragmalingvistikaning tadqiq obyektlaridandir. Pragmalingvistika muloqotni nafaqat semantik va grammatik nuqtayi nazardan o‘rganadi, balki uning ijtimoiy, kontekstual va psixologik jihatlarini bilan ham qiziqadi. Muloqotning samarali bo‘lishi yoki, aksincha, “muvaffaqiyatsizlik”ka yuz tutishining sabablarini aniqlash ham uzoq yillardan buyon pragmalingvistlar diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Xususan, H.Graysning muloqotning samarali bo‘lishiga xizmat qiluvchi hamkorlik tamoyili nazariyasi mana shunday izlanishlar natijasida yuzaga kelgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Hamkorlik tamoyili (Cooperative Principle) – bu muloqotda kommunikant (adresant va adresat)lar orasidagi samarali va tushunarli aloqani ta’minlashga qaratilgan nazariyadir. H.Grays 1975-yilda yozgan “Logic and Conversation” (Mantiq va muloqot) maqolasida mazkur tamoyilni ilgari surgan. U muloqot ichtirokchilari o‘rtasidagi tushunishni yaxshilash uchun ularning qanday qilib bir-birlariga yordam berishlari lozimligini tushuntiradi. Bu tamoyil muloqotning

samarali bo‘lishi uchun ishtirokchilarning o‘zaro hamkorligini talab qiladi. Grays mazkur hamkorlik tamoyilini to‘rt asosiy maksim(tamoyil)ga ajratadi[2, 46]:

I. **Miqdor tamoyili (Maxim of Quantity).**

Mazkur maksimga ko‘ra, muloqot ishtirokchilari, kerakli ma'lumotni taqdim etishlari kerak, ya'ni ular faqat kerakli darajada ma'lumot berishlari va ortiqcha yoki kam ma'lumot bermasliklari lozim. Misol: Agar siz kimdandir biror narsa so‘rasangiz, qisqa va aniq javob kutasiz.

II. **Aniqlik tamoyili (Maxim of Quality)**.

Bu maksimda ishtirokchilar faqat haqiqatni aytishlari kerak va ular yolg‘on yoki noto‘g‘ri ma'lumot bermasliklari kerak. **Misol**: Agar kimdir sizdan ma’lum bir holatni so‘rasa, siz u haqda aniq va haqiqatga mos javob berishingiz kerak.

III. **Mavzuga aloqadorlik tamoyili (Maxim of Relation)**.

Ushbu tamoyilga ko‘ra, muloqotda berilayotgan ma’lumot tegishli va mavzu bilan bog‘liq bo‘lishi kerak. Ya’ni javob yoki so‘zlashuv mavzudan chetga chiqmasligi kerak. **Misol**: Agar siz kimdandir ishga qabul qilish haqida so‘rasangiz, unga ishga joylashish haqida tegishli ma'lumot berilishi kerak.

IV. Muloqot uslubi tamoyili (Maxim of Manner).

Bu tamoyilga ko‘ra, ma’lumot aniq, tushunarli va tartibli tarzda berilishi kerak. Ya’ni muloqot ishtirokchilari gaplashayotganda, o‘zlarining ifodalarini aniq va tushunarli qilib taqdim etishlari kerak. **Misol**: Biror joyni yo‘naltirayotganda, yo‘lni aniq va tushunarli tarzda ko‘rsatish.

Olim Sh.Safarov o‘zining “Pragmalingvistika” nomli monografiyasida H.Graysning hamkorlik tamoyilini quyidagicha tushuntiradi:

1. Miqdor tamoyili (ma’lum qilinayotgan axborotning miqdorini belgilash yoki chegaralash):

a) ma’lum qilinayotgan axborot talab darajasida bo‘lmogi darkor;

b) ortiqcha ma’lumotni berishga harakat qilma.

2. Sifat tamoyili, ya’ni “berilayotgan axborot haqiqat bo‘lishiga harakat qil”:

a) yolg‘on axborotni uzatishga harakat qilma;

b) o‘zing to‘liq ma’lumotga ega bo‘lmagan hodisa haqida gapirma.

3. Mavzuga oidlik tamoyili – mavzudan uzoqlashma, kerak bo‘lgan ma’lumotni berishga harakat qil.

4. Muloqot uslubi (tarzi) tamoyili, ya’ni “aniq va tushunarli so‘zlashga harakat qil”:

a) notanish, tushunilishi qiyin bo‘lgan iboralarni qo‘llashdan qoch;

b) dudmallikdan uzoq tur;

v) bayoning qisqa bo‘lsin;

g) nutqing mantiqiy uzviylik, tartibda bo‘lishi lozim [3, 136].

H.Graysning hamkorlik tamoyili va uning maksimalari muloqotdagi muvaffaqiyatli aloqalar uchun zarur bo‘lgan asosiy prinsiplarni belgilaydi. Ushbu maksimalarga rioya qilish orqali ishtirokchilar bir-birlariga yordam beradi, to‘g‘ri va aniq ma’lumotlarni tez va samarali ravishda almashish imkonini yaratadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Samarali muloqot tamoyillari va ular asosida **r**eklama matnlarining tadqiqi bugungi kun zamonaviy tilshunosligi oldida ijtimoiy zarurat

sifatida maydonga keldi. Xususan, “Reklama to‘g‘risida”gi Qonunning yangi tahrirda qabul qilinganligi, reklama va uning tili, matni yuzasidan belgilangan me’yorlar reklamalarni tilshunoslik nuqtayi nazardan tadqiq etishda dasturil amal vazifasini bajaradi. Shuningdek, matnning antroposentrik tadqiqi, xususan, hamkorlik tamoyillari (miqdor, sifat, aloqadorlik, muloqot uslubi kabilar) reklamaning maqsadli auditoriya bilan yaqinlashuvi, qolaversa, reklama matnining adresatlar tomonidan qabul qilinishi bilan bog‘liq o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Tahlil va natijalar.

H.Graysning hamkorlik tamoyili pragmatikada nutqiy harakatlar nazariyasiga ham katta ta’sir ko‘rsatgan bo‘lib, u nutqiy harakatlarni tahlil qilishda ishtirokchilarning maqsadlariga, vaziyatga va kontekstga qarab qanday qilib ma’lumot uzatishlarini tushuntiradi. H.Graysning maksimalari muloqotda tushunish va ko‘proq ma’lumot olishni ta’minlaydi.



1-rasm. H.Graysning muloqotda hamkorlik tamoyili

H.Grays hamkorlik tamoyilining muhim jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

Kooperatsiya. H.Grays tamoyili muloqotda ishtirok etayotgan barcha shaxslar bir-biriga yordam berishlari kerakligini ko‘rsatadi. Ular bir-biriga ma’lumotlarni aniq, to‘liq, va mos tarzda taqdim etishlari kerak.

Samarali aloqa. H.Graysning hamkorlik tamoyili aloqaning samarali va qisqa bo‘lishini ta'minlashga yordam beradi.

Pragmatik tadqiqotlar uchun asos. H.Graysning tamoyili pragmatika sohasida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, nutqiy aktlar va pragmatikadagi tushuncha va munosabatlarni yanada chuqurroq o‘rganishga imkon yaratadi.

H.Graysning hamkorlik tamoyili muloqotda samarali va tushunarli aloqalarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan prinsiplarni belgilaydi. Uning to‘rt maksimalari — miqdor, aniqlik, mavjudlik, muloqot uslubi — muloqot ishtirokchilarining bir-biriga yordam berishini va aniq, to‘liq, va tegishli ma'lumot almashishini ta’minlashga qaratilgan. Bu tamoyil, ayniqsa, pragmatika va nutqiy harakatlar nazariyasida katta ahamiyatga ega.

Qayd etish lozimki, H.Graysning hamkorlik tamoyili reklama sohasida ham katta ahamiyatga ega. Reklama matnlarini yaratishda hamkorlik tamoyili va uning maksimalarini qo‘llash orqali samarali, tushunarli va maqsadga yo‘naltirilgan xabarlarni taqdim etish mumkin. Quyida H.Graysning hamkorlik tamoyilining **reklama** kontekstidagi ahamiyatini ko‘rib chiqamiz:

I. Reklamada miqdor tamoyili. Reklama xabarlarida ma’lumotni optimal darajada taqdim etish juda muhim. Reklama matnining haddan tashqari uzun yoki juda qisqa bo‘lishi reklama qilinayotgan mahsulotga nisbatan adresatlarning “hafsalasini pir qilishi” (agar reklama matni uzun bo‘lsa) yoki reklama bilan tanishib ulgurmasligi natijasida ularda qiziqish uyg‘onmasligi (matn qisqa bo‘lsa) mumkin [4, 128]. Masalan, telefon gadjeti reklama matnini olsak:

1-variant. *Bu telefonning 64 gigabaytli xotirasi va sifatli kamerasi bilan ajoyib suratlar olish mumkin! Eng go‘zal damlarni bizning telefon bilan muhrlang!*

2-variant. *Bu telefonning 64 gigabaytli xotirasi va 12 megapikselli kamerasi, o‘ninchi avlodni qo‘llab-quvvatlovchi protsessori mavjud bo‘lib, shuningdek, u juda ko‘plab xususiyatlarga ega.*

Dastlabki reklama matni ikkinchisiga qaraganda nisbatan qisqa va tushunarli.

Ikkinchi reklama matnida esa adresat uchun ortiqcha bo‘lgan ma’lumotlar o‘rin olgan bo‘lib, ular adresatni chalg‘itishi mumkin.

II. Reklamada sifat tamoyili. Reklamada adresatlarga haqiqiy va to‘g‘ri ma’lumot taqdim etilishi kerak. Bu reklamaning sifatli bo‘lishining muhim shartlaridan biridir. Boisi reklama orqali adresatlarga noto‘g‘ri ma’lumot berish yoki yolg‘on reklama tarqatish brendning ishonchligiga zarar yetkazishi mumkin. Kuzatamiz:

1-variant. *Ushbu avtomobil 10 soat davomida uzluksiz ishlash imkoniga ega. Bu sizga uzoq safarlarga chiqishga qulaylik yaratadi.*

2-variant. *Bizning mashinamiz eng yaxshi! Hech qanday muammosiz va cheksiz vaqt davomida ishlay oladi.*

Dastlabki reklama matni bilan tanishgan adresatda ishonchli axborot berilgan bo‘lishi mumkinligi xususida tasavvur uyg‘onadi. Keyingi reklama matni xususida esa bunday deya olmaymiz. Boisi avtomobilning hech bir muammosiz, cheksiz vaqt davomida ishlay olishi “utopiya”dir. Chunki bu xabar haqiqatga mos kelmaydi.

III. Reklamada aloqadorlik tamoyili. Bunda reklama matnida faqatgina mavzuga daxldor axborot berilishi lozim. Reklama matnida mavzudan biroz bo‘lsa-da chetlashilsa, bu auditoriyaning chalg‘ishiga olib keladi. O‘z-o‘zidan reklama kampaniyasi muvaffaqiyatsiz yakunlanadi. Kuzatamiz:

1-variant. *Yangi telefonimiz o‘zining yuqori sifatli kameralari va quvvatli protsessori bilan sizga eng yaxshi tajribani taqdim etadi.*

2-variant. *Bizning telefonlarimiz sizga ajoyib suratlar olish imkonini beradi, va, shuningdek, uning yordamida obodonlashtirish va bog‘dorchilikka oid eng yaxshi darslarni ko‘rib, o‘rganishingiz mumkin.*

Ko‘rinib turibdiki, har ikkala reklamadan asosiy maqsad telefonni reklama qilib, sotish edi. Biroq ikkinchi reklama matnida telefonga xos xususiyatlar xususida ma’lumot berilishi barobarida “obodonlashtirish va bog‘dorchillikka oid eng yaxshi

darslarni ko‘rish imkoniyati” haqida ham so‘z boradi. Aynan obodonlashtirish va bog‘dorchillikka oid eng yaxshi darslar xususidagi xabar auditoriyani chalg‘itadi.

IV. Reklamada muloqot uslubi tamoyili. Reklama matnlari va ular bilan bog‘liq videolarni yaratishda ma’lumot tushunarli uslubda berilishi kerak. Bunda maqsadli auditoriya xususiyatlarini ham inobatga olish muhim. Agar reklama noaniq, murakkab yoki tartibsiz tarzda taqdim etilsa, bu maqsadga erishish uchun muammo yaratishi mumkin. Adresatlar reklama xabarini tushunishda qiyinchilikka duch kelmasliklari kerak. Masalan:

1-variant. *Endi 50 % chegirma bilan yangi smartfon sotib oling.*

2-variant. *50 % chegirma, hali sizga taklif qilishimiz mumkin bo‘lgan boshqa ko‘plab ustunliklar…* Mazkur xabar noaniq, qolaversa, maqsadli auditoriyani qiziqtirmasligi mumkin.

Xulosa. H.Graysning hamkorlik tamoyili reklamada samarali aloqani ta’minlash uchun juda muhimdir. Reklama xabarlarini yaratishda miqdor, sifat, aloqadorlik hamda muloqot uslubi tamoyillariga rioya qilish reklama va maqsadli auditoriyani bir-biriga yaqinlashtiradi. Ayni damda mazkur tamoyillar asosida yaratilgan reklama matnlari adresatlar uchun tushunarli, samarali va qiziqarli bo‘ladi. Ta’kidlash lozimki, H.Graysning hamkorlik tamoyili reklama va marketingda eng yaxshi aloqani ta’minlashga xizmat qiladi hamda maqsadli auditoriyaning brendga bo‘lgan ishonchini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Абдуллаев Б.Х. Ўзбек реклама лингвистикаси: назария ва амалиёт. Филол. фан. бўй. фалс. докт. дисс. автореф. – Андижон, 2020. – 65 б.

2. Grice H.P. Logic and Conversation. Harvard University Press. 1975. – P. 46. https://projects.illc.uva.nl/inquisitivesemantics/assets/files/papers/Grice1975.pdf

3. Haugh M., Dániel Z. Kádár, Terkourafi M. The Cambridge Handbook Of Sociopragmatics. New York: Cambridge University Press. 2021.

4. Мамирова Д. Ўзбек реклама матнларининг социолингвистик тадқиқи. Филол. фан. бўй. фалс. доктори дисс... – Самарқанд. 2020.

5. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – Б. 136.

6. Sobirova D.R. Qisqalik – samarali tibbiy reklama yaratishning muhim omili. “Soha lingvistikasi: tilshunoslik va tibbiyot integratsiyasining muammolari, yechimlari hamda istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani. Buxoro, 2021-yil, 11-noyabr. – B. 141-145.

7. The Pragmatics Encyclopedia / edited by Louise Cummings. Taylor & Francis e-Library, New York. 2010. P. – 226.

8. Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013. – 136 б.

9. Худойберганова Д. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик талқини. Филол. фан. докт. дисс. автореф. – Тошкент, 2015.– 102 б.

10. Ўзбекистон Республикасининг «Реклама тўғрисида»ги Қонуни. № ЎРҚ – 776. 07.06.2022.

O‘ZBEK TILI DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA DARSLARNI TASHKIL ETISH USULLARI

Tursunov Akmal,
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti dotsenti

Annotatsiya: Innovatsion texnologiyalarning dars jarayoniga joriy etilishi, o‘quvchilarni faol o‘qitish va o‘zlashtirishda muhim rol o‘ynamoqda. O‘qitishning traditsion usullari hamon keng tarqalgan bo‘lsa-da, zamonaviy talablarga javob beradigan ta’lim usullari innovatsion texnologiyalar orqali amalga oshiriladi. Innovatsion texnologiyalarning o‘qitish jarayoniga joriy etilishi, zamonaviy ta’lim tizimini rivojlantirish va sifatiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Innovatsion texnologiyalar O‘zbekistondagi ta’lim jarayonida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, o‘quvchilarning faollik darajasini oshirish, ularning bilimlarni amaliy va nazariy jihatdan mustahkamlashga yordam beradi.

Abstract: The introduction of innovative technologies into the educational process plays an important role in active learning and student learning. Although traditional teaching methods are still widespread, modern teaching methods are being implemented through innovative technologies. Innovative The introduction of innovative technologies into the educational process has a great impact on the development and quality of the modern education system. Innovative technologies play an important role in the educational process in Uzbekistan; they help to increase the level of activity of students and strengthen their knowledge in practical and theoretical terms.

Аннотация: Внедрение инновационных технологий в учебный процесс играет важную роль в активном обучении и обучении студентов. Хотя традиционные методы обучения все еще широко распространены, методы обучения, отвечающие современным требованиям, реализуются посредством инновационных технологий. Инновационный. Внедрение инновационных технологий в учебный процесс оказывает большое влияние на развитие и качество современной системы образования. Инновационные технологии играют важную роль в образовательном процессе в Узбекистане, они помогают повысить уровень активности студентов, укрепить их знания в практическом и теоретическом плане.

Kalit so‘zlar: O‘zbekistonda, texnologiyalar, usullar, texnik vositalar, o‘zbek tili, rivojlanish, Innovatsion, rag‘batlantirish, elektron, interfaol.

Ключевые слова: В Узбекистане технологии, методы, технические средства, Узбекский язык, развитие, Инновационные, пропагандистские, электронные, интерактивные.

Keywords: Uzbek technologies, methods, technical means, Uzbek language, development, innovative, propagandistic, electronic, interactive.

Kirish. Bugungi kunda ta’lim tizimining barcha sohalarida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash, ta'lim sifatini yaxshilash va o‘quvchilarning bilim olish jarayonini samarali tashkil etish uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbek tili darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish, ayniqsa, o‘quvchilarning tilni o‘zlashtirish, fikrlash va nutq madaniyatini rivojlantirishda katta imkoniyatlar yaratadi. Ushbu maqolada o‘zbek tili darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning asosiy yo‘nalishlari tahlil qilinadi.

O‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish. Z.M.Xudoyberdiyeva tomonidan o‘zbek tili o‘qitishning asosiy maqsadlaridan biri - o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishdir. Innovatsion texnologiyalar, masalan, interaktiv doskalar, multimediya dasturlari va internet resurslari, o‘quvchilarga darsda interaktiv ishtirok etish, o‘z fikrlarini erkin va aniq ifoda etish imkonini beradi. Shuningdek, videokonferensiyalar va onlayn mashg‘ulotlar o‘quvchilarning nutq qobiliyatlarini oshirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi [1].

O‘zbek tili o‘qitishda onlayn va mobil ilovalar. Hozirgi kunda mobil ilovalar va onlayn platformalar o‘quvchilarga o‘zbek tilini o‘rganishda ko‘plab yordamchi resurslar taqdim etmoqda. Masalan, Duolingo, Quizlet, Kahoot kabi ilovalar o‘quvchilarga yangi so‘zlarni o‘rganish, grammatikani mustahkamlash va o‘qish-ko‘rish qobiliyatlarini rivojlantirish imkonini beradi. Bunday ilovalar yordamida o‘quvchilar o‘z bilimlarini qiziqarli va o‘ziga xos usullar bilan mustahkamlashlari mumkin.

Elektron o‘qitish resurslari va onlayn kurslar.O‘zbek tili darslarida interaktiv elektron resurslar, masalan, elektron kitoblar, taqdimotlar, video materiallar va testlar qo‘llanilishi o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlaydi. Shuningdek, onlayn kurslar va o‘quv platformalarida darslar tashkil etish o‘quvchilarga masofaviy ta’lim olish imkoniyatini beradi. Bu, ayniqsa, chekka hududlardagi talabalarga samarali ta’lim olishda yordam beradi.

O‘qish va yozishni rivojlantirishda texnologiyalardan foydalanish. O‘zbek tili o‘qitishda o‘quvchilarning o‘qish va yozish ko‘nikmalarini rivojlantirishda texnologiyalardan foydalanish alohida o‘rin tutadi. Masalan, onlayn diktantlar, yozma ishlarni elektron tarzda baholash, avto-tekshirish tizimlari orqali o‘quvchilarning yozish malakalari yaxshilanishi mumkin. Interaktiv dasturlar yordamida o‘quvchilar o‘z xatolarini tezda ko‘rib chiqib, to‘g‘ri yo‘llarni tanlash imkoniga ega bo‘ladilar.

O‘quvchilarning mustaqil ishlashini rag‘batlantirish. Innovatsion texnologiyalar o‘quvchilarga o‘z bilimlarini mustaqil ravishda kengaytirish, turli manbalardan foydalanish va o‘z o‘qish materiallarini yaratish imkoniyatini beradi. Internet va elektron resurslar orqali o‘quvchilar o‘zbek tilining turli jihatlari bo‘yicha qiziqarli materiallarni izlab topishlari mumkin. Bu usul o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va o‘z-o‘zini o‘rganish qobiliyatini rivojlantiradi.

O‘qituvchilarning pedagogik kompetensiyasini oshirish. Innovatsion texnologiyalar o‘qituvchilarga o‘z pedagogik faoliyatini yanada samarali tashkil etish imkonini beradi. O‘qituvchilar turli interaktiv platformalar, elektron darsliklar, taqdimot dasturlari yordamida darsni yanada qiziqarli va mazmunli o‘tkazishlari mumkin. Bundan tashqari, onlayn seminarlar va vebinarlar orqali o‘qituvchilar o‘z bilimlarini oshirishi, yangi pedagogik yondashuvlar bilan tanishishi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O‘zbekistonda ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlar va innovatsion texnologiyalarning o‘qitish jarayoniga joriy etilishi tahsil sifatini oshirishga, ta’limni zamonaviy talablar asosida tashkil etishga qaratilgan. O‘zbek tili darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish, o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularning ma’naviy va intellektual rivojlanishini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Innovatsion texnologiyalarning dars

jarayoniga joriy etilishi, o‘quvchilarni faol o‘qitish va o‘zlashtirishda muhim rol o‘ynamoqda.

Sh.I.Asqarovning Innovatsion texnologiyalar va ularning ta’limdagi o‘rni. Innovatsion texnologiyalar - bu yangi va samarali usullar, texnik vositalar, dasturiy ta’minot va internet platformalaridan foydalanish orqali ta’limni takomillashtirishga qaratilgan vositalar to‘plamidir. O‘zbek tili darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish, asosan, o‘quvchilarning diqqatini jalb qilish, ularni muammolarni yechishga rag‘batlantirish va o‘zlashtirish jarayonini tizimli va samarali qilishga yo‘naltirilgan [2].

Innovatsion texnologiyalardan foydalanish, o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini oshirish va ularning bilim olish usullarini yangi shaklda, jadal va samarali tashkil qilish imkonini beradi. Bunda elektron o‘quv vositalari, interaktiv do‘stlar, onlayn platformalar va sun’iy intellekt texnologiyalari o‘quvchilarga mazmunli va dinamik ta’lim berishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu texnologiyalar o‘quv jarayonini nafaqat mazmunan, balki shakl va usul jihatidan ham mukammallashtiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. O‘qitishning an’ana usullari hamon keng tarqalgan bo‘lsa-da, zamonaviy talablarga javob beradigan ta’lim usullari innovatsion texnologiyalar orqali amalga oshirilib kelinmoqda. **Misol uchun:**

Elektron ta’lim platformalari: Moodle, Google Classroom, Edmodo kabi onlayn platformalar orqali o‘quvchilarga masofadan turib ta’lim berish imkoni yaratildi.

Interaktiv taqtalar: Ushbu texnologiya o‘quvchilarning o‘rganish jarayoniga faol ishtirok etishini ta’minlaydi, chunki ular nafaqat nazariy ma’lumot olish, balki amaliy mashqlarda ham ishtirok etishadi.

Multimedia: Videolar, animatsiyalar va interfaol kontentlar o‘quv jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilib, o‘quvchilarning nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi.

N.R.Shermatovaning o‘zbek tili darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning asosiy yo‘nalishlari qo‘yidagiladan iborat bo‘ladi. [3]

Elektron ta’lim platformalaridan foydalanish. Elektron ta’lim platformalari va interaktiv ta’lim vositalari (Moodle, Google Classroom, Zoom, Microsoft Teams) o‘quvchilar bilan aloqa o‘rnatish va darslarni onlayn tarzda o‘tkazish imkonini beradi. Bu, ayniqsa, masofaviy ta’lim sharoitida muhim ahamiyatga ega.

Interaktiv doska va multimedia texnologiyalaridan foydalanish. Interaktiv doska, proyektor va multimedia qurilmalaridan foydalanish darsni ko‘p jihatdan ojizlashtiradi. O‘quvchilarga o‘zbek tilining grammatikasi, so‘z birikmalari va nutq hamda ijodiy fikrlash sohasida amaliyot o‘tkazishda yordam beradi.

Onlayn o‘yinlar va QVZlar. O‘zbek tili darslarida onlayn o‘yinlar (Kahoot!, Quizizz) orqali o‘quvchilarning faolligini oshirish, ularning matnni tahlil qilish, yozish va tilni amaliy jihatdan o‘zlashtirishga ishtiyoqini ko‘tarish mumkin. Bu o‘qish jarayonini qiziqarli va samarali qilib tashkil qilishga yordam beradi.

Video va animatsiyadan foydalanish. O‘zbek tilining nutq, grammatika va leksik ko‘nikmalarini o‘rganishda video va animatsiya texnologiyalari muhim o‘rin tutadi. O‘quvchilar uchun faol va vizual materiallar taqdim qilish, ularga tilning real kontekstda qo‘llanilishini ko‘rsatishni ta’minlaydi.

Mobil ilova va dasturlar. Mobil dasturlar, maxsus tilishga oid ilova va mobil o‘yinlardan foydalanish ham darslarni interaktivlashtirish, o‘quvchilarga tilni o‘rganishda qulaylik yaratishda ahamiyatlidir. **Masalan,** Duolingo, Babbel kabi ilova va platformalar orqali o‘zbek tilini o‘rganishni samarali va qulay qilish mumkin.

Innovatsion texnologiyalardan foydalanish o‘zbek tili darslarida o‘quvchilarning faolligini, ijodiy salohiyatini va tilni amaliy qo‘llash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Ma’naviy rivojlanishga ta’sir: O‘quvchilarga o‘zbek tilining boyligi va xususiyatlari haqidagi bilimlarini kengaytirish va ularni madaniy meyorlarga muvofiq ravishda o‘rgatish.

Muammo yechish qobiliyati: Interaktiv o‘yinlar, debatlar va onlayn qvizlar orqali o‘quvchilarda muammolarni mustaqil yechish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Tahlil va natijalar. O‘zbek tilining nutq, yozish va o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirishda yangi texnologiyalardan foydalanish, to‘g‘ri va aniq tilda fikrlashga yo‘naltirish.Innovatsion texnologiyalar faol o‘qitish usullarini amalga oshirishga zamin yaratadi. O‘quvchilarning bilimini o‘ziga xos interaktiv mashqlar va imtihonlar orqali baholash imkonini yaratadi. Bu esa ularning ilmiy bilimlarini samarali va barqaror o‘zlashtirishga yordam beradi.

M.I.Raximovning Innovatsion texnologiyalarning o‘qitish jarayoniga joriy etilishi, zamonaviy ta’lim tizimini rivojlantirish va sifatiga katta ta’sir ko‘rsatadi. O‘zbekistonda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar bu jarayonning muhim qismi hisoblanadi. O‘quvchilarning faollik darajasini oshirish, ularning ma’naviy va intellektual rivojlanishini ta’minlash maqsadida innovatsion texnologiyalardan foydalanish zarurligi ko‘pchilik tarafidan tan olingan[4].

Innovatsion texnologiyalar, shuningdek, o‘quvchilarning ma’naviy va intellektual rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga ham katta hissa qo‘shadi. Masalan, aniq fanlar va gumanitar fanlar bo‘yicha zamonaviy ta’lim vositalari, shuningdek, psixologiya va logika kabi sohalarda innovatsion o‘quv metodikalari orqali o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, mustaqil ishlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlari rivojlanadi.

O‘zbek tili darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish ta’lim sifatini oshirishga, o‘quvchilarning qiziqishini va faolligini oshirishga katta hissa qo‘shadi. Ushbu texnologiyalar orqali o‘quvchilarga tilning har bir bo‘lagi bo‘yicha zamonaviy usullarda bilim va ko‘nikmalar berish mumkin. Ammo, innovatsion texnologiyalarning samarali amalga oshirilishi uchun maktablar o‘rtasida texnik infratuzilmani yaxshilash va o‘qituvchilarning malakasini doimiy ravishda oshirish zarur bo‘ladi.

Innovatsion texnologiyalar O‘zbekistondagi ta’lim jarayonida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, o‘quvchilarning faollik darajasini oshirish, ularning bilimlarni amaliy va nazariy jihatdan mustahkamlashga yordam beradi. Bu jarayon ta’lim sifatini oshirishga, zamonaviy talablarga javob beradigan va kelajakda muvaffaqiyatli o‘zgarishlar yaratishga yo‘naltirilgan. Innovatsion texnologiyalar orqali ta’limning sifati va mazmuni har tomonlama rivojlanib, yangi avlod o‘quvchilarini yanada intellektual va ma’naviy jihatdan boyitadi. Shuningdek, pedagoglarga innovatsion usullarni o‘rganish va ulardan samarali foydalanish uchun maxsus treninglar tashkil etilmoqda.

O‘zbek tili darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish nafaqat o‘quvchilarning bilim olish jarayonini samarali tashkil etish, balki ularning mustaqil fikrlash, o‘zini ifoda etish va axborot texnologiyalaridan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirishga ham yordam beradi.

Bugungi kunda global miqyosda ta’lim tizimlarining rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatayotgan omillardan biri - innovatsion texnologiyalar. Ular nafaqat boshqa sohalarda, balki ta’lim sohasida ham samarali qo‘llanilmoqda. T.Murodov tomonidan O‘zbek tili darslarida innovatsion texnologiyalarni joriy etish, nafaqat til o‘rgatish jarayonini yengillashtiradi, ta’lim tizimining sifatini oshiradi[5].

Shu bois, ushbu maqolada innovatsion texnologiyalarni o‘zbek tili darslarida qo‘llashning ahamiyati va uning ta’lim tizimi sifatini oshirishdagi roli haqida so‘z yuritiladi. Innovatsion texnologiyalar - bu yangi ilmiy-texnikaviy bilimlarga asoslangan, jarayonlarni osonlashtirish va samaradorlikni oshirishga qaratilgan yangiliklardir. A.Shodiev ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash, o‘quvchilarning qiziqishlarini oshiradi, ularning bilish faoliyatini faollashtiradi hamda o‘qitish metodikalarini yangilaydi. Innovatsion texnologiyalar quyidagi turlarga bo‘linadi [6].

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) - kompyuterlar, internet, multimedia qurilmalari, elektron darsliklar va onlayn platformalar.

Interaktiv texnologiyalar - interaktiv ta'lim platformalari, virtual darslar, masofaviy ta’lim tizimlari.

Mobil ilovalar - mobil qurilmalar orqali o‘quvchilar bilan o‘zaro aloqa va o‘rganish imkoniyatlari yaratadigan ilovalar.

Simulyatsiya va modelleme texnologiyalari - virtual sinflar, o‘quv jarayonlarini model qilish uchun dasturlar.

O‘zbek tili darslarida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash, o‘quvchilarning tilni o‘rganish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. Masalan, interaktiv ta’lim platformalari va onlayn testlar orqali o‘quvchilarning bilimini baholash osonlashadi, ular o‘z bilimlarini real vaqt rejimida tekshirib ko‘rishlari mumkin.Innovatsion texnologiyalarni o‘zbek tili darslarida qo‘llashning bir nechta afzalliklari mavjud.

Darsning samaradorligi oshadi. O‘quvchilarni darslarga faol jalb qilish uchun turli multimedia vositalaridan foydalanish, o‘rganishni yanada qiziqarli va interaktiv qiladi.

O‘quvchilarning motivatsiyasi yuqori bo‘ladi. Elektron darsliklar, mobil ilovalar va interaktiv o‘yinlar orqali o‘quvchilar tilni o‘rganishda o‘zlarini qulay his qilishadi.

Bilimni mustahkamlashda yangi usullarni qo‘llash imkoniyati. Masalan, onlayn forumlar, bloglar yoki video darslar orqali o‘quvchilar o‘z fikrlarini bildirish va tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Individual yondashuvni ta’minlash. Innovatsion texnologiyalar yordamida har bir o‘quvchining o‘z sur’atida o‘rganishiga imkon yaratish mumkin.

Xulosa va takliflar. Innovatsion texnologiyalarni ta’lim tizimida qo‘llash orqali o‘quvchilarga zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni berish, ularning bilim darajasini oshirish va jahon ta'lim tizimi bilan raqobatbardosh bo‘lish imkoniyati yaratiladi. O‘zbek tili darslarida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali o‘quvchilarning

til o‘rganish ko‘nikmalari mustahkamlanadi. Shuningdek, interaktiv texnologiyalar yordamida o‘quvchilarning bilim olish jarayonini boshqarish va o‘qituvchi bilan yaqin aloqada bo‘lishlari ta'minlanadi.

Innovatsion texnologiyalar, shuningdek, o‘qituvchilarning o‘qitish metodikalarini yangilashga, ularning o‘quvchilar bilan samarali muloqotini kuchaytirishga yordam beradi. Bu esa ta’lim tizimining umumiy sifatini oshirishga yordam beradi.

Shuningdek, bu texnologiyalar o‘qituvchilarning pedagogik kompetensiyasini oshirishga va ta’lim jarayonini yanada zamonaviylashtirishga xizmat qiladi. Innovatsion texnologiyalarni o‘zbek tili darslarida qo‘llash orqali ta'lim tizimi sifatini oshirish va o‘quvchilarning bilim olishdagi muvaffaqiyatlarini ta’minlash mumkin.

O‘zbek tili darslarida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash, ta'lim tizimining samaradorligini oshiradi, o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yengillashtiradi va ularning qiziqishlarini oshiradi. Ta’lim tizimi sifatini oshirishda innovatsion texnologiyalarni to‘g‘ri va samarali qo‘llash muhim ahamiyatga ega. Shu bois, o‘qituvchilar va ta’lim muassasalari o‘z faoliyatlarida davomida doimiy zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalansalar, o‘z maqsadiga erishadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Asqarov Sh.I.O‘zbek tilini o‘qitishda innovatsion usullar. Toshkent: 2020-y. B-19-23 O‘qituvchi.

2. Xudoyberdiyeva Z.M. O‘zbek tili o‘qitishda inklyuziv ta’lim texnologiyalari. Toshkent: 2020-y. B-59.O‘qituvchi.

3. Raximov M.I. O‘zbek tili darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash. Toshkent: 2021-y. B-78-89. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti nashri.

4. Shermatova N. R. O‘qitishda elektron ta’lim resurslaridan foydalanish. Toshkent: 2021-y. B-58.Ta’lim va ilm jurnali .

5. Murodov T. «Innovatsion texnologiyalar va ta’lim». Samarqand: 2019-y. B-68-75

6. Shodiyev A. «Axborot texnologiyalari ta'limda». Toshkent: 2021-y. B-112-119.

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA TOPONIMLARNING QO‘LLANILISHIGA DOIR

Ergasheva Nodira,
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti,
katta o‘qituvchi

Annotatsiya: Navoiy asarlarida ko‘plab tarixiy va geografik joy nomlari uchraydi. Masalan, “Xamsa” asarida Hirot, Samarqand, Buxoro kabi shaharlarning tilga olinishi, ushbu joylarning o‘sha davrdagi madaniy va siyosiy ahamiyatini ifodalaydi. Bu nomlar, nafaqat maʻlum bir hududni tasvirlash, balki asardagi voqealar rivojiga ham maʻnoli zamin yaratadi. Ushbu joylarning madaniy va tarixiy xususiyatlarini chuqurroq o‘rganish uchun qadimgi yozma manbalar va arxeologik topilmalar haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: turkiy tillar, antroponim, toponim, asarlar, o‘zbek tili, jahon adabiyoti, Alisher Navoiy, o‘zbek adabiy tili, joy nomlari, badiiy onomastika.

Аннотация: В произведениях Навои встречается множество названий исторических и географических мест. Например, в "хамсе" упоминаются такие города, как Герат, Самарканд, Бухара, что отражает культурное и политическое значение этих мест в то время. Эти названия, не только описывающие определенную область, но и создают тематическую основу для развития событий в произведении. Для более глубокого изучения культурных и исторических особенностей этих мест предоставляется информация о древних письменных источниках и археологических находках.

Ключевые слова: тюркские языки, антропоним, топоним, произведения, узбекский язык, мировая литература, Алишер Навои, узбекский литературный язык, топонимы, художественная ономастика.

Annotation: Many historical and geographical place names are found in the works of Navoi. For example, in” Khamsa", the recitation of cities such as Herat, Samarkand, Bukhara represents the cultural and political significance of these places at the time. These titles, not only describe a region of maʻlum, but also lay the groundwork for the development of events in the work. To delve deeper into the cultural and historical characteristics of these sites, ancient written sources and archaeological finds have been documented.

Keywords: Turkic languages, anthroponym, toponym, works, Uzbek language, World Literature, Alisher Navoi, Uzbek literary language, place names, artistic onomastics.

Kirish. O‘rta Osiyolik mashhur allomalarning jahon madaniyati, ma’rifati-ilm-faniga qo‘shgan hissasi ulkandir. Jahon tan olgan buyuk allomalar: Abu Nasr Forobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Koshg‘ariy, Mahmud az-Zamahshariy, Alisher Navoiy, Mirzo Mehdixon va boshqalarning tilshunoslik fani taraqqiyotidagi xizmatlari kattadir.

O‘zbek tilining qardosh turkiy tillar orasida eng boy va serqatlam bo‘lishida, rivojlangan jahon tillari qatoridan munosib joy egallashida, o‘zbek adabiy tilining taraqqiyotida ulug‘ shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning o‘rni beqiyos. Alisher Navoiy asarlari tafakkur gulshani bo‘lish bilan birga, g‘oyat boy so‘z xazinasi hamdir. Shoir asarlarida o‘zbek xalqi turmush tarzi va dunyoqarashining barcha sohalariga oid so‘z va iboralar mavjud.

Alisher Navoiy jahon adabiyotining eng yirik namoyondalaridan biridir. Eski o‘zbek tilining boyligi va jozibasi, unga xos keng imkoniyatlarning, ayniqsa, Navoiy ijodi misolida yaqqol ro‘yobga chiqishi tilshunoslarni adib merosining til xususiyatlarini o‘rganishga undab kelmoqda. Tarixiy-badiiy manbalar leksikasini o‘rganish yozma asarlar yaratilgan davr adabiy tiliga xos xususiyatlar, lug‘aviy sath taraqqiyoti, leksik birliklar semantikasini yoritishda, o‘zbek tilining onomastika bo‘limini o‘rganishda ahamiyatlidir [8,127-129].

Alisher Navoiy asarlarida joy nomlari va toponimlar muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, uning dostonlari, qasidalar va tarixiy asarlarida toponimlar keng qo‘llanilgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Turkiy tillar badiiy onomastikasiga oid ba’zi mulohazalar nomshunos olimlar T.Januzakov, S. Ataniyazov, G. Sattarov, A.Shayxulov, T. Nafasov, Z.Dusimov, B.Bafoyev, S.Qorayev, E.Begmatov, X.Doniyorovlarning ishlarida uchraydi. Onomastikaga bag‘ishlangan ishlarning barchasida antroponimlar haqida xam so‘z boradi. Antroponim - yunoncha so‘z bo‘lib, antro - odam+onim, ya’ni kishilarga berilgan atoqli otlardir [6,127-130].

Jahon ma’naviyatining buyuk siymosi, davlat arbobi, o‘zbek xalqining ulug‘ mutafakkiri, atoqli shoiri va o‘lkan tilshunosi Alisher Navoiy o‘zbek tilining boy imkoniyatlaridan o‘rinli, samarali va juda keng foydalangan adiblardan biridir. O‘zbek adabiy tili leksikasi va grammatik qurilishini ma’lum bir meyorga kelishida uning xizmatlari beqiyosdir. Adib asarlari orqali eski o‘zbek adabiy tili o‘zining eng yuqori pog‘onasiga ko‘tarildi. Ayonki, har qanday tilning fonetik-grammatik va leksik tizimi har bir davrning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy holatiga ko‘ra ixtiyoriy hamda g‘ayri ixtiyoriy o‘zgarishga uchraydi [12,784].

Alisher Navoiy yashagan va ijod etgan davrda ham o‘zbek adabiy tilida oldingi davr adabiy tilidan ma’lum sifat, mazmun hamda miqdor jihatdan farq qiluvchi adabiy til amalda bo‘ldi. Qadimgi turkiy til va eski turkiy adabiy tilda mavjud bo‘lgan, faol qo‘llangan lug‘aviy birliklar, xususan, tub turkiy so‘zlarning katta qismini Alisher Navoiy o‘z asarlari tilida ishlatgan. Adib bunday so‘zlarni qo‘llashda, ularning jonli so‘zlashuv tilida mavjudligi, el (xalq) orasida keng iste’moldaligi, kundalik turmush uchun faol leksik birlik ekanligi, umumxalq uchun tushunarligi, kundalik turmush uchun faol leksik birlik ekanligi, tilda barqaror va turg‘unligi kabi jihatlariga alohida e’tibor qaratgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Alisher Navoiy o‘z asarlarida toponimlarni ko‘pincha ramziy yoki madaniy kontekstda ishlatgan. Bu joy nomlari orqali u o‘z davrining geografik, madaniy va siyosiy manzarasini tasvirlashga harakat qilgan. Shu sabab, uning asarlarida joy nomlari ko‘p ma’nolarni ifodalaydi va o‘sha davr tarixini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Alisher Navoiy asarlarida joy nomlarining berilishi dolzarb mavzulardan biri bo‘lib, shoirning ijodiy yondashuvlari va madaniy-geografik bilimlarining yorqin aksidir. Navoiy o‘z asarlarida ko‘plab tarixiy, geografik va ramziy joy nomlarini tilga olgan bo‘lib, ularning har biri muayyan maʻnoni anglatadi.

Navoiy asarlarida ko‘rsatilgan joy nomlarini shartli ravishda bir necha guruhga ajratish mumkin:

Tarixiy va geografik joy nomlari: Navoiy asarlarida ko‘plab tarixiy va geografik joy nomlari uchraydi. Masalan, “Xamsa” asarida Hirot, Samarqand, Buxoro kabi shaharlarning tilga olinishi, ushbu joylarning o‘sha davrdagi madaniy va siyosiy ahamiyatini ifodalaydi. Bu nomlar, nafaqat maʻlum bir hududni tasvirlash, balki asardagi voqealar rivojiga ham maʻnoli zamin yaratadi. Ushbu joylarning madaniy va tarixiy xususiyatlarini chuqurroq o‘rganish uchun qadimgi yozma manbalar va arxeologik topilmalar haqida ma’lumot beruvchi adabiyotlarga murojaat qilish zarur (“Tarixi Hirot”, “Boburnoma”) [1,35]. Masalan, Hirotning tilga olinishi uning ilm-fan va madaniyat markazi sifatida ahamiyatini ko‘rsatadi. Hirot o‘rta asrlarda Movarounnahr va Xuroson o‘rtasidagi madaniy bog‘liqlikni ifodalagan (“Tarixi Hirot”). Shu bilan birga, Samarqand va Buxoro shaharlarining zikr qilinishi, bu hududlarning Navoiy davridagi siyosiy ahamiyatini anglatadi (“Boburnoma”).

Ramziy joy nomlari: Navoiy ijodida ramziy maʻnoga ega joy nomlari ham uchraydi. Masalan, “Sab‘ai Sayyor” asarida Afrosiyob yoki Qof tog‘ining eslatilishi nafaqat geografik hududni anglatadi, balki chuqur maʻnaviy va falsafiy mazmunni o‘zida mujassamlashtiradi. Afrosiyob qadimiy Turkistonning ramziy tasvirlaridan biri sifatida, turkiy xalqlar tarixini badiiy jihatdan aks ettiradi. Qof tog‘ining eslatilishi esa, sharq adabiyotida inson ruhiy olamining o‘sish jarayonlarini ramziy ifodalashda ishlatiladi [3, 132].

Afsonaviy va adabiy joy nomlari: Shoir ba’zan qadimiy afsonalardan yoki boshqa adabiy manbalardan olingan joy nomlarini ishlatadi. Misol uchun, Farrux nomli joylar yoki mashhur Iskandar afsonasida tilga olingan joylar, uning asarlarida o‘ziga xos badiiy bo‘yoqlarda namoyon bo‘ladi. Ushbu joylar qadimiy sharq afsonalarini o‘rganish uchun yaxshi asos bo‘lib, ular haqida batafsil ma’lumot “Shohnoma” kabi manbalarda uchraydi. Farrux yoki Iskandar bilan bog‘liq joy nomlari qadimiy Sharq tarixiy-afsonaviy adabiyotining bir qismi sifatida talqin qilinadi va Navoiy ularni o‘zining dostonlarida badiiy maqsadlarda ishlatgan (“Shohnoma”).

Uydirma joy nomlari: Navoiy ba’zan asar qahramonlari yoki voqealar uchun maxsus o‘ylab topilgan joy nomlarini ham keltiradi. Bunday nomlar odatda voqeaning badiiy xususiyatlarini oshirish uchun xizmat qiladi va o‘quvchini asarning mazmuniy olamiga chuqurroq kirishga undaydi. Ushbu joy nomlari badiiy ijodning poetik xususiyatlarini o‘rganishda qiziqarli manba bo‘lib xizmat qiladi.

Masalan, “Hayrat ul-abror”da o‘ylab topilgan joylar voqealarning ramziy ma’nosini chuqurlashtiradi va insoniyatning ichki izlanishlarini tasvirlaydi [2, 9-15].

Joy nomlarining Alisher Navoiy asarlarida ishlatilishi uning nafaqat adabiy mahoratini, balki tarixiy-geografik bilimlarini ham yuksak darajada namoyish etadi. Ushbu nomlar o‘sha davr madaniyati va jamiyatining muhim jihatlarini aks ettiradi hamda o‘quvchiga o‘tmish hayotini yaqinroq his qilish imkonini beradi. Shu bilan birga,

joy nomlari Navoiy asarlarida poetik vosita sifatida ham xizmat qilib, obrazlarning yanada yorqinroq namoyon bo‘lishiga hissa qo‘shadi. Bu borada Navoiy asarlaridagi joy nomlarini zamonaviy toponimiyaga oid tadqiqotlar bilan bog‘lash va ularning etimologik ildizlarini aniqlash dolzarb ahamiyatga ega.

Alisher Navoiy turkiy tillar madaniy merosi va boyligidan o‘rinli va mahorat bilan foydalangan. U adabiy tilning leksik meyorlarini belgilashda hayotning turli sohalariga tegishli bir qancha umumturkiy so‘zlarni, ya’ni insonlar ismlarini, buyum va narsalar, taom nomlarini o‘z asarlariga singdirdi. Bunday nomni anglatgan so‘zlarning ayrimlarini quyidagi mavzuiy guruhlar bo‘yicha havola etish mumkin:

Urug‘ va xalq nomlarini bildiruvchi so‘zlar – etnonimlar: turk, el, chig‘atoy, o‘zbek, urug‘, o‘g‘uz, qipchoq, qarluq va h.k. [6,127].

So‘z mulkining sultoni, buyuk shoir, adib, olim Alisher Navoiy asarlaridagi atoqli otlar o‘zbek tarixiy onomastikasining tarkibiy qismi sanaladi. Shoir asarlaridagi atoqli otlarni nom anglatgan obyektga ko‘ra quyidagicha tasniflash mumkin: Navoiy asarlarida uchraydigan shaxs nomlari- antroponimlar.

Onomastika - yunoncha “onomastike” – so‘zidan olingan bo‘lib, “nom qo‘yish san’ati” degan ma’noni bildiradi. Hozirgi vaqtda bu termin ikki ma’noda qo‘llaniladi:

1. Ma’lum bir til, onomastika tarkibida qo‘llangan barcha atoqli otlarning yig‘indisi.

2. Atoqli otlar, ularning shakllanishi va o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganuvchi tilshunoslik sohasi.

Antroponim onomastikaning lisoniy birligi bo‘lib, u o‘z ichiga aniq birliklarni oladi. N.V.Podolskaya antroponim termini haqida fikr yuritar ekan, uning tarkibiga ism, otasining ismi, familiya, laqab, taxallus, kriptonim, andronim, ginekonim, patronim kirishini qayd qilgan [2,31]. Demak, antroponimika ismlar, laqablar, taxalluslar, familiya va ota ismlarni tadqiq qiluvchi soha hisoblanadi [5,31].

Ularni ikki guruhga bo‘lish mumkin:

1. Hayotda yashab o‘tgan shaxslar nomi: Mahmud G`aznaviy, Amir Temur, Mirza Chuchuk, Husayn Boyqaro, Amir Husrav Dehlaviy va b.

2. Hayotda mavjud bo‘lmagan afsonaviy nomlar: Vomin, Uzro, Somiriy va b. Navoiy asarlarida uchragan antroponimlarni quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Ismlar. 2. Tahalluslar. 3. Laqablar. Tadqiqotchi Sh.Yoqubovning aniqlashicha, Alisher Navoiy asarlarida 1103 dan ortiq antroponimlar mavjud [13, 26-29].

1.Ismlar. Ismlarni o‘z xarakteriga ko‘ra tarixiy, afsonaviy, timalarga ajratish mumkin.

Alisher Navoiy asarlarida o‘zi bilan zamondosh bo‘lgan tarixiy shaxslarning nomlarini ko‘plab keltirgan. Jumladan, "Majolis un-nafois" asarida 459 ta shoirlar nomi tilga olingan. Bu asarda shoirga zamondosh bo‘lgan quyidagi kishi nomlarini ko‘rish mumkin: Husayn Boyqaro, Badiuzzamon, Muzaffar Mirzo, Xadichabegim, Sulton Abusaid, Mirzo Ulug‘bek, Mavlono Lutfiy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Bobo Xasan, Sakkokiy va b. Bu nomlar tarixiy shaxslarga tegishli bo‘lib, XV asr o‘zbek tarixiy onomastikasi uchun boy material bo‘lib, o‘sha davrda kishilarni nomlash tartibi haqida ham ma’lumot beradi [10, 26-27].

Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida ma’rifatparvar, ma’naviyat va madaniyatning haqiqiy namoyondasi sifatida ulug‘langan buyuk shaxsdir.U shoir, mutafakkir, davlat arbobi, shuningdek, tasavvuf bo‘yicha yetuk alloma bo‘lgan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). A.Navoiy asarlarida afsonaviy va diniy antroponimlar ham salmoqli o‘rinni egallaydi. Afsonaviy antroponimlar shoirning badiiy va ilmiy asarlarida uchraydi. Bu kabi antroponimlar hayoliy mavzularni bayon qilish, ba’zi diniy mavzudagi asarlarni yozishda shoirga qo‘l kelgan. Shoir bunday nomlardan "Xazoyin ul-maoniy", "Tarixi anbiyo va xukamo" asarlarida o‘rni bilan foydalangan. Ammo "Xamsa" asarida afsonaviy antroponimlar keng qo‘llanilgan. Jumladan, Guli, Somir, Auraman, Suyaylo, Nuu, Qorun, Bilsis, Jamshid, Ya’juj, Iso, Datsyonus, Xorun va b. [10,34-39].

Navoiy asarlarida uchraydigan antroponimlarning katta qismini badiiy timsollarning nomi tashkil etadi. Bu antroponimlarning ko‘pi shoir ruhiy olamida ijod qilingan atoqli otlar hisoblanadi.

Navoiy badiiy timsollarga nom tanlashda o‘sha joy va xalq nomiga mos atoqli otlardan foydalanishga e’tibor qaratgan. Arabistonda bo‘lib o‘tgan voqealarni tasvirlash uchun arabcha - Sa’d, Navdar, Meur, Nu’mon, Suyayl, Jobir; Hindistonda bo‘lib o`tgan voqealarni hindcha - Jaypur, Juna, Mallu, Kad; Eron (Ajam) dagi voqealarni tasvirlashda fors-tojikcha - Xisrav, Baurom Gur, Rustam, Ganjing, Ahmad, Rustam, Nilufar, Mushtariy, Nizomiy, Umar, Nusrat, Ravshanak, Doro, Farru, Gulcheura, Yusuf, Yunus, Nuriddin Abdurahmon Jomiy, Jamshed singari nomlardan foydalangan .

Xulosa va takliflar. Navoiy timsollarga nom tanlaganda uning yokimli, jozibadorligi, jarangdorligini xam hisobga olgan. Shu sababli ba’zi timsollarning ismlari real mavjud nomlarga yaqin turuvchi atoqli otlardan olingan: Dilorom, Diloso, Diloro, Gulandom, Sumanbu, Sumanso, Paricheura, Parizod, Parivash, Paripaykar [14, 40-50], Mehrnoz va b.

Bulardan ko‘rinadiki, Alisher Navoiy asarlari onomastika va boshqa sohalar uchun qimmatli ma’lumotlar manbai hisoblanadi.

Alisher Navoiy o‘z asarlarida ishlatgan toponimlari orqali o‘zbek tilining betakror jozibasi, lug‘at boyligining kengligi, ma’noviy imkoniyatlarining cheksizligini ko‘rsatib bera oldi. Bugungi kunda ham keng iste’molda bo‘lgan til, so‘z, ma’no kabi tushunchalar bilan bog‘liq holatlarni yuksak mahorat bilan tasvir etdi. Shu bois Alisher Navoiy haqli ravishda o‘zbek tilining malikul kalomi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Alisher Navoi. Maxbub ul-kulub. Idealniy sbornik proizvedeniy. 14 t. – Tashkent: Fan, 1998. – S.35.

2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma tomlik. O‘n oltinchi tom. Muhokamat ul-lug‘atayn. – T.: Fan, 2000.

3. Alisher Navoiy.To‘la asarlar to‘plami. Majolis un-nafois. –T.: O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot. - 2013

4. Begmatov E. O‘zbek tili antroponimikasi. Nomz.dissert.T.: 1965.B.145-155.

5. Podolskaya N.V. Slovar russkoy onomasticheskoy terminologii. – S. 31

6. Ganiyev N. U. Etnograficheskiye i istoricheskiye osobennosti toponimov Kiziltepi. “Obshestvo”. 2022. -127-130.

7. Ergasheva N.A. Toponimlar – ko`hna tarix guvohlari. Ekonomika i sotsium. № 5 M.: 2024. B. 108-111.

8. Ergasheva N.A. Analysis and testing of language features of Mining terminoloji. Xorazm Ma’mun akademiyasi Axborotnomasi.X.: 2020 127-129

9. Qilichev B. O‘zbek tilida partonimiya. Filol. fanl. nomz... disser. avtoref. – T: 1997. – 23 b. 6.

10. Yoqubov Sh. Navoiy asarlari onomastikasi. Nomz. dissert...avtoref. – T.:1994. – B. 26-27.

11. Ergasheva N.A. Toponimik birliklarning lisoniy tahlili. Ekonomika i sotsium. № 3, M.: 2024. B. 1082-1086.

12. Navoiy asarlari lug‘ati. Alisher Navoiy asarlarining o‘n besh tomligiga ilova. – T.1972. – 784 b.

13. Yusupova D. Alisher Navoiy “Xamsa”sida mazmun va ritmning badiiy uyg‘unligi. – T.: Mumtoz so‘z, 2011.B.34-38

14. Ishoqov Y. Alisher Navoiy va Navoiy taxallusli shoirlar. O‘zbek tili va adabiyoti. – T.:1968. - № 1-B. 40-50.

15. Ergasheva N.A. Lingvisticheskiy analiz toponimov Respubliki Uzbekistan. Universum: filologiya i iskusstvovedeniye. -№ 5, M.: izd.“MSNO», 2024.– S.36.

16. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma tomlik. Yettinchi tom. Xamsa. Hayratul-abror.T.: “Fan”,-1991.-B.17-34

OILAVIY MULOQOTLARDA ZOHIR BO‘LADIGAN MUNOSABATLAR

Zaylobova Nazokat,
FarDU tilshunoslik kafedrasi
ilmiy tadqiqotchisi

Annotatsiya. O‘zbeklar odati, milliy qadriyatlariga ko‘ra oilaviy muloqotlarda munosabatlarning xilma-xilligiga hamda hudud jihatidan xoslanishiga duch kelamiz. Ota-bobolarimiz odob-axloq qoidalariga qattiq rioya qilganlar, tavoze, hayo, andishani hamisha saqlab kelganlar. Oilaviy muloqot jarayonlarida erkaklar nutqi ayollar nutqidan jiddiy farq qilgan.

Kalit so‘zlar: muloqot, adresant, adresat, ironik munosabat, tagmatn, murojaat, lingvomadaniy, kommunikant, mentalitet.

Аннотация. Согласно обычаям и национальным ценностям узбеков, в семейных диалогах мы сталкиваемся с разнообразием отношений и региональными особенностями. Наши предки строго соблюдали правила этикета, всегда сохраняли скромность, скромность и отношение. Мужская речь в процессах семейного общения существенно отличалась от женской речи.

Ключевые слова: коммуникация, адресат, адресант, ироническое отношение, тагматн, обращение, лингвокультурный, коммуникатор, менталитет.

Annotation. According to the customs and national values of the Uzbeks, in family dialogues we encounter a variety of relationships and regional characteristics. Our ancestors strictly observed the rules of etiquette, always maintained modesty, modesty and attitude. Male speech in the processes of family communication differed significantly from female speech.

Key words: communication, addressee, addresser, ironic attitude, tagmatn, address, linguocultural, communicator, mentality.

Kirish (Introduction). Bugungi O‘zbekiston yangi taraqqiyot, yangi bosqich, yangi davr siyosatini boshdan kechirmoqda. Bu davrda xalqimizning ziyoli qatlami zimmasiga juda katta mas’uliyatli vazifa qo‘yilmoqda. “Biz o‘z oldimizga O‘zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma’rifat va innovatsiya orqali erisha olamiz... Ayni paytda islohotchi bo‘lib maydonga chiqadigan, uzoqni o‘ylab fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur. Ana shu g‘oya asosida yurtimizda “Yangi O‘zbekiston – Uchinchi Renessans sari” degan shior ilgari surilayotganligi bejiz emas”, [1] deb ta’kidlaydi Yurtboshimiz va olti (o‘zbek, arab, fors, hind, turk, rus) tilda lug‘at tuzgan alloma Is’hoqxon Ibratning quyidagi so‘zlarini eslab o‘tadi: “Bizning yoshlar, albatta, boshqa tilni bilish uchun sa’y-harakat qilsinlar, lekin avval o‘z ona tilini ko‘zlariga to‘tiyo qilib, ehtirom ko‘rsatsinlar. Zero, o‘z ona

tiliga sadoqat - bu vataniy ishdir”. Darhaqiqat, til inson hayotida muhim o‘rin tutishi, aloqa vositasi sifatida kommunikatsiyani ta'minlashi, jamiyat a’zolarining bir-birlari bilan muloqot o‘rnatishlari, ruhiyatni ifodalashga yordamlashishi ma’lum. Tilshunoslikda nisbatan yangi soha bo‘lgan lingvokulturologiya ma’lumotiga ko‘ra har qanday tilga oid bilimlarning asosida inson turadi. Demak, XX asrga kelib, tilshunoslikda yangi nazariya paydo bo‘ldi. Konseptual olam va lisoniy olam, til va tafakkur prizmalari orqali borliqdagi narsa, voqea va hodisalarni idrok qilish va lisoniy ifodalash imkoniyatlari bilan aloqador masalalarni o‘rganuvchi yangi yo‘nalishlarning fundamental asosi kognitiv tilshunoslikni tashkil qiladi. [2] Til va madaniyatning o‘zaro munosabatini tadqiq etuvchi tilshunoslik tarmog‘i lingvokylturologiyani lingvistikaning asosiy qismi sifatida o‘rganish zarurati allaqachon paydo bo‘lgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Oila - muqaddas dargoh. Bobo, buvi, ota-ona, er-xotin, aka-uka, opa-singil, tog‘a, amma- xola va hokazo qarindoshlar o‘rtasidagi munosabatlarning xilma-xilligini ko‘rib chiqib, ularning hududlar bo‘yicha xoslanishiga duch keldik. O‘zbeklar odatiga ko‘ra ayollar erkak qarindoshlari bilan uzoq muddat ko‘rishmagan bo‘lsalar, yoshi katta ayollar o‘zlaridan yosh erkaklarning peshonasini silab yoki peshonasini o‘pib ko‘rishganlar. O‘zlaridan yoshi ulug‘ erkaklar bilan esa erkakning yelkasini ikki qo‘li bilan silab ko‘rishganlar. Erkaklar o‘z navbatida ayollarga yelka tutganlar. Har kuni ko‘rishganda esa shunchaki salomlashish bilan kifoyalanganlar. Erkaklar esa yosh qizchalarning peshonasini silab qo‘yganlar. Balog‘atga yetgan va katta yoshdagi ayollar bilan og‘zaki so‘rashilgan. Hech qachon o‘pishib, quchoqlashib ko‘rishilmagan. Bu narsa millatimizning xulq-atvoriga yot bo‘lgan. Qaynotalar esa kelin bilan so‘rashganda yelkasiga qoqib qo‘yganlar. A.Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romanidagi qaynota va kelinning ilk bor ko‘rishish sahnasi shunday tasvirlanadi. “umush uyalib zo‘rg‘agina salom berdi va Yusufbek hojining yaqiniga kelib bo‘yin egdi. Hoji qo‘li bilan Kumushning yelkasiga qoqib suydi va Kumushning manglayig‘a tegizib olg‘an o‘z qo‘lini o‘pdi...” [3l]

Ko‘rinadiki, ota-bobolarimiz odob-axloq qoidalariga qattiq rioya qilganlar va odob, hayo, andishani hamisha saqlab qolganlar. Ayollar esa o‘zaro ko‘rishganlarida bir-birlarining yelkalariga ikkala qo‘llarini tegizib, “omonmisiz-esonmisiz”, “yaxshi yuribsizmi” degan so‘zlar bilan manzirat qilganlar. Yoki “esonmisiz” so‘zining buzilgan shakli “essomis”ni qo‘llaganlar.

Shunisi qiziqki, Farg‘ona viloyatida er va xotin bir-birlarini to‘ng‘ich farzandining ismi bilan ataganlar, to‘ng‘ich farzandining ismi “Lola” bo‘lsa (qiz bo‘lsa ham o‘g‘il bo‘lsa ham) bir-birlariga “Lola” deb murojaat etganlar. Xotin to‘g‘ridan-to‘g‘ri eriga muomala qilmagan. O‘zaro muloqotda “yesin”, “olsin” (III shaxs, birlik) kabi so‘zlardan foydalangan.

Oilaviy muloqot jarayonida erkaklar nutqi ayollar nutqidan farq qiladi. Oilaviy muloqotlarda zohir bo‘ladigan munosabatlarni quyidagi tartib bo‘yicha o‘rganib chiqish mumkin:

1. Er va xotin o‘rtasida zohir bo‘ladigan munosabatlar.
2. Qaynona-kelin o‘rtasidagk muloqotlarda ro‘y beradigan munosabatlar.
3. Qarindoshlar o‘rtasidagi muloqotlarda aks etadigan munosabatlar.

Kishining shaxsiy xususiyatlari uning xatti- harakati va fe’l - atvorida namoyon bo‘ladi. Nimaiki ish qilishmasin, barchasiga insonning shaxsiy xususiyatlari ta'sir qiladi. Inson fe'l- atvoriga xos xususiyatlar turli-tuman vaziyatlar taqozosi tufayli paydo bo‘ladi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methology). Oilada er va xotin bir-birining shaxsiy xususiyatlaridan xabardor bo‘lsa, o‘zaro muloqot jarayonida qiyinchilik tug‘ilmaydi. Misollarga murojaat qilamiz. Yuksak martabali Yusufbek hoji hovliqma, biroz dumbultabiatli ayoli O‘zbek oyim bilan uning tezob fe’l-atvoriga qarab muomalada bo‘ladi. Yozuvchi O‘zbek oyimga shunday ta’rif beradi: “O‘zbek oyim elli besh yoshlar chamaliq, chala dumbul tabiatlik bir xotin bo‘lsa ham eriga o‘tkirligi bilan mashhur edi [4].

Shunisi qiziqki, O‘zbek oyimning o‘tkirligi faqat eriga nisbatan emas, balki o‘zi yashab turgan joyga ham taalluqligini yozuvchi ta’kidlab o‘tadi. Oila boshi erkaklar uning aytganlarini to‘y-ma'rakalarda hamisha inobatga olishga majbur bo‘lganlar. O‘zbek oyim turmush o‘rtog‘iga “er” deb murojaat qiladi: “... Bir so‘zlig‘ingizni qo‘ying, er; o‘zi aslzoda, loaqal bir og‘iz o‘g‘lingizga aytib o‘tishka va’da bering-chi, - dedi”. Kelin olish, orzu-havas ko‘rish ilinjida bo‘lgan O‘zbek oyim Kumush va Otabekning fojeasiga sababchi bo‘lib qoladi. Yuqorida aytilganidek, O‘zbek oyim Yusufbek hojiga “er” deb murojaat qiladi. O‘zbek oyim va Yusufbek hoji muloqotlaridan birining o‘ylamay mulohaza yuritishi, ikkinchisining esa serfikrligi ayon bo‘ladi.

Ikkinchi juftlik Razzoq so‘fi va Qurvonbibilarning [5] o‘zaro muloqot jarayonida adresantning qo‘polligi yaqqol ko‘rinadi. Razzoq so‘fi oilasini odam o‘rnida ko‘rmaydi, hatto tirikchilik tashvishi ham xotini va qizining zimmasida. Uning Qurvonbibini "Fitna" deb chaqirishi ham qiziq. So‘fi xotinini fitna-fasod keltiruvchi ayol deb qaraydi. Qurvonbibi eriga biron narsa deyish, uning fikrini bilish uchun gapni uzoqdan boshlaydi, shunda ham tayinli gap ololmay qiynaladi. Chunki Razzoq so‘fi va mingboshi kabilar o‘z ahli ayollarini, umuman, ayol zotini odam o‘rnida ko‘rmaydilar.

Uchinchi juftlik rais Qalandarov va Huriniso muloqotlarida esa er – Qalandarovning bepisand qarashlari namoyon bo‘ladi. Rais xotin kishining rahbarlik ishlariga aralashib yurishini, umuman, istamaydi. O‘ziga aql o‘rgatmoqchi bo‘lgan xotiniga:

“Tishi chiqqan bolaga chaynab bergan osh bo‘lmas deganlar. Har nima qilsangiz qiling, meni itingizning yoniga bolang, lekin rahbarlik qilmang! Toqatim yo‘q! Xotin kishi rahbarlik qilsa, kalavamning uchini yo‘qotib qo‘yaman! – dedi” [6]. Bu iqror ham xotiniga, ham o‘ziga tegishli ekanini Saida payqaydi. Qalandarov xotiniga “xo‘jayin” deb murojaat qilsa-da, oiladagi biror-bir masala yuzasidan Hurinisaning fikrini bilishga qiziqmaydi. Hatto oilada ham hamisha o‘z fikrini o‘tkazib kelishga urinadi.

Demak, er-xotinlarning bunday yuzma-yuz muloqotda yuzaga keladigan murojaat shakllari, garchi tilda ilgaridan mavjud bo‘lgan so‘z va iboralar bo‘lsa ham ular har bir nutq jarayonida individuallik kasb etadi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Azaldan qaynona- kelin, qaynota-kelin munosabatlari va ular o‘rtasidagi hurmat-ehtirom masalasi axloqiy madaniyat va ma'naviyatimizning asosini tashkil etib kelgan. Ko‘pgina o‘zbek oilalarida qaynota va

qaynona tomonidan kelinga sensirab murojaat qilinadi. Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romanida qaynona O‘zbek oyim kelini Kumushga sensirab murojaat qiladi. Bu holat Kumushdan tortib barchaga ma'qul tushadi, chunki O‘zbek oyim, odatda, yaqin ko‘rgan kishisini sensiraydi. Uning Kumushni sensirashi esa keliniga bo‘lgan mehr-muhabbatidan darak edi. Ba’zi Kavkaz xalqlarida kelin to farzandli bo‘lmaguncha qaynona-qaynotaga gapirmas ekanlar. Ehtimol, bu holat yoshlarning turmushi uchun yaxshi, xayrli bo‘lishi mumkin. Chunki og‘ziga kelganni qaytarish, sukut saqlash oilada munosabatlarning yaxshilanishiga olib keladi.

Ba’zan esa kulgiga o‘ralgan so‘zamollikda butunlay boshqacha munosabatlar yashiringan bo‘ladi. O.Hakimovning “Asal oyi” [7] balladasida shunday voqea ro‘y beradi: Norxon aya to‘y-tomosha bilan kelin tushiradi. Ammo kelin-kuyovning asal oyi tugamay turib, paxta yig‘im-terimi boshlanib qoladi. Demak, yaqin o‘tmishda, Istiqlolgacha bo‘lgan davrda paxta adabiyot tarixida mavsumiy tarzda kuylangan payt. Brigadir kuyov rejani bajarish uchun daladan beri kelmay qo‘yadi. Kelin ham jimir-jimir libosini tashlab, paxta terimiga otlanadi. Bir kech kuyunchak va mehribon qaynona yegulik olib borish bahonasida kelinini kuyovning oldiga - xirmonga jo‘natadi. Ulardan hadeganda darak bo‘lavermagach, qaynona “halpillab” xirmonga yuguradi.

Aya boqib u yon- bu yon
Ohista qirdi tomoq.
Shiypon ham jim, jimjit xirmon,
Suv quygandek hammayoq.
Qatorlatib yo‘taldiyam,
Eshitilsa deb zora.

Shu o‘rinda bolalari eshitsin deb yo‘talib tomoq qirayotgan (noverbal munosabat) bolaparvar, o‘ta mehribon, ammo juda jonsarak onaning timsoli butun bo‘y - basti bilan, o‘zbekona urf- u shevasi bilan ko‘z oldimizda namoyon bo‘ladi. Ko‘nglida zukko va mehribon onasiga hurmat-izzatini saqlagan chin ma'nodagi paxtakor o‘g‘il aybini yuvishga chog‘lanadi:

Xirmon qo‘rib,
Chog‘i, andak tolibmiz.
Tong otguncha yurib-yurib,
Keyin uxlab qolibmiz...

Xalqimizda “qon tortibdi”, “qonida bor” degan mashhur iboralar bor. Aya shu o‘rinda qaynona o‘z o‘tmishini eslab qoladi:

... E, bunaqa odat o‘zi
Asli qonda bor, qonda!
Ha, o‘ziyam shu o‘g‘lini
Tug‘vorgandi xirmonda.
Qush bir qiliq qilmas sira,
Inidagin ko‘rmasa.
Go‘rga edi, o‘zin nusxi
Keliniga urmasa!

Kelin-kuyovning "tanobini tortib qo‘yishga kelgan onaning jahldan tushishi, ularga mehri tovlanishi shoir tomonidan yengil kulgi, hazilomuz misralar vositasida mohirona tasvirlab berilgan. Qissadan hissa ham o‘ziga xos:

She’r bitdi. Ha, aytmoqchi,
Aya har kun hay - haylab,
Og‘iroyoq kelinini
Yurar emish avaylab.

O‘quvchi ko‘z o‘ngida og‘iroyoq kelinini avaylab, parvona bo‘layotgan qaynona obrazi shundoqqina gavdalanadi. Lekin xulosa chiqarishga shoshilmaslik kerak. “Inson o‘z faoliyatining verbal va noverbal ko‘rinishlari asosida aloqa jarayonida bo‘ladi. Bunda uning nutqiga singib, qorishib ketuvchi va uning nutqiy axloqini, odobini, nutqiy o‘zligini namoyish etuvchi ichki holati ham sezilib turadi. Inson verbal vositalar yordamida o‘z fikrini ifoda etar yoki o‘zgalar fikrini qabul qilar ekan, ana shu nutqiy jarayonda nutq subyekti va tinglovchining ichki his-tuyg‘ulari ham namoyon bo‘ladi. Bu his-tuyg‘ulari uning nutqida oshkora, ba'zida yashirin holida amalga oshiriladi. Bu esa uning biror voqea, hodisa, fikrga nisbatan xususiy munosabatini belgilaydi.

Bunday xususiy munosabatlardan biri ironik mazmun - munosabat ifodalashdir.

Voqea-hodisa, yoki u haqidagi fikrga bo‘lgan salbiy - xususiy munosabat ba’zan ochiq aytilmay, yashirin tarzda ifoda etiladi. Nutq jarayonida suhbatdosh harakati yoki holati fikriga nisbatan bildiriladigan ichki yashirin munosabat ifodalash usuli uslubshunoslikda “ironiya” deb ataladi. Demak, ironik munosabat biron fikr yoki maqsadning til birliklari vositasida to‘g‘ri va ochiq aytilmasdan, teskari, ko‘chma ma'noda qandaydir bir ishora yordamida tushuniladigan mazmuni bo‘lib, u tilshunoslik fanida “tagmatn” atamasi bilan yuritiladi", [8] deb ta'kidlaydi tilshunos E.Ibragimova.

Xulosa va takliflar (Sonclusion/Recommendations). Darhaqiqat, yuqorida aytilganidek, “Asal oyi” balladasi muallifi voqeani “oltin qo‘llar” og‘izda ulug‘lanib, inson omili butkul nazardan chetda qolgan sobiq sho‘rolar davrida qalamga olganini yana bir esga olaylik. Umrning unutilmas damlari bo‘lgan asal oyi ham paxta dalalarida, xirmonlarda o‘tgani qalbning tub-tubida achinish va zaharxanda uyg‘otadi.

Nim tabassumga yo‘g‘rilgan, yumor bo‘lib ko‘ringan shoirning o‘sha davrlardagi dardi tagmatndan oydinlashib boradi. Buning ustiga ballada janrida ko‘proq qayg‘uli va hasratli voqea-hodisalar qalamga olinishini hisobga olsak, shoirning g‘oyaviy maqsadi, asarni nima uchun ballada deb atagani ma’lum bo‘ladi. O‘zbek xalqi udumi bo‘yicha qaynonalar kelinlarini hamisha asrab-avaylashga, “bolamning ketidan kelgan bolam” deb qarashga harakat qilganlar. “O‘tgan kunlar” romanida qaynona O‘zbek oyim xon saroyiga o‘rda xlnimlari tomonidan mehmonga chaqiriladi, shunda Kumushning ham borgisi keladi. Ammo O‘zbek oyim rozi bo‘lmaydi:

- Men-chi?
- Sen ham bormaysan.

Kumushning ma’yuslanib qilgan sukutidan keyin, O‘zbek oyim mundoq izoh berib chiqdi:

– San Toshkandagi Yusufbek hojining kelini bo‘lasan, bolam! Chorlamag‘an joyga borish uchun sening kafsning ko‘chada qolg‘an emas, - dedi.

Koʻrinadiki, qaynonalar kelinlarini uyatga qolmasliklari, oʻz hurmatlarini hamisha saqlashliklarini uqtirib kelganlar. 3-turkum qarindoshlar oʻrtasidagi munosabatlar haqida gap ketar ekan, eng avvalo, mehribon ota - onalar, aka-ukalar, opa-singillar, amma-xolalar, qadrdon amaki, togʻalarning muomalalari koʻz oldimizga keladi.

Surxondaryo va Qashqadaryo tomonlarda kelinlar oʻzlari kelin boʻlib tushgan xonadondagi qaynogʻa va qaynsingillarning ismlarini aytib chaqirmaydilar. Ismlari oʻrnida “sher bola”, “toy bola”, “qizcha”, “oʻgʻilcha” kabi soʻzlarni qoʻllaydilar. Oʻzbek mentalitetiga xos boʻlgan xususiyatlardan yana biri kattalarga sizlab, kichiklarga senlab murojaat qilishdir.

Oʻzbekistonning ayrim hududlarida esa adresatlarning buyumlari ham hurmatlab tilga olinadi. Masalan, “ustozning kitoblari”, “dadajonning hassalari” kabi. Bu hurmat - lar affiksi orqali ifodalanadi. Keksa yoshdagi kishilar (bobo, buvi, togʻa, amaki) nutqida "toychogʻim", "chirogʻim", "qoʻzichogʻim" kabi murojaatlar qoʻllansa, kichik yoshdagilar nutqida "ena","momo", "kattabuvi", "kelinoyi", "kelinopa", kattaota", "kattadada" kabi murojaat shakllari koʻp ishlatiladi.

Diniy ilmi bor insonlarga nisbatan “taqsir” deb murojaat qilish urf boʻlsa, boshqalarga nisbatan bunday soʻzni ishlatish ularning jahli chiqishiga sabab boʻlishi mumkin. Masalan, Fargʻona viloyatining Beshariq tumaniga qarashli hududlarda oddiy kishilarga nisbatan “taqsir” soʻzi ishlatilmaydi. Bunday deb murojaat qilish ularning ustidan kulish, hurmatsizlik hisoblanadi. “Mehrobdan chayon” romani qahramonlaridan biri Ra’noning oʻz otasiga atab yozgan hajviy xarakterdagi she’rida “taqsirim” deb Solih Maxdumga murojaat qiladi. Bu oʻrinda “taqsirim” soʻzi hajviy-tanqidiy munosabatni ifodalaydi:

Yogʻlar toʻkilsa yerga,
Yotib yalar taqsirim.
Boʻlsa bozorda pastlik
Sotib olar taqsirim. [9]

Demak, qarindosh - urugʻlar oʻrtasidagi munosabat ularning bir-birlariga murojaat etishlarida ham koʻrinadi. Bu holat turli hududlarda har xil boʻlib, bundan xabardor boʻlmaslik kommunikantlar oʻrtasida tushunmovchilik va anglashilmovchiliklarni keltirib chiqaradi.[10]

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati (References)

1. Mirziyoyey Sh. M. Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish - xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. Oʻzbekiston respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oʻzbekiston ijodkor ziyolilari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasi.

2. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yoʻllarini izlab...// Oʻzbek tili va adabiyoti. Toshkent, 2012, 5 - son. -. 4-5.

3.Qodiriy A. Oʻtgan kunlar. Toshkent: Yangi nashr, 2019. - B. 251.

4. Yuqorida koʻrsatilgan asar. - B. 122.

5. Choʻlpon. Kecha va kunduz. t.me/ ziyolitilchilarga.

6. Qahhor A. Sinchalak. - Toshkent: Oʻqituvchi, 1982. - B. 31.

7. Hakimov O. www.kitibxon.com sayti.

8. Ibragimova E. Ironiya - lingvopragmatika obyekti.// FDU xabarlar, ilmiy jurnal, 2001, ilova to‘plam. - B. 49.

9. Qodiriy A. Mehrobdan chayon. - Toshkent: Ilm-ziyo-zakovat. 2019. - B. 28.

10. Mo‘minov S. O‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari. - Farg‘ona: Classic, 2021. - B 222.

O‘ZBEK VA QOZOQ TILIDAGI “TUYA” ZOONIM KOMPONENTLI FRAZEMALAR TAHLILI

Urkinbayeva Maqpal Amankeldiyeva,
Navoyi davlat universiteti,
Qozoq tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada o‘zbek va qozoq tillaridagi tuya komponenti asosida shakllangan zoofrazeologik birliklar tahlil qilinib, lingvistik va madaniy ifodalanishidagi farqlar va o‘xshashliklari ko‘rsatiladi.

Аннотация: В статье анализируются зоофразеологические единицы, образованные на основе названия животного верблюд на узбекском и казахском языках, с указанием различий и сходств в языковом и культурном выражении.

Annotation: The article analyzes zoophraseological units formed on the basis of the animal name camel in the Uzbek and Kazakh languages, showing differences and similarities in linguistic and cultural expression.

Kalit so‘zlar: Zoofrazeologiya, lingvomadaniy talqin, o‘zbek tili,qozoq tili, lingvistik farqlar, lingvistik o‘xshashliklar, madaniy xususiyatlar.

Ключевые слова: Зоофразеология, лингвокультурная интерпретация, узбекский язык, казахский язык, лингвистические различия, лингвистические сходства, культурные особенности.

Key words: Zoophraseology, linguistic interpretation, Uzbek language, Kazakh language, linguistic differences, linguistic similarities, cultural characteristics.

Kirish. Iboralar kundalik nutqning ajralmas bir qismidir. Til tizimining juda muhim darajalaridan dunyoqarashini, xalqning turmush tarzini, hayvon obraziga munosabatini ochib beruvchi vosita bu zoofrazeologiya hisoblanadi. O‘zbek va qozoq tillarida zoofrazalogiya keng tarqalgan fenomen bo‘lib, unda hayvonlar obrazlari ko‘pincha insonlarning xulq-atvori, munosabatlari, his-tuyg‘ulari yoki ijtimoiy holatlari bilan bog‘lanadi. Hayvonlar orqali o‘tmishdagi qishloq hayoti, mehnat va tabiatga bo‘lgan munosabatlar tasvirlanadi. Turkiy tillarda (o‘zbek, qozoq, turk, qirg‘iz kabi) hayvonlar obrazlari, ayniqsa,tuya, sigir, ot, it, tulki, arslon, bo‘ri kabi hayvonlar ko‘p ishlatiladi. Zoonimlar etnografik va tarixiy ma’lumotlarni o‘rganishda milliy an’ana va uning tarixiy taraqqiyotini aniqlashga, millat tushunchasini oydinlashtirishga xizmat qiladi. Zoonimlar bir tomondan, madaniyat elementi sifatida va boshqa tomondan – tilning elementi sifatida o‘rganiladi. Eng muhimi, ular lingvistik va madaniy tadqiqotning asosiy obyekti hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Qozoq xalqida tuya moliga boquvchi kishini “Oysilqora” deb atagan. U o‘ziga xosligi bilan tilimizda shakllangan bo‘lib, ой+сыл+қора to‘liq ma’noli uchta so‘zning kiritilishidan hosil bo‘lgan. Mahmud

Koshg’ariyga murojaat qilsak, “oy” muqaddas degan ma’noni anglatadi, “sil” – ovqatni oz miqdorda iste’mol qiluvchi degan ma’noda ishlatiladi. Masalan, qozoq filologi A.Egeubay tarjima qilgan Mahmud Koshg’ariyning «Devoni lug‘otit turk» asarining 3-jidida keltirgan: Sil ingan – “yemni kam iste'mol qiladigan tuya” ma'nosini bildiribtur [1,191]. Tadqiqodchi Sh.Ualixonov qadimgi turkiy tillardagi “qora” so‘zini o‘rganib, “muqaddas” degan ma’noni bildirishini aytgan. Qadimgi turkiy tilindagi oysilqara degan so‘z hozirgi kundagi tilimizdagi ma’nosi “muqaddas,ovqatni kam iste’mol qiladigan jonivor” – degan ma’noni anglatadi. Turkiy frazeologiyaning boshlovchilari, shubhasiz qozoq olimi I.Kenesboyev va o‘zbek tilshunosi Sh.U.Raxmatullayevdir. O‘zbek tilshunosligida frazeologiya bo‘limining ilmiy asosda chuqur o‘rganilishi va takomillashuvida Sh.Rahmatullayevning xizmatlari beqiyos. Uning “Nutqimiz ko‘rki”, “O‘zbek tilida fe‘l frazemalarning bog’lashuvi”, “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug’ati” va shunga o‘xshash juda ko‘plab asarlar yozdi. Bu asarlar nafaqat o‘zbek balkey turkiy tillar tilshunosligi uchun juda qimmatli manbaalar hisoblanadi. O‘zbek frazeologiyasining yangi muvaffaqiyatlarga erishuvida M.Husainov, Y.D.Pinxasov, B.Yo‘ldoshev, Abdumurod Mamatov, Abdug’ofur Mamatovlarning xizmatlari katta bo‘ldi. B.Yo‘ldoshev iboralarning konnotativ ma‘nolari, badiiy tasvir vositasi sifatidagi imkoniyatlarini yoritib berdi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola mazmunini yoritishda nazariy, ilmiy pedagogik adabiyotlarni qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Asosiy hayoti bevosita chorvachilik bilan bog’liq bo‘lgan qozoq xalqi uchun “Tuya” alohida o‘rin tutadi. Tuya – bir yoki ikki o’rkachli, juft tuyoqli, asosan, yuk tashish uchun xizmat qiladigan, suvsizlikka chidamli, sahroga juda bardoshli sutemizuvchi ish hayvoni. Biz tuyaning go‘shtini is’emol qilamiz, sutini esa ichamiz. Uning go‘shti oqsil va uglevodga boy, juda mazali, suti esa shirin – ko'p kasalliklarga davodir. Qozoq xalqida tuya, ot, qo‘y, sigir “To‘rt tulik” mol deyiladi. Turkiy xalqlari molning ichida tuya hayvoniga boylik ramzi sifatida,transport vositasi va oziq-ovqat sifatida qadrlangan.

Qozoq xalqining tilshunos tadqiqodchisi I.Kengesbayev o‘zining “Qozoq tilining frazeologik lug’ati” nomli kitobida on mingdan ortiq frazemalarga ta’rif berib o’tgan. Shu frazalarning ichida tuya nomi qatinashgan bir qancha zoonimlik iboralar ham mavjud. Bu iboralar o‘zbek tilida uchramaydi. Masalan: “Түйенің табаны түсер жер” juda olis joy ma’nosini bildiradi. Masalan: “Ата, көп жүріп түйенің түяғы түсетін жер екен, осы жолға өзіңіз бару жөн екен,”— депті (Ilyos Esenberlin). “Қуырдақтың көкесін түйе сойғанда көресің” – mo‘l-ko‘lchilik, “Бір күн бие, бір күн түйе” – yoqimsiz xulq-atvfor ,“Сөзі түйеден түскендей” – qo'pol, o‘rinsiz so'z ma’nosini bildiradi. Masalan: Ержан Байсарының жұмыр тұлғасына, әдеміше, кішкене дөңгелек жүзіне карап аз тұрды. Содан кейін түйеден түскендей: – Әйелің бар ма? – деп сұрады. (T. Axtanov). Түйе жолы жіңішке, yoqalgan narsa, mol tez topilmadi degan ma’noda ishlatilgan. Qozoq madaniyatida bir an’ana түйе мұрындық бер iborasi orqali ifodalanadi. Kelin bo‘lib uzatilib kelayotgan qizdan buyum so‘raganda aytiladigan ibora. Qizi bilan karvon qo‘shni qishloq yonidan o‘tib ketsa, qo‘shni qishloqning ayollari arqon bilan yo‘lni to‘sib, oldingi tuyaning dumbasidan, tumshug‘idan ushlab, tuya burndiq berishini so‘rashadi. Yo‘lboshlovchi

kampir uning yo‘lini kesib o‘tadi va unga ko‘ylak beradi. Sovg'a olganlar duosini berib, minnatdorchilik bilan ketishadi. [2;525].

Sharq xalqi tuyaning vazmin xarakterini tinchlikning musaffo hayotning belgisi deb qaraganlar. Aksincha, tuyaning xulq-atvorining yengilligini yovuzlik sanab, түйе ойнаса жұт болар – degan ibora bilan tasvirlagan. Baquvvatlikni -нар жолында жүк қалмас, go‘zallikni бота көзді боз жігіт, бота көзді ару deb tasvirlagan. Sharq xalqlari madaniy turmushida tuyaning o‘rni behiyos, shu sababli o’zbek va qozoq xalqlari hayotida ham tuya nomi qatnashgan bir qancha iboralarni ko‘rib o‘tamiz:

O’zbek tilida “tuyaning ustida ham it qopadi” iborasi kimningdir ishi biror to‘siqqa uchrab, doim yurishmaydigan insonga qarata aytilgan ibora. Masalan: Ammo mudom uni tuyaning ustida it qopar edi: ukasidan yashirincha do‘ppi tikkani ipak oldirgan edi, nima falokat bo‘lib, uning ustiga binafsha siyoh to‘kib yubordi. (A.Qahhor. Sarob).

Qozoq tilida: “Түйе үстінен ит қапқан” Ma'nosi: Ishi biror tusiqqa uchrab, doim yurishmaydigan insonga qaratib aytiladigan ibora. Masalan:Күн жаумай су болып, түйенің үстінен ит қапқан келеңсіз жігіт мұңын айтады. Тахауи Ахтанов Боран. [3;93]. Qozoq tilida tuyaning ustida ham it qopadi iborasining sinonimi:Түйе үстінен сирақ үйітіп. Bu iboraning o’zbek tilida maqoli ham bor Kambag‘alni tuyaning ustida it qopar. Kambag‘al, nochor shaxsning ishi yurishmasligi, har qanday sharoitda ham unga nimadir pand berishini bildiradigan maqol. Qozoq tilida: “Түйе көрдіңба – жоқ”, o‘zbek tilida: “Tuya ko‘rdingmi – yo‘q”. Ikki tildagi ma’nosi: O‘zini ko‘rmaganga,bilmaganga chiqarmoq.

Masalan: Tuya bo‘lsa ham, dumini ko‘rsat-may yutib yuborib, tuya ko‘rdingmi – yo‘q, deb bezrayib turaveradiganlar chiqib qoldi. (G‘.G‘ulom, Shum bola). Xuddi shunday iboralardan "Oq tuya ko‘rdingmi? Ko‘k tuya ko‘rdingmi?" iborasining faol qo‘llanuvchisi sifatida "Tuya ko‘rdingmi yo‘q" iborasini ko‘rish mumkin.

Qozoq tilida: Түйеге жантақ керек болса, мойнын созады.

O’zbek tilida: “Tuyaga yantoq kerak bo‘lsa bo‘ynini cho‘zadi”.

Tabiatdan ma’lum, tuya fiziologik jihatdan bo`yin tuzilishi og`ma shaklda va uning sevimli taomi yantoq hisoblanadi. Yantoq boshidan tepada joylashgan bo‘lsa og‘ma shakldagi bo‘ynini tekis qilib cho‘zishga majbur bo‘ladi. Har ikkala tilda ham,bu ibora bilan odamga biror narsa kerak bo‘lsa o‘sha narsani amalga oshirish uchun intilish kerak degan ma‘noda ishlatilgan. Tuyani yutib, dumini ko‘rsatmaydi har qanday katta (ko‘p) narsani ham o‘zlashtirib, undan nishon, iz qoldirmaslikni bildiruvchi ibora. Masalan: Tuyani yut, lekin dumi og‘zingdan ko‘rinib turmasin. Oybekning, “Oltin vodiydan shabadalar ” asaridan.

Qozoq tilida: Түйені түгімен жұтты, Түйені түгімен,биені бүгімен жұтты Ma’nosi: poraxo'r. Ko‘p narsani o‘zlashtirgan, porani ko‘p olgan ma’nosini bildiradi. I.Kengesbayevning “Qozoq tilining frazeologik lug’ati”dan [2;526].

O’zbek tilida: Ignadek gapni tuyadek qildi .

Qozoq tilida: Түймедейді түйедей қылды:

Ma’nosi: “mubolag‘a qilib, bo‘rttirib yubordi” degan ma’noni anglatadi.

Qozoq tilida bor-u, o‘zbek tilida uchramaydigan iboralarga misollar keltirib o‘tamiz. Qozoq tilidagi “Ақ түйенің қарны жарылды” iborasining shakllanishiga xalqning chorvachiligi sabab bo‘lgan. “Eng yaqin qarindoshi qonli yurishdan tirik

qaytsa yoki intiqlik bilan kutgan xotini tuqqan bo‘lsa, favqulodda vaziyat yuzaga kelganda, dalada yurgan oq tuyaning qorni yorib, so‘yilgan. Butun dala bo‘ylab tuyaning yig‘layotgan ovozini eshitgan xalq xushxabar borligini bilib, bir joyga yig‘iladi. Ikkinchidan, boshqa hayvonlarga nisbatan tuyalar bolasini uzoq vaqt davomida ko‘tarib yuradi va yillar o‘tib kutgan xabarni eshitganda aytiladigan ibora bo‘lib qo‘llanilib, keyin katta quvonichni belgilaytin leksik birlik bo‘lib “Ақ түйенің қарны жарылды” iborasida saqlanib qolgan. Ibora haqida birinchi bo‘lib Sh.Ualixonov izoh bergan [4,178]. Masalan, Сол күннен бастап Итбай ауылында ақ түйенің қарны жарылды (С.Мұқанов). Нар кескен degan qilichning nomlanish sababi bor. Nar-bir o‘rkachli, juda chidamli tuya. Nar tuyaning boshini kesish uchun oddiy pichoq yoki qilich o‘tmaydi. Nor tuyaning boshini kesishga yassi va o‘tkir hanjar kerak degan fikrdan kelib chiqib, bu nom paydo bo‘lgan. Нар кескен iborasi juda o‘tkir degan ma‘noni anglatadi. Нарлық көрсетті iborasining ma'nosi sabr va chidamlilik, nar tuyadek kuch va quvvat ko‘rsatish ma’nosini bildiradi.

“Ботадай боздады” iborasining ma’nosi “yig‘lash” so‘zidan o‘zgacharoq. Bo‘taloqning ingrab yig‘lashi odamning suyaklarini titratadigan ovozdir. Bu tovushni boshqa mollarning ohangdor, gurillagan ovozi bilan solishtirib bo‘lmaydi. Inson kayfiyatining eng qiyin paytini bildiradigan bo'taday bo'zdau so'zining nominativ ma'nosi bo'taloqning yig’lashiga o‘xshatib analogik asosda shakillangan. Bo‘taloqning ko‘zlari odamnikiga juda o‘xshaydi va uning qalbining nozikligi chaqaloqning himoyasiz holatiga juda o‘xshaydi.[5;383].

O‘zbek tilida mavjud, qozoq tilida uchramaydigan iboralar:

Ot bilan tuya bo‘larmidi? U qadar katta, ko‘p emaslikni bildiruvchi ibora (summa, narsa haqida). Masalan: Jonfig‘on mukofotni o‘z gazi bilan o‘lchagani uchun bunga ham uncha parvo qilmabdi – olgan mukofotiga "ot bilan tuya bo‘larmidi", debdi. (A.Qahhor, Qanotsiz chittak). O‘zbek tilida bir ishning imi-jimida bajarilishi "Na tuya yursin, na qo‘ng‘iroq jiringlasin" iborasi orqali ifoda etiladi. Bu iboraning yuzaga kelishida karvonda yuradigan tuya va uning bo‘yniga osib qo‘yiladigan qo‘ng‘iroq asos qilib olingan. Tuya yurib kelayotganda qo‘ng‘iroq jiringlaydi, to‘xtaganda esa jiringlamaydi. Ma’no ko‘chishi natijasida ushbu ibora "Ishni imi-jimida, yeng ichida amalga oshirishni bildiradi. Yoki Tuya taqachiga qaraganday qaramoq iborasi to‘g‘ri ko‘chma ma’noda qo‘llangan [6;34]. Ba’zi iboralar so‘roq ohangida qo‘llanishlari bilan yanada ta’sirchanroq ifoda etilib, xalqning tarixini, milliy holatini o‘zida aks ettirishi bilan bir qatorda tilning sintaktik o‘ziga xosligini namoyon etadi. Tuyani tuzlamasdan yutmoq har qanday ishni uddalamoq, uddaburonlik bilan ish qilmoq. Masalan: “Mening bir amakim bor. Yoshi yetmish oltida shekilli’’- dedi Bektemir jonlanib, e’tiroz bilan... " Ha, u chol tu-ya ni tuzlamasdan yutadiganlardan ...’’, – dedi Asqar polvon. (Oybek, Quyosh qoraymas). “Tuya cho‘ksa, joy topar” iborasi ham qozoq tilida umuman uchramaydi. Bu iboraning ma’nosi o‘tiruvchilar tig‘iz, zich bo‘lgan holatlarda yana boshqa kishi o‘tirishni xohlasa, joy topilishini, sig‘ishini qayd etuvchi ibora. [7;514]. O’zbek tilida: “Tuya hammomni havas qilganday” degan ibora o‘ziga xos va mos bo‘lmaydigan, yarashmaydigan urinish, intilish, orzu qilish holatiga nisbatan qo‘llanadigan ibora hisoblanadi. Misol uchun, Tuya hammomni havas qilganday, senga kim qo‘yibdi bunday ishlarni?Raisliging o‘zingga buyursin. Men tuya emasmanki,

hammomni orzu qilsam. (T.Malik, Ajab dunyo). Tuyaning kallasiday iborasi hajmi odatdagidan ancha katta; yirik degan ma’noni anglatadi. Masalan, Qovunga qarang. Har biri tuyaning kallasiday. (Oybek, Qutlug‘ qon).

Xulosa va takliflar. Har bir millatning tili asrlar davomida shakllangan o‘ziga xos milliy an’analari hamda urf-odatlarini aks ettirib turuvchi zoonimli iboralarga ega. Biz bu tillarni qiyoslab o‘rganar ekanmiz, insonning xarakteri va holatini ifodalash har bir tilda mentalitetidan kelib chiqqan holda berilishini, ularning milliylik doirasidagi so‘zlarini o‘z o‘rnida qo‘llash, ma’no kengayish usullarini hamda o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlarini o‘rganib boramiz. Ko‘rib chiqilgan zooleksemalar har bir tilning matnlarida faol ishlatiladi va turli xil insoniy xususiyatlarning timsoli sifatida xizmat qiladi. O‘zbek va qozoq tilshunosligida zoonimik frazeologik birliklar semantik-struktural, etnolingvistik va kognitiv nuqtai nazardan ko‘rib chiqilgan, bugungi kunda zoofrazeologizmlarni qarindosh tillar o‘rtasida lingvistik va madaniy davomiylik nuqtai nazaridan solishtirish va o‘rganish muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.М.Қашқари. Түрік тілінің сөздігі. 3-томдық шығармалар жинағы / Қазақ тіліне аударған, алғы сөзі мен, ғылыми түсініктерін жазған/ А.Егеубай. – Алматы:ХАНТ 1997. – 595 б.

2.І.Кеңесбаев. Қазақ тілінің фразеологиялық сөздігі. -Алматы 1977. -712б.

3.Тахауи Ахтанов. Боран. -Алматы 2023. -344 бет.

4. Уәлиханов Ш. Таңдамалы. – Алматы, 1985. – 557 б.

5. Салқынбай А.Б. Қазақ тілі: Сөздік құрам. Сөзжасам: оқу құралы / А.Б. Салқынбай. Стер. бас. – Алматы: Қазақ университеті, 2020. – 390 б. ISBN 978-601-04-1704-5.

6.Z.Shirnazarova. Zoofrazeologizmlarning, semantik xususiyatlari va lingvomadaniy tadqiqiga doir// dissertatsiya ishi.-Termiz, 2023.B-80

7.Sh.Rahmatullayev, N.Mahmudov, Z.Xolmanova, I.O‘razova, K.Rixsiyeva, O‘zbek tili frazeologiyasi lug’ati T:.G’afur Gulom nomidagi nashriyot matba ijodiy uyi. 2022. - 636 b.

NUTQIY MULOQOTDA MUROJAAT BIRLIKLARINING IJTIMOIY-MADANIY FARQLANISHI

Sayidqulova Nozigul,
Navoiy davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada murojaat birliklarining til va madaniyat birligi sifatidagi umumlisoniy maqomi, ramiy/norasmiy muloqotda qo'llanish shakllari, qo'llanish shartlarining muayyan mezonlarga asoslanishi, ijtimoiy-madaniy farqlanishi o'zbek va ingliz va muloqoti misolida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: til, madaniyat, murojaat shakllari, muloqot, kommunikatsiya, nutq, nutqiy etiket, rasmiy nutq, norasmiy nutq.

Аннотация: В статье анализируется общелингвистический статус единиц обращения как языковых и культурных единиц, формы их использования в формальном/неформальном общении, обоснованность условий применения по определенным критериям, социокультурная дифференциация узбекского и английского языков и диалога.

Ключевые слова: язык, культура, формы обращения, общение, коммуникация, речь, речевой этикет, формальная речь, неформальная речь.

Kirish. Til va madaniyatning bir-biri bilan chambarchas bog'liqligi tilning madaniyat in'ikosi sifatida, madaniyatning bir bo'lagi sifatida yaralganligi bilan dalillanadi. Madaniyatning bir bo'lagi bo'lgan til tafakkurning paydo bo'lishi bilan bir paytda vujudga kelgan, muloqotga extiyoj inson madaniyatining dastlabki ko'rinishi bo'lib, shu sabab antik davrdayoq "til va madaniyat" muammosi ta'riflangan edi va u jahon falsafiy hamda lingvistik tafakkurida juda uzoq rivojlanishni boshdan kechirdi. Til madaniyatni ifodalaydi, taraqqiyotning majburiy asosi hisoblanadi va nihoyat ma'lum bir davrda va ma'lum bir joyda yashagan xalq madaniyatining eng muhim qismini tashkil qiladi. Til qiyofasida millat dunyoqarashi qiyofasi yotadi, ma'lum bir tilda so'zlashuvchi xalq o'z tarixi, o'z madaniyati, o'ziga xos xususiyatlari bilan boshqa guruhlardan ajralib turadigan insoniyatning shunday bir guruhiga tegishli bo'ladi. Shu bois V. fon Gumboldt til insoniyatni o'rab turgan olam ekanligi, bu olamsiz insoniyatni tasavvur qilib bo'lmasligi, aslida til insoniyat yashayotgan olam ekanligi, inson tildan, til insondan tashqarida mavjud bo'la olmasligi, til fikrning harakati bilan, har bir yangi ijtimoiy-madaniy rol bilan o'z shaklini o'zgartirishini mukammal tarzda asoslagan edi [1]. Agar tilshunoslikning taraqqiyotiga kirish davri bo'lgan XX asr boshlaridagi izlanishlar mazmuniga e'tibor qaratsak, ularning ustun xususiyati til qonuniyatlarini izlashda til va madaniyatning ramziy tabiatiga keng e'tibor qaratganlik hisoblanadi. Praga tilshunoslik maktabi til va madaniyat o'rtasidagi xiralashgan chegarani olib tashladi, tilni ijtimoiylikdan kelib chiqib tarixiy va madaniy hodisa sifatida o'rgandi.

XX asr boshidagi madaniy muhit kontekstida Praga tilshunoslik maktabi faoliyatining doirasi kengayib, sohaning boshqa sohalar bilan aloqalariga e’tibor qaratildi. Tadqiqot predmeti tilni va madaniyat olamini funksional tuzilmalar sifatida tushunishning yangi epistemologik dasturi bo'lib, tilning elementlarini madaniyat bilan bog'liq holda, qurilish imkoniyati sifatida tushunish ilgari surildi. Praga lingvistik maktabining struktural dasturi doirasida madaniyat madaniyat obyektiv voqelik, faktik voqelik sifatida emas , balki til madaniyat olamini anglashning asosiy hodisasi sifatida talqin qilindi. Shuning uchun xam til bilan shu til egasi bo‘lgan etnos o‘rtasida qanday bog‘liqlik mavjud bo‘lsa, ularni o‘rganuvchi tilshunoslik bilan etnografiya o‘rtasida xam shunday aloqa mavjuddir.

Til madaniyati va nutq madaniyatini muhokama qilish masalalariga tilshunoslikning fan sifatidagi o‘rni mustahkamlangan o‘tgan asr boshlarida alohida e’tibor qaratila boshlandi. Natijada tilshunoslar inson faoliyatining barcha sohalarida til vositalaridan foydalanish zaruriyatligiga e’tibor qaratishni boshladilar. *Til – madaniyat belgisi* degan ilk qarashlar xalq tarixidagi har bir voqea, shakllangan urf-odatlar va an’analar, xalqning olis va murakkab turmush tarzi, avvalo, tilda aks etishi natijasida paydo bo‘lgan. Til, jamiyat va madaniyatning o‘zaro munosabati masalasi tilshunoslik fanida juda kam o‘rganilgan. Masalaga atroflicha yondashish zamonaviy tilshunoslikning eng muhim muammolaridan biri sanaladi. Zero, taniqli nemis tilshunosi va faylasufi Vilgelm fon Gumboldt tilni “xalq ma’naviy kuch-qudratining ifodasi”, “xalq tafakkuri va hissiyotini ifodalovchi muhim vositadir” deb ta’riflaganida to‘la haqli edi.

Har bir tilda ma’lum nutqiy etiketlarning mavjudligi til va madaniyat mushtarakligining yana bir bor namoyon bo‘lishidir, murojaat nutqiy etiketda muhim o‘rin tutadi, murojaatning asosiy ko‘rinishlaridan biri murojaat birliklaridir. Har bir insonning ismi bilan chaqirilishi doimo unda ijobiy munosabat uyg'otadi, chunki har bir kishiga tug'ilishdan ismini aytib murojaat qilishadi, inson o‘z ismini eshitib katta bo‘ladi. Ota-onalar va yaqin qarindoshlar kichik bolaga ismini aytib mehr-muhabbat bilan uni chaqirishganda, u hali so'zlarni tushunmasa-da, lekin unga nisbatan yo‘llanayotgan iliq tuyg‘ularni ilg‘aydi. Biz ulg'ayganimiz sari o'z ismimizga ko'nikamiz.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Dunyo tilshunosligida, xususan, ingliz tilshunosligida ham murojaat birliklarining gap bilan sintaktik-semantik aloqadorligi masalalari keng o‘rganilgan [2]. Shuningdek, rus va o‘zbek murojaatning ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari S.Z.Margolina, G.A.Gazieva, B.X.Raxmatillaeva, S.Mo‘minov, Z.A.Akbarova, N.Sh.Ahmedovalar tomonidan o‘rganilgan [3].

Tadqiqot metodologiyasi. Taniqli tilshunoslarning murojaat birliklarining sotsial xususiyatlari va madaniyat munosabatlari haqidagi nazariy qarashlari e’tiborga olindi. Maqolada qiyosiy, komponent tahlil va diskursiv tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Murojaat kommunikatsiya jarayonida nutqni samarali tashkil etish uchun qo‘llaniladigan murakkab tabiatli nutq birligi bo‘lib, so‘zlovchi tinglovchining yetkazib berilayotgan ma’lumotga diqqatini jalb qilibgina qolmay, muloqotning yo‘nalishini aniqlaydi va murojaaat qilinayotgan adresatga nisbatan baho munosabatini ham ifodalaydi. Misol: *My handsome // Mening go‘zalim*; *My precious*

chum // Mening aziz do'stim; My dear young lady //Mening aziz yosh xonimim kabi. L. V. Kojuxova ta'kidlaganidek, murojaat adresatning bahosini ifodalaydi, unga tavsif beradi, hissiy-baholash funksiyasining namoyon qiladi [4]. Tabiatan murojaat ijtimoiy hodisalar jumlasiga kiradi. Murojaat birligi ko'p hollarda ijtimoiy mavqe, yosh, jins, hudud, kasb-kor kabi ijtimoiy omillardan kelib chiqib tanlanadi, ya'ni murojaat birligi ma'lum ijtimoiy omillar asosida shakllanadi. Murojaatning leksik tarkibi shaxsning qaysi ijtimoiy guruhga mansubligini ko'rsatadi, shunga ko'ra, so'zlovchilarning murojaatlari turlicha shakllanadi.

Ba'zi olimlar, masalan, B.P.Ardentov murojaat birliklarini nutqning alohida qismi sifatida ajratadi, olimning izohlashicha, ot murojaat birligi vazifasidagi otdan keskin farq qiladi, otlar har qanday fakt haqida xabar berish uchun qo'llanadi. Agar biz murojaat birligini grammatikada bo'lgani kabi ot sifatida ko'rib chiqsak, bu otning sintaktik funksiyalarida qarama-qarshilikni keltirib chiqaradi: ot (subyekt, obyekt va boshqalar sifatida) gap a'zosi bo'lganda fikrning obyektiv materialini ifodalash vositasi bo'lib xizmat qiladi va tilda ifodalash funksiyasini bajaradi (ya'ni, u qandaydir hodisa yoki hodisani tasvirlashga yordam beradi); murojaat birligi sifatida kelganda esa gapning a'zosi bo'lmay qoladi, fikrning subyektiv tomonini ifodalash vositasi bo'lib xizmat qiladi va tasvirlash funksiyalarini bajara olmaydi [5]. N.Ahmedovaning fikricha, murojaat birliklarida otlarning valentligini to'ldirib keluvchi bo'laklar belgi bildiruvchi, ya'ni aniqlovchi bo'lsa, valentligi to'ldirilayotgan otlar esa aniqlanmish hisoblanadi. Lekin bu bo'linish gapga nisbatan emas, deskripsiyaning – murojaat birligining o'z ichida bo'lganligi sababli bu qism predikat va uning argumentlari o'rtasidagi munosabat sifatida qaraluvchi gap tuzilishi uchun nofunksionaldir. Chunki murojaat birligining o'zi gapning boshqa bo'laklari bilan grammatik jihatdan bog'lanmaydi [6].

Biroq mazmun jihatdan murojaat birligi gap bilan bog'langan bo'ladi. Biroq, bu jihat sintaktik jihatdan gapning biror a'zosi bilan muvofiqlashtirish, ya'ni bog'lanish imkoniyatini bermaydi va u gapga olib kirilgan "begona" qism sanaladi. Masalan: "**Dr. Kane**, was that the true cause ofJohn Cronin's death?" (Sheldon S. Nothing lasts forever, San Francisco Spring 1995, – P.6) // "Doktor Keyn, bu jon Kroninning o'limining haqiqiy sababi edimi?"

Ma'lumki, o'qituvchi nutqini auditoriya (o'quvchi, talabalar)ning yoshiga, dunyoqarashiga qarab shakllantiradi, akademik notiqlikda, mashg'ulot jarayonida nutqning rasmiy uslubidan: «Aziz o'quvchilar!», «Hurmatli talabalar!» kabi rasmiy murojaatlardan foydalanadi. Darsdan tashqaridagi norasmiy muloqotda nutqning kundalik-maishiy uslubidan foydalanadi, hattoki dars mashg'ulotiga oid so'hbat ketganda ham shu uslub saqlanadi, tabiiy, bunday muloqotda ism bilan yoki *bolalar, qizlar, yigitlar* kabi so'zlar bilan murojaat qiladi: *Nodira, Salima, dars tugadimi, berilgan vazifa yodingizdan chiqmasin, yaxshi boringlar // Qizlar, dars tugadimi, berilgan vazifa yodingizdan chiqmasin, yaxshi boringlar* kabi.

Domiy yosh bolalar bilan kommunikatsiyada bo'lish boshlang'ich sinf o'qituvchilarining nutqini emotsional-ekspressiv jihatidan akustik-murojaatli, undovchi harakatli qilib qo'yadi. Bu kabi munosabat ko'plik ma'nosidagi murojaatlar orqali ifodalanadi: «*Bolajonla-ar! Matn nima haqida eka-an?»* kabi.

Ma'lumki, "...o'qituvchilarga, shifokorlarga yoki harbiylarga qo'yiladigan talablar jamiyat mafkurasi talabi darajasida ijtimoiy va ma'naviy asoslar bilan xarakterlanadi. Zero, bunday talablar ijtimoiy soha ichida mafkuraviy muhitni hosil qiladi. Mafkuraviy muhit shu ijtimoiy sohada faoliyat ko'rsatuvchi kishilar muloqot xulqiga ta'sir etadi" [7]. Kasb etikasi muloqot xulqiga, albatta, ta'sir etadi, rasmiy nutqda rahbarning diqqat-e'tibori, asosan, xodimlarni nazorat qilishga qaratilgan bo'ladi. Bu sotsiologik-psixologik pozitsiya rahbar nutqida buyruq ohangini reallashtiradi va o'ziga xos murojaatlarni hosil qiladi: *Hurmatli xodimlar, sizdan mahsulot sifatiga jiddiy yondashuvingiz talab qilinadi.*

I.Xoffman fikricha, salomlashish turli marosimlarda, o'zaro munosabatda rag'batlantirish va munosabatlarni faollashtirishga xizmat qiladigan hurmat doirasidagi xatti-harakatlarning belgilangan modellarini o'z ichiga oladi [8]. Bundan tashqari, salomlashishning rasmiy va norasmiy tuzilishi mavjud bo'lib [9], rasmiy salomlashish, odatda, rasmiy vaziyatlarda, rahbar va xodim o'rtasida, rasmiy vakillarga nisbatan, yoshi ulug', o'z o'rniga ega xodimga nisbatan, ish faoliyati bilan bog'liq tarzda, hamkasblar bilan va assimetrik ijtimoiy munosabatlarda tanish yoki notanishlar muhitida qo'llanadi. Norasmiy salomlashish o'zaro yaqin tanishlar, yaqinlar, oila davrasida qo'llaniladi. Masalan: *He reached the dispensary. Bruce Anderson was standing outside. Bowman nodded to him.* ***"Hi, Bruce." "Good afternoon, Dr. Bowman."*** (Sheldon S. Nothing lasts forever, San Francisco Spring 1995, 67) // U dispanserga yetib keldi. *Bryus Anderson tashqarida turardi. Bouman unga bosh irg'adi. "**Salom, Bryus**." "Xayrli kun, **doktor Bouman**."* O'zbek muloqotida *o'rtoq* so'zining murojaat birligi bilan yonma-yon kelishi rasmiy murojaatni ifodalaydi: ***O'rtoq rais,*** *bosh hali yaxshi o'rnashmagan, shuning uchun sizga qiyshiq ko'rinayotgan bo'lishi mumkin, xavotir olmang, joyiga tushadi*. (Asqad Muxtor, Etik).

Aytish lozimki, muloqot jarayonida murojat birligining qaysi ko'rinishini tanlash ham muhim, ushbu tanlov ulardan birining boshqalaridan ustuvor vazifani bajarishi mumkinligini ko'rsatadi. Masalan Angliya va Amerikada erkaklarga nisbatan, odatda, *mister* so'zi ism yoki familiya oldiga qo'shib, "janob" ma'nosida qo'llaniladigan so'z sanaladi. *Mister*/*janob* so'zi yakka holda ham murojaat birligi bo'lib kelishi mumkin va bunda iltifot vazifasi tinglovchini atash vazifasidan ustun turadi. ***Mister Don****, May I go home? //* ***Mister****, May I go home?//* ***Janob****, uyga ketsam maylimi?*

Murojaat birliklari norasmiy muloqotda ko'rsatish vazifasini namoyon qilishi mumkin, bunda olmoshlar ko'rsatish yo'li bilan murojaat birligi vazifasini va semantik belgini ifodalaydi. Ko'rsatish vazifasiga ega bo'lgan murojaat birligi ikkinchi shaxsdagi kishilik olmoshlari (you/ sen, siz, sizlar,) bilan ifodalanadi va bunda ko'pincha olmosh oldidan "ey", "hoy", "hey" va b. Undov so'zlar qo'llanganda atash vazifasi susayib salbiy sema yuzaga keladi: ***Hey you***, get up!"// ***Ey sen***, *tur*.

Tinglovchini atash (nominativ) vazifasini bajarganda, so'zlovchi tinglovchi e'tiborini o'z nutqiga qaratadi: ***David****, come here? // David, qayerdasan?* gapida "***David***" (***David***), murojaat birligi nutq qaratilgan shaxsni nomlashdan tashqari, uni javob berishga, noma'lum axborotni aniqlashtirishga da'vat qiladi.

Nutqiy etiket xushmuomalalikka asoslanadi, kommunikativ jarayonda uning namoyon qilinishi muhim, ijtimoiy mavqe va ijtimoiy rollardagi, genderlik farqlariga

asoslangan odob-axloq qoidalari tufayli xushmuomalalik ijtimoiy sohadagi muloqotni tartibga solish va osonlashtirish uchun zarurdir. Inglizlar nutqida ayol kishiga murojaat qilinganda, erkaklar nutqida ko‘pincha xushmuomalalik shakllaridan, masalan, *Miss, Mrs, Lady* shakllaridan foydalaniladi, masalan:

1. "***Mrs. Cronin**, did your husband ever discuss Dr. Taylor with you? Tell you what a great doctor he thought she was? Or how helpful she had been to him? Or how much he liked her?")* (Sheldon S. Nothing lasts forever, 1995, 6) // "***Kronin xonim**, yeringiz doktor Teylorni siz bilan muhokama qilganmi? Ayting-chi, u qanday ajoyib shifokor deb o‘ylagan? Yoki u qanchalik foydali bo‘ldi uni? Yoki unga qanchalik yoqdi?"*

2. *"**Lady**, you don't know who you're talking to. You better do what the man says. This is Mr. Lou Dinetto."* (Sheldon S. Nothing lasts forever, 1995, 39) // *"**Xonim**, siz kim bilan gaplashayotganingizni bilmayapsiz. Yerkakning aytganini qilganingiz ma'qul. Bu Janob Lou Dinette."*

Erkaklarga nisbatan esa *mister, ser* so‘zlari ishlatiladi. Masalan:

1.*"Go ahead, **Mr. Williams**. I don't think there are any children in this courtroom."* (Sheldon S. Nothing lasts forever, San Francisco Spring 1995, 5) // *"Oldinga boring, **Janob Uilyams**. Menimcha, bu sud zalida bolalar yo‘q.*

2. *"If he goes into the dispensary, search him when he comes out."*

*"Yes, **sir**."* (Sheldon S. Nothing lasts forever, San Francisco Spring 1995, 66) // *"Agar u dispanserga kirsa, u chiqqanda uni qidiring."*

*"Ha, **ser."***

N.I.Formanovskaya, nutqiy vaziyatdagi murojaat birliklarini so‘zlovchining ijtimoiy roliga ko‘ra tekshirar ekan, nutq xushmuomalalik asosiga qurilgan bo‘lishi kerak, deb hisoblaydi, vaziyatga, so‘zlovchilarning ijtimoiy rollariga qarab murojaat birliklarining nutqni tashkillashtirishdagi o‘rni alohidaligini qayd etadi. Keltirilishicha, murojaat muloqotchilar nutqiy etiketining o‘zaro ta'sir maydoni sanaladi, chunki ularning yordami bilan aloqa muhitining rasmiy / norasmiyligini, qabul qiluvchining ijtimoiy va psixologik rollarini, muloqotchilar o‘rtasidagi shaxsiy munosabatlarning tabiatini aniqlash mumkin· [10]. Xushmuomalalik odob-axloq qoidalari va nutqiy muloqot doirasidagi markaziy toifalardan biridir. Pragmatik nuqtai nazardan, xushmuomalalik hodisasi murojaat shakllaridan kelib chiqadi va aloqa ishtirokchilarining ijtimoiy mavqeyini va ular orasidagi ijtimoiy farqni kodlash vositalari tizimiga aylanadi. Xushmuomalalik mavqe, kasb-kor, yosh, genderlik, kasb-kor kabi ijtimoiy hayotdagi muayyan madaniy mezonlar, so‘zlashish odobi va madaniyati, lisoniy va nolisoniy vositalar yordamida namoyon bo‘ladigan birlamchi ko‘rsatkichidir. Xushmuomalalikning boshlang‘ich nuqtasi salomlashish odobi bo‘lsa, muloqotning xulqi, hol-ahvol so‘rash shakllari, muloqot maqsadini o‘rinli amalga oshirish kabilar ham unga xosdir, demak, "suhbatdosh shaxsiga ehtirom mazmunidagi xushmuomalalik tamoyili lisoniy va nolisoniy muloqotning barcha turlariga xos" [11]. Demak, murojaat xushmuomalalik asosiga qurilgan bo‘lishi lozim. Nutq ko‘rinishlarida murojaatning qo‘llanish va tanlanishi turlicha, so‘zlashuv nutqida muloqotning asosiy birligi sifatida murojaat birligini ko‘rsatish mumkin. Bunda suhbatdoshlarning yoshi, jamiyatdagi ijtimoiy mavqeyi, lavozimi, martabasi, jinsi, shaxsiyati, shuningdek,

suhbatdoshlarning bir-biriga bo‘lgan o‘zaro munosabatlari o‘z aksini topadi. Zero, murojaat shaklining so‘zlovchi tomonidan tanlanishi ma’lum ijtimoiy va psixologik omillarga tayanadi.

Murojaat birliklari an’anaviy nutq odobining standart kommunikativ vaziyatlarining (salomlashish, tanishish, xayrlashish, kechirim so‘rash, minnatdorchilik, tabriklar, tilaklar, maqtovlar, hamdardlik, ta’ziya) deyarli barchasi bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqiladi, nutq odob-axloq qoidalarining maxsus sinfini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Muloqotda ham rasmiy, ham norasmiy muloqotda mantiqli va manfaatli aloqa murojaat birliklari tabiatidan kelib chiqib o‘rnatiladi; butun suhbat davomida kayfiyatga, hissiyotga, maqsadning yuzaga chiqishi, ko‘zlangan natijaga erishishda ohang yuqori qiymatga ega deb hisoblasak, butun nutq vaziyatida murojaatning qayta-qayta talaffuz qilinishi va holatning tovush balandligi, kuchi bilan aloqadorligi shu natijaga olib keladi. Bu suhbatdoshga nisbatan yaxshi his-tuyg‘ularni ham, uning so‘zlariga e’tiborni ham ko‘rsatadi. Bizning nutq odob-axloq qoidalarimiz rasmiy muloqot holatlarida ismlar va otasining ismlaridan foydalanishni belgilaydi. Murojaatning asosiy vazifasi suhbatdoshning e’tiborini jalb qilishdir. Rasmiy vaziyatlarda ism-sharif yoki familiya ko‘rinishidagi murojaatlar nutqiy etiketning qat’iy, aniq ifodasi sanaladi. Ma’lumki, ism-sharif alohida hurmatga yo‘naltirilgan murojaat shakllari ko‘rinishi sanaladi: ***“Dr. Kane,*** *was that the true cause ofJohn Cronin's death?”* (Sheldon S. Nothing lasts forever, San Francisco Spring 1995, 6) // ***“Doktor Keyn****, bu jon Kroninning o‘limining haqiqiy sababi edimi?”* O‘zbek nutqida ko‘pincha ism-sharif ko‘rinishida qo‘llanadi: *…Rahmat,* ***Aksan Aksanich****, – dedi nafasi ichiga tushib ketgan Abdurasulev.* (Asqad Muxtor, Etik).

Xulosa va takliflar. Murojaat birligi muloqotning shunday bir qismiki, fikrning kimga yo‘naltirilganligini ko‘rsatadi, qabul qiluvchiga yanada faol ta’sir ko‘rsatishga yordam beradigan vositadir. Murojaat birligi nafaqat fikrning qabul qiluvchisini aniqlashga xizmat qiladi, balki muloqotini tartibga solish uchun ko‘p funksiyali diskursiv marker sifatida ishlatiladi. Nutqiy jarayonda murojaat birliklari umumiy kommunikativ maqsad bilan birlashtirilgan til birliklarining funksional sinfi, ya’ni muloqotda aloqani o‘rnatish, davom ettirish va yakunlash birligi bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Гумбольдт В.Ф. Избранные труды по языкознанию Издательство: Прогресс.- 2000. – С..

2. Brown R., Ford M. Address in American English. // Journal of abnormal and social psychology. № 62. 1961. – P. 375-385; Goffman E. Relations in public: Microstudies of the public order. – Harmondsworth, UK : Penguin. 1971. 416 p.; Ervin-Tripp S.M. Sociolinguistic Rules of Address // Sociolinguistics J.B. Pride, J.Holmes, – Harmondsworth, 1972. – R. 225-240; Schegloff E. A. Sequence organization in interaction: A primer in conversation analysis. – Cambridge, UK : Cambridge Univ. Pr., 2007. 300 p.; Leech G., Svartvik J. A communicative grammar of English. – London : Longman group, 2012. – 324 p.

3. Марголина Ц.З. Интонация обращении в современном немецком языке. Автореф. дис. …канд.филол. наук. – Минск, 1978. –24 с; Газиева Г.А. Обращение как коммуникативная единица языка (на материале современного английского языка). Дисс. …канд.филол.наук. –Ташкент, 1988. –210 с.; Рахматиллаева Б.Х. Этикетные формы обращения и привлечения внимания в современном русском языке (в сопоставлении с узбекским). Дисс. …канд. филол.наук. –Т., 1992. –210 с.; Mo‘minov S. O‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari: Filol. fanlari d-ri diss... avtoref. - Toshkent, 2000; Akbarova Z.A. O‘zbek tilida murojaat shakllari va uning lisoniy tadqiqi. Filol.fan. nomz. ...dis. –Toshkent, 2007. – 127 b.; Ahmedova N.Sh. O‘zbek tilida murojaat birliklarining semantik-konnotativ tadqiqi. Filol.fan. nomz. ...diss. avtoref. – Toshkent, 2008. – 25 b.

4. Кожухова Л. В. Речевой акт обращения/Л. В. Кожухова//Вестник Ставропольского госуниверситета. Филологические науки.– 2007.– № 48. – С. 80.

5. Ардентов Б.П. Контактирующие слова //Уч. зап. Кишиневского гос.ун-та. Т.XV. Кишинев, 1955. – С.98.

6. Ahmedova N.Sh. O‘zbek tilida murojaat birliklarining semantik-konnotativ tadqiqi. Filol.fan. nomz. ...diss. avtoref. –Toshkent, 2008. –B.8.

7. Rasulov Q.A. O‘zbek muloqot xulqining funksional xoslanishi: Filol.fan. nomz. ...diss. avtoref. – T., 2008. – B.62.

8.Goffman E. Relations in public: Microstudies of the public order. — Harmondsworth, UK : Penguin. 1971. – P.62.

9.Leech G., Svartvik J. A communicative grammar of English. — London : Longman group, 2012. – P.134-137.

10.Формановская Н.И. О речевом этикете // Русская словесность. 2001. №6. – С.71.

11.Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – S.143.

ZEBO MIRZO SHE’RIYATIDA JONLANTIRISH SAN’ATINING IFODALANISHI

Niyozova Hulkar,
Navoiy davlat universiteti doktaranti

Annotatsiya. Maqolada Zebo Mirzo she’riyatida jonlantirish san’atining o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: lingvopoetika, she’riyat, muhabbat, qayg‘u, tabiat, ohang, his-tuyg‘u.

Аннотация: В статье раскрываются уникальные особенности искусства оживления в поэзии Зебо Мирзы.

Ключевые слова: лингвопоэтика, поэзия, любовь, грусть, природа, мелодия, эмоция.

Annatation: The article reveals the unique features of the art of animation in the poetry of Zebo Mirza.

Keywords: linguopoetics, poetry, love, sadness, nature, melody, emotion

Kirish. Keyingi yillarda o‘zbek tilshunosligida badiiy adabiyot tili muammolari bilan shug‘ullanishning jiddiy tus olganligi til birliklarining badiiy asarda namoyon bo‘lish xususiyatlarini tobora oydin tasavvur qilishimizga ularning badiiy adabiyot shakllanishi va badiiy etsetik ta’sirini kengroq doirada tushunishimizga ko‘maklashmoqda. Lingvistik birliklarning adabiy yoxud poetik asardagi lisoniy va badiiy-estetik vazifasini batafsil tahlil qilish bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biridir. Lingvopoetika – tilning aynan estetik vazifasining namoyon bo‘lishi tarzida o‘rganuvchi sohadir. Bugungi kunda filologiyaning yaxlitligini tiklash ham aynan lingvopoetikaning vazifasidir. Uni ham matnlarda, ham she’riyatda aniqlash imkoniyati mavjud.

Adabiyotlar tahlili. Mustaqillikdan so‘ng she’riy asar tili, poetik nutqning individual xususiyatlarini o‘rganishda asarni lingvopoetik jihatdan tadqiq qilishga alohida e’tibor berildi. Mazkur masala o‘zbek tilshunosligida ilk bor Fitrat, Oybek tomonidan o‘rganilgan bo‘lsa, keyinchalik I.Rasulov, A.Shomahsudov, R.Qo‘ng‘urov, H. Rustamov tomonidan tadqiqotlar olib borildi. Lingvopoetik birliklarni she’riyatda aniqlash deganda biz, she’r tarkibida qo‘llanilgan sinonim, antonim, metafora, metonimiya, jonlantirish, o‘xshatish, takror va shu kabi yana bir qancha badiiy vositalar tahlilini tushunamiz. Bugungi kunda tilshunoslikda lingvopoetik tahlilga doir ko‘pgina ishlar olib borilmoqda. Xususan, M.Yo‘ldoshevning “Cho‘lpon so‘zining sirlari” nomli ilmiy tadqiqot ishida Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanidagi lingvopoetik qonuniyatlar ochib berilgan. Muallif Cho‘lponning so‘z qo‘llash mahoratini tadqiq etish orqali adibning estetik olamiga kirib boradi. Unda “Kecha va kunduz” romanida

qo‘llangan ibora, maqol va matallarning badiiy lisoniy xususiyatlari chuqur o‘rganilgan. Shuningdek badiiy tasvir vositalarining asardagi mavqei ham g‘oyat qiziqarli tahlil qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada qiyosiy-tipologik, lingvistik, tavsiflash, tasniflash, komponent tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Lingvopoetik jihatdan tahlillarga etibor qaratganimizda, xalqimizning ardoqli shoirasi Zebo Mirzo she’rlarining lingvopoetik tahlili bugungi kunga qadar tahlil etilmagani, har bir tilshunos oldiga bir mas’uliyat yuklaydi. Shoira she’rlarini lingvopoetik jihatdan tahlil qilib, ijodkorning badiiy tasvir vositalaridan, shuningdek, o‘zbek tilining boy imkoniyatlaridan foydalanishdagi mahoratini va bu orqali shoiraning o‘zbek tili rivojidagi o‘rnini belgilash har bir yosh avlod oldidagi vazifadir. Bu kabi lingvopoetik jihatdan tahlil etish orqali esa, oliy ta’limda, qolaversa maktab va litseylarda darsdan tashqari mashg‘ulotlar o‘tish jarayonida o‘quvchilarning ilmiy salohiyatini oshirishda foydalanish va bu orqali katta yutuqlarga erishish mumkin.

Lingvopoetik tahlilda badiiy matnlarning emotsional-ekspressivligini oshiruvchi vositalardan biri jonlantirishdir. O‘qituvchi o‘quvchiga jonlantirish mavzusini o‘tish jarayonida Zebo Mirzo she’rlari misolida tushuntirsa, o‘quvchi mavzuni tushunishi barobarida, shoira ijodi bilan ham tanishish imkoniyati mavjud bo‘ladi.

Ma’lumki, jonlantirish muallifning o‘quvchiga tez va aniq yetkazilishini taminlashda qulay vosita sifatida lingvopoetik vositalar tizimida muhim o‘rin egallaydi. G.Muhammadjonova jonlantirishga oid xususiyatlarini quyidagicha tasniflaydi: “… jonlantirish jonlantirilayotgan obyektni hisobga olgan holda 4 xil yo‘nalishda bo‘lishi mumkin:

a) jonsiz predmetni jonlantirish;

b) jonli mavjudotlarga insonga xos xususiyatlarni taqish;

v) tabiat hodisalarini jonlantirish;

g) hissiyotlarni (yoki mavhum otlarni) jonlantirish”[1]

Jonlantirish har bir ijodkorga fikr ifodalashda qulaylik tug‘diradi, she’rlardagi poyetik ta’sirchanlikni kuchaytiradi. M.Mirtojiyev fikri bilan aytganda, “Jonlantirish…kishilarning harakatlari, his-tuyg‘ular; so‘zlash va fikrlashlari jonsiz predmetlarga ko‘chiriladi. Boshqacha qilib aytganda, jonsiz predmetlarni insonlar kabi harakat qiladigan, fikrlaydigan, so‘zlaydigan qilib tasvirlash…”[2]

Zebo Mirzo she’rlarida, jonlantirishning takrorlanmas ko‘rinishlariga guvoh bo‘lish mumkin. G.Muhammadjonova jonlantirishga oid xususiyatlarini keling biz shoira ijodida kuzatsak:

Derazani chertib *yomg‘irlar* o`tdi

Kechagina bizlar qoldirgan izdan.

Parishon bog‘larni *tumanlar* yutdi,

Sevgilim, ne kechdi xayolingizdan? [“Ishq” to`plami, 2011, “Derazani chertib…99]

Ko`rib turganimiz ushbu satrlarda jonlantirishning ikki turiga guvoh bo`lishimiz mumkin. Birinch satrda tabiat hodisasi jonlantirish hodisasi kuzatilayotgan bo`lsa, ikkinchi satrda jonsiz predmet jonlantirilayotganiga guvoh bo`lamiz. Yana bir misraga e`tibor qaratsak:

Quyosh yog‘dirarkan oltin nayzalar,
vujudi qizigan
daryo qoshiga
yugurib chiqadi chanqoq maysalar. [“Saraton”, 16]

Shoira ijodini kuzatar ekanmiz, hissiyotlarni (yoki mavhum otlarni) jonlantirish turiga ham juda ko`plab misollar topish mumkin.

Daryo bo‘lib shovullab oqdi
Va dilimni tebratayotgan
Gam sevgining piligin yoqdi.
Yuragimni kuydirayotgan
Ko‘zyoshmidi, olov yomg‘iri? [“Ko‘zlaringiz juda chiroyli…”,17]

Yoki:

Ruhim eshigini ochiq qoldirib,
Ko`ngil kirib keldi
nenidir sezib…
…Olis shu’lalarday ketib borar Baxt.
Qarshimda lovullab yonardi dunyo,
Qarshimda huvillab yotar edi Vaqt…[“His qildim, ketishim kerakligini”,20]

Zebo Mirzo she’rlarida tabiat hodisalari bilan bog`liq jonlantirish san`atiga misollarni ko`plab uchratish mumkin. Shoira she’rlarida insonga xos ishqiy tuyg`ularni tabiat manzaralari, holatlari bilan hamohanglikda namoyon bo`ladi. Xususan, “Jannat azobi” nomli she’rida aynan buning guvohi bo`lamiz:

Oqshom tushdi asta bog‘lar qo‘yniga,
Telba shamollarning ko‘yi mast-alast.
Yulduzlar jomini chayqatib o‘tar,
Toklar qonidagi ko`hna musallas…

Yog‘dular selida adashadi ***yel,***
Yalang‘och daryolar bag`rida oqib,
Qo‘shni boqqa tushgan o‘g‘ri boladay
So‘nggi olmalarni keladi qoqib…

O‘zbekiston xalq shoiri Xurshid Davron ta’kidlaganidek: “Shoira she’rlarini o‘qigan kitobxon, ko‘z bilan emas, qalb bilan mutolaa qilishni talab etadi…” Ha, haqiqatan shoira she’rlarida o‘zgacha ohang hukm suradi. Bu shunday ohangki, har bir insonga yoqimli va sevimli!

Jonlantirishning asosida insonga xos xususiyatlarning jonsiz, mavhum narsalarga ko‘chirilishi yotar ekan, u lirik qahramon ruhiyatini ochib berishning eng qulay vositalaridan biridir:

Vujudim
daraxtin
yiqitgan ***qayg‘u***
Yoding umididan ingraydi betob. [“Qora nur”, 26]

Zebo Mirzo she’rlarida hamma narsa oshkora. Muhabbat oshkora. Sog‘inch oshkora. Nolakorlik oshkora. Shu oshkoralikda shoira qalbining boyligi va insoniy

qudrati to‘liq namoyon. Ushbu she’riy parchada ham bunga guvoh bo‘lish mumkin. Yor hajrida kuyib yongan oshiqning holatini jonlantirishning go‘zal namunasini yaratgan holda va o‘z ruhiy holatini oshkora ayon etgan holda misralarga ko`chiradi:

Olislarda mudraydi qishloq,
Dunyo mensiz ko‘radi tushlar.
Nayzalarin samoga tirab,
Ko‘l bo‘yida uxlar qamishlar. [“Ishq azobi”, 121]

Xulosa va takliflar: Zebo Mirzo ijodida bunday jonlantirishlarni ko‘plab uchratish mumkin. Jonlantirishlar har bir holatda ham shoira maqsadining amalga oshishida, lirik qahramon ruhiyati, ichki kechinmalarini ifodalashda yordamchi vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bu kabi tasvir vositalarni lingvopoetik tahlilga tortish shoira ijodini yanada chuqur va kengroq o‘rganishimizga zamin yaratadi. Bu esa bugungi kunda unib, o‘sib kelayotgan har bir yosh avlod oldidagi mas’uliyatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Yo‘ldoshev M. Cho‘lpon so‘zining sirlari.-T.: Ma’naviyat, 2002. 143 b.
2. Yo‘ldoshev M. Cho‘lponning badiiy til mahorati: Filol.fan.nom.dis.avtref.-T., 2000. 25 b.
3. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari.-T.: Fan, 2007. 123 b.
4. Zebo Mirzo “Ishq”. - T.: Akademnashr, 2011.
5. www.ziyonet.uz
6. www.google.com

DISKURS MOHIYATI VA UNING QAMROVI MASALASI

Barnoyeva Shahnoza,
mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. Maqolada diskurs mohiyati, xususiyatlari aniqlanib, kommunikativ makonda diskurs va matnning o‘zaro bog‘liqligi masalalariga doir qarashlar tahlil qilingan**.**

Kalit so‘zlar: diskurs, kognitiv jarayon, kommunikativ jarayon, muloqot, matn, komponent.

Аннотация. В статье рассмотрена сущность, особенности дискурса и анализируются взгляды на вопросы взаимозависимости дискурса и текста в коммуникативном пространстве.

Ключевые слова: дискурс, когнитивный процесс, коммуникативный процесс, коммуникация, текст, компонент.

Annotation. The article identifies the essence and features of discourse and analyzes views on the interdependence of discourse and text in the communicative space.

Keywords: discourse, cognitive process, communicative process, communication, text, component.

Kirish. Bugungi zamonaviy tilshunoslikda “diskurs” terminiga keng murojaat qilinmoqda va termin mohiyatiga xilma-xil munosabatlar bildirilmoqda, chunki diskurs nafaqat tilshunoslik, balki jamiyatshunoslik, huquq, pedagogika, madaniyatshunoslik kabi sohalarda faol qo‘llansa-da, bu atamaga yagona baho berilmagan. Tilshunoslikda diskurs atamasining paydo bo‘lishi til sohibini e’tiborga olish, matn tilshunosligi, qolaversa, antropotsentrik tilshunoslikning yuzaga kelishi bilan bog‘liqdir. natijada diskursning ijtimoiy tabiatidan kelib chiqilib, ilmiy diskurs, publitsistik diskurs, badiiy diskurs, siyosiy diskurs, baholovchi diskurs ko‘rinishlarining mavjudligi tushunchaning ko‘p qirrali ekanligini, jamiyat a’zolari lisoniy faoliyatida faolligini ko‘rsatadi

Adabiyotlar tahlili. Dunyo tilshunosligida Z.Xarris, S.Mills, Fred L. Gardafe, Venying Su, R.Perez, M.Fuko, S.Todorov, Y.Kristeva, R.Bart va boshqalar tomonidan diskurs tushunchasining mohiyati, qo‘llanish o‘rni kabi masalalar tadqiq qilingan.

Rus olimlari M.M.Baxtin, Ye.S.Kubryakova, N.D.Arutyunova, M.L.Makarov, V.Z.Demyankov, R.A.Karimova, V.E.Chernyavskaya, A.E.Kibrik tadqiqotlarida diskurs, diskurs va matn munosabati, diskursning kognitiv jarayon ekanligi va diskurs tahlillari o‘rganilgan.

Sh.Safarov, L.Raupova, M.Qurbonova, N.Normurodova, M.Hakimov, A.Pardayev kabi o‘zbek olimlari diskurs va matn muammolariga doir tadqiqotlarni amalga oshirishgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada tasniflash, diskursiv tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Dunyo tilshunosligida 1952-yilda amerikalik tilshunos Z.Xarris “Diskurs tahlili” deb nomlangan maqolasida gapdan kattaroq matn parchasiga nisbatan diskurs atamasini qo‘llagan [1, 1-30]. *Diskurs* (frans. discourse; ingl. discourse; lot. discursus; orqa-oldiga yugurmoq; aylanma-takrorlanuvchi harakat; suhbat; nutq) [2, 34]. – ekstralingvistik-pragmatik, ijtimoiy-madaniy, psixologik va boshqa omillar bilan boyitilgan izchil matn; voqeaga bog‘liq baholangan matn; maqsadli ijtimoiy harakat sifatida qabul qilingan odamlarning o‘zaro ta’siri va ular ongining mexanizmlari (kognitiv jarayonlar)ning tarkibiy qismi sifatida qabul qilingan nutq.

Sh.Bobojonova Harris va Grenoblening diskurs nutqning istalgan ko‘rinishida so‘zlarning o‘zaro munosabatiga asoslanadi, degan ta’rif uning bir qirrasinigina ifodalaydi, deb izohlaydi. 1988-yilda nashr etilgan “Collins concise english dictionary”da diskursning 7 xil izohi keltiriladi: Discourse. 1. Verbal communication, talk, conversation. 2. A formal treatment of a subject in speech or writing. 3. A unit of text used by linguistic phenomena that range over more than one sentences. 4.to discourse: the ability to reason (archaic). 5. To discourse on/upon to speak por write about formally. 6. To hold adiscussion 7. To give forth (music)(archaic) [3]. Ko‘rinadiki, diskursning quyidagi 7 xil etimologik ma’nosi yuzaga chiqadi: 1) og‘zaki muloqot, suhbat; 2) (tanlangan yoki muhokama etilayotgan) mavzuga nisbatan og‘zaki yoki yozma munosabat; 3) tilga oid hodisalarni tahlil qilish uchun tilshunoslar tomonidan foydalaniladigan birdan ortiq gapni o‘z ichiga oluvchi matn; fe’l so‘z turkumiga oid ma’nolari: 4) biror narsani mantiqiy asoslay olmoq (arxaizm); 5) biror narsa haqida rasmiy tarzda gapirmoq yoki yozmoq; 6) muhokama olib bormoq; 7) musiqa yaratmoq, musiqani uzatib bermoq (arxaizm)” [4, 13]. L.Raupovaning fikriga ko‘ra, nutqni jarayon sifatida o‘rganish faqat muloqot – so‘zlovchi va tinglovchi orasida o‘zaro diskurs (fikr almashtirish), savolga yarasha javob berish holatidagina tadqiq etilishi mumkin. Tadqiqotlarda diskurs tushunchasi va uning qamrovini sharhlashga, mohiyati va funksiyasini ochib berishga, shu aspektda subyekt hamda obyektlarini aniqlab, izohlashga harakatlar qilinganligini kuzatish mumkin. Tilshunoslik fanining hozirgi taraqqiyot davrida, tilshunoslik integratsiyalashgan yo‘nalishga kirib kelgan bir pallada diskursning umumiy qabul qilingan biror bir ta’rifi mavjud emas. Y.S.Kubryakova mazkur tushunchani anglashda quyidagi yondashuvlarni maqsadga muvofiq deb hisoblaydi: a) tarkibiy-sintaktik yondashuv: fragment sifatida diskurs matn, ya’ni jumla darajasidan yuqori bo‘lgan tushuncha; b) tarkibiy-stilistik yondashuv: bu yondashuvda asosan stilistik yondashuvlarga e’tibor qaratiladi; diskurs matndan tashqari aniq bo‘lmagan qismlarga bo‘linishi, o‘z-o‘zidan paydo bo‘lishi, vaziyat, yuqori kontekst, uslubiy o‘ziga xosligi bilan ajralib turadigan og‘zaki nutqni tashkil qilishi; v) kommunikativ yondashuv: diskurs xuddi dialogga yoki suhbatga o‘xshab, nutq faoliyati sifatida yoki suhbat sifatida, ya’ni diologik jarayonning bir turi tarzida tilga olinadi [5, 7-25].

M.L.Makarov tomonidan diskursning quyidagi turlari ko‘rsatiladi: 1)funksional diskurs – nutqning jarayondagi ifodasi; 2)formal diskurs – nutqning og‘zaki yoki yozma

matnda aks etishi; 3)situativ diskurs –muayyan vaziyat, ekstra*lingvistik omillar natijasidagi kommunikativ jarayonni tadqiq etish [6, 280].

Antropotsentrik nuqtai nazardan qaraganda, diskurs – ekstralingvistik, sotsiologik, psixologik, pragmatik, kognitiv omillar bilan o‘zaro bog‘langan matn, shuningdek, nutq maqsadi qaratilgan ijtimoiy holat, nutqda ishtirok etuvchi muloqot egalarining o‘zaro bir-biriga ta’siri hisoblanadi. Ya’ni, diskurs jonli hayotning har bir sohasida faol amal qilar ekan, tabiiy, hayotiylik yuklatilgan nutqni sanaladi.. Shuningdek, diskursni og‘zaki nutq jarayoni mahsuli sifatida e’tirof etadi. N.D.Arutyunova nazdida, ***diskurs*** – voqea jihatdan olingan ekstralingvistik, pragmatik va boshqa omillar bilan birlashtirilgan izchil matn [7, 136-137], Albatta, diskurs kommunikativ jarayonda namoyon bo‘luvchi yozma yoki og‘zaki matn sanalib, R.A.Karimova ta’kidicha, diskurs matn bilan birga uning hosil bo‘lishi va qabul qilinishiga ta’sir etuvchi lingvistik bo‘lmagan omillarni o‘z ichiga olgan murakkab kommunikativ hodisadir [8,8]. V.E.Chernyavskaya talqinicha, diskurs muayyan kognitiv va tipologik tarzda shartli aloqa makoni amalga oshiriladigan kommunikativ hodisa [9, 14] sanaladi. A.Pardayev ta’kidicha diskurs – jarayon, ya’ni insoniy faoliyat turi, olim lisoniy va yuzlab nolisoniy omillarning mushtarak shaklda bir maqsad yo‘lida voqelanishini diskurs deb ko‘rsatadi. Bu o‘rinda A.E.Kibrikning fikrlari mantiqqa yaqin keladi: Diskurs – kommunikantlarning ongini o‘z ichiga olgan kommunikativ vaziyat va muloqot jarayonida yaratilgan matn [10, 41]. Bu o‘rinda olim diskurs va matnni o‘zaro farqlaydi, diskurs matndan ko’ra kengroq tushuncha ekanligini, u bir vaqtning o’zida lisoniy faoliyat jarayonining natijasi ekanligini va uning natijasida matn paydo bo’lishini ta’kidlaydi [11, 117]. Har qanday matn og’zaki nutqda aynan, o’zining yozma nutq shakliday grammatik birliklar bilan o’xshash bo’lmasa-da, mazmuniy jihatdan bir xil bo’ladi. Matn va diskurs bir-biridan lingvistik tarkib jihatdan farqlansa-da, semantik jihatdan bir xil bo’ladi.

Diskurs kognitiv faoliyat natijasi sanalib, “diskurs” nutqiy faoliyatdagi kognitiv jarayon, “matn” esa nutqiy faoliyat jarayonining natijasidir. Tadqiqotlarda diskursning funksionallik, dinamiklik, jarayon, aktuallik xususiyatlari, matnning strukturalilik, statiklik, ijod mahsuli, virtuallik kabi xususiyatlari ko‘rsatiladi [12, 4].

I.K.Arxipov ta’kidicha, ma’no shakllanishi ikki tomonlama aqliy faoliyat natijasidir. Shuning uchun qog‘ozga tushirilgan matnda asl ma’nodagi belgi yo‘q. Ularda faqatgina harflar to‘plami mavjud va bu to‘plamlar mazmun shakllanishi uchun turtki bo‘lishlari mumkin. Buning uchun ularga ong «tegib ketishi» kerak bo‘ladi”. ... Uningcha, bu ikki hodisa moddiylik (matn) va psixo-fiziologik jarayon (diskurs) xususiyatlari bilan farqlanadilar [13, 246-247].

Adabiyotlarni o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, “diskurs” tushunchasining aksariyat ta’riflarida diskursning muhim xususiyatlari va matn xususiyatlarining aynanligi keltiriladi, natijada murakkab qarash yuzaga kelgan: “Diskurs-bu matn...” “Matn” va “diskurs” tushunchalarini ekvivalent – biri o‘rnida ikkinchisini almashtirsa bo‘ladigan tushunchalar sifatida belgilash asosli emas, turli xil tartibdagi hodisalar uchun deyarli bir xil nomlardan foydalanish maqsadga muvofiq kelmaydi.

Matn va diskurs o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan alohida tushunchalar, matn ishlashning ma’lum xususiyatlariga ega, matn – har doim muallifi mavjud bo‘lgan,

nutqning mahsuli sifatida funksional to‘liqlikka ega murakkab tuzilma, matn til birliklarining izchil tarzda ketma-ket joylashuvidan yuzaga keladi.

Diskurs jonli muloqotda tilning harakatlanishidir, kognitivligi bilan ajralib turadi, kognitiv jarayon – real nutqning yaratilishi, nutq asarini yaratish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan jarayondir. matn esa tugallangan (va yozib olingan) shaklga ega nutq faoliyatining yakuniy natijasidir.

Matn va diskurs o‘rtasidagi bog‘liqlik ularning "aloqa toifalari tizimidagi o‘rni" bilan ham belgilanadi. Bu erda diskurs tushunchasi "matn" tushunchasi, shuningdek "nutq" tushunchasi orqali hosil bo‘ladi. Bunday o‘zgarish "matnni yaratadigan kommunikativ voqea sodir bo‘ladigan ma'lum bir kommunikativ makon"ni yaratish tufayli sodir bo‘ladi.

Albatta, diskurs ham matn sanaladi, biroq bu matn nutqiy faoliyatda qo‘llanish uchun yaratilgan "faol" matn, u nutqiy faoliyat+fikrlash jarayoni bilan kechadi. Jamiyatda faol qo‘llanuvchi nutqiy faoliyat bo‘lganligi uchun nafaqat lingvistik omillar, balki ekstralingvistik omillar bilan bog‘liq tarzda yuzaga chiqadi. Diskursga sinonim tarzda "muloqot", "suhbat" atamalarini keltirish mumkin, diskurs fikrni bayon etish vositasi bo‘lib, matn ichki komponentlarining bir butunligicha o‘rganilishi va tadqiq etilishi uchun yaratilgan tuzilmadir. Har qanday matn diskurs sifatida qabul qilinmaydi, matn jonli hayotda "yashasa", diskurs sanaladi. Real hayotda verbal ifodalanuvchi "diskurs"ning "matn"dan farqi jonli hayot bilan aloqasi bo‘lmagan, bevosita tiklanmaydigan qadimgi va boshqa matnlar diskurs sanalmaydi. Ma'lumki, milliy o‘ziga xosliklar yozma va og‘zaki diskursda o‘z aksini topadi, olamning lisoniy va milliy manzaralari o‘rtasida bog‘liqlik xosil bo‘ladi

Xulosa va takliflar. Diskurs verbal tarkibdan iborat og‘zaki yoki yozma matn hisoblanadi. Diskurs kommunikativ hodisaning tugallangan yoki davom etayotgan individual mahsuli hamda og‘zaki yoki yozma natijasini anglatadi. Jamiyatda tilning vazifalarini ko‘rib chiqish diskursni faqat pragmatik yondashuv asosida emas, balki ma'lum ijtimoiy omillarni (so‘zlovchilarning fikr-mulohazasi, dunyoqarashi, kasbi, ijtimoiy maqomi, etnik mansubligi va boshqalar) ham e'tiborga olgan holda amalga oshirilishi lozimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Harris Z.S. Discourse Analysis // Language. 1952. No. 8.
2. Демьянков В.З. Текст и дискурс как термины и как слова обыденного языка / В.З.Демьянков // Язык. Личность. – М.: Языки славянских культур, 2005.
3. https://www.collinsdictionary.com/dictionary/english/discourse
4. Mills S. Discourse. The New Critical Idiom. Taylor & Francis e-Library, 2001.
5. Кубрякова Е.С. О понятии дискурса и дискурсивного анализа в современной лингвистике: обзор // Дискурс, речь, речевая деятельность. Функциональные и структурные аспекты: сборник обзоров. — Москва: ИНИОН РАН, 2000.
6. Макаров М.Л.Основы теории дискурса.–М: Гнозис, 2003.
7. Арутюнова Н. *Д.* Дискурс // Лингвистический энциклопедический словарь / гл. ред. В. Н. Ярцева. – М., 1990.

8. Каримова Р. А. Семантико-структурная организация текста (на материале устных спонтанных и письменных текстов). – Уфа: Изд-во БашГУ, 1991.

9. Чернявская В. Е. Дискурс как объект лингвистических исследований // Текст и дискурс. Проблемы экономического дискурса: сб. науч. ст. – СПб.: С.Петерб. гос. ун-т экономики и финансов, 2001.

10. Кибрик А. Моделирование языковой деятельности в интеллектуальных системах. – М., 1987.

11. Кибрик А. Язык средств массовой информации как объект междисциплинарного исследования. -М., 2008.

12. Макаров М. Л. Анализ дискурса в малой группе —Тверь: Изд-во Тверского ун-та, 1995.

13. Қаранг: Сафаров Ш. Прагмалингвистика. –Самарқанд, 2006.

14. Qarang: Safarov Sh. Pragmalingvistika. –Samarqand, 2006.

REKLAMA TARIXI VA UNI JOYLASHTIRISH MANBALARI

Sobirova Dilnoza,
BuxDU, O‘zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasi doktoranti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada reklamaning tarixiy rivojlanishiga oid ma’lumotlar keltirilgan. Tadqiqotda reklamaning qadimiy Misr, Gretsiya, Rim kabi madaniyatlarda qanday shakllarda mavjud bo‘lganligi, O‘rta asrlar va Renessans davrida reklamaning rivojlanishi, shuningdek, sanoat inqilobi, XX asr va XXI asrda reklamaning evrilib, raqamli texnologiyalar orqali global miqyosga chiqishi tahlil qilingan. Shuningdek, reklamaning turli shakllari va kanallari (matbuot, televideniye, internet, radio va boshqalar) haqida batafsil ma’lumot berilgan. Bu jarayonlarning har biri texnologik va ijtimoiy o‘zgarishlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, reklama sohasining rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Shu bilan birga, reklama faoliyatining samaradorligini oshirishda turli kommunikatsiya kanallarining o‘rni ham tahlil qilgan.

Kalit so‘zlar: reklama, matbuot, televideniye, internet, radio reklama.

Kirish. Ma’lumki, reklama – bu mahsulot, xizmat yoki brendni maqsadli auditoriyaga tanitish, uni sotib olish yoki foydalanishga undash uchun turli xil kommunikatsiya vositalari orqali amalga oshiriladigan faoliyatdir. Reklama odamlarni o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun ma'lum bir mahsulot yoki xizmatni tanlashga yo‘naltiradi va shuningdek, brendning imijini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqotlarda dastlabki reklamalarning yuzaga kelishini rimliklar bilan bog‘lashadi. Buni esa turli xil topilmalar, tarixiy asarlardagi ma’lumotlar asosida isbotlashga harakat qilishadi. Aslida reklamalar birinchi tovar yaratilib, kishilar (sotuvchilar) uni sotishga ehtiyoj sezgan davrlarda vujudga kelgan [1,20].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jahon reklamashunosligida G. Lich [2], R. Rivz[3], D. Flader[4], N. Koxtev[5], G. Dyyer[6], T. Vestergaard[7], K. Skrader[8], A. Goddard[9], A. Repev[10], o‘zbek reklamashunosligida esa N.Chiniqulov[11], B.Abdullayev[12]larning ilmiy izlanishlari reklama matnlarining lingvistik jihatlari, reklama matnlari tarjimasining lingvomadaniy va uslubiy xususiyatlari tadqiqiga bag‘ishlangan.

Tadqiqot metodologiyasi. Reklama turli sohalar tomonidan tadqiq etilishi mumkin bo‘lgan, serqirra hodisa bo‘lib, uning tadqiqi bugungi kun ilm-fani oldida ijtimoiy zarurat sifatida maydonga keldi. Xususan, “Reklama to‘g‘risida”gi Qonunning yangi tahrirda qabul qilinganligi, reklama va uning tili, matni yuzasidan belgilangan me’yorlar reklamalarni tilshunoslik nuqtayi nazardan tadqiq etishda dasturil amal vazifasini bajaradi.

Tahlil va natijalar. Reklamaning yuzaga kelishi va uning tarixiy rivojlanishiga oid asosiy bosqichlar xususida so‘z yuritamiz:

I. Qadimgi davrlar. Reklamaning dastlabki shakllari qadimiy sivilizatsiyalar davriga borib taqaladi. Miloddan avvalgi III ming yillikda Mesopotamiya (hozirgi Iroq hududi)da qadimgi yozuvlar va tasvirlar orqali mahsulotlar va xizmatlar haqida ma’lumotlar berilgan. Jumladan, qadimgi Misrda, Gretsiyada va Rimda dehqonlar yoki savdogarlar bozorga chiqishda o‘z mahsulotlarini reklama qilish uchun xarakterli rasmlar, shiorlar yoki yozuvlardan foydalanishgan. Xususan, Misrda mahsulotlar va xizmatlar haqida og‘zaki reklama yoki nishonlardan foydalanilgan. Gretsiya va Rimda esa keng omma orasida reklama qilish uchun yozilgan postlar yoki afishalar tarqatilgan. Bu postlarda ko‘pincha dori-darmonlar, gladiator janglari va boshqa ijtimoiy tadbirlar reklama qilingan.

II. O‘rta asrlar. Bu davrda, ayniqsa, Yevropada, reklama asosan og‘zaki shaklda mavjud bo‘lib, savdogarlar va hunarmandlar o‘z mahsulotlarini bozorlar yoki jamoat joylarida targ‘ib qilishgan. O‘sha davrda maxsus yozuvlar va rasmli reklama vositalari mavjud bo‘lmagan.

III. Renessans davri. Bu davrda, XV-XVI asrlarda, matbuot bosma texnologiyalarining rivojlanishi bilan reklama ham yangi bosqichga o‘tdi. Johann Gutenbergning bosma matbaa mashinasini ixtiro qilishi reklamaning rivojlanishiga katta turtki berdi. Bu davrda matbuotda mahsulotlar, xizmatlar va hodisalar haqida e’lonlar bosib chiqarila boshlandi. Masalan, 1477-yilda inglizcha “The first known printed advertisement” (Birinchi bosma reklama) chiqarildi. "The First Known Printed Advertisement" ingliz tilida bosib chiqarilgan birinchi bosma reklama sifatida tanilgan. U Uilyam Caxton tomonidan chop etilgan bo‘lib, bu reklama Londonda nashr etilgan “The Recuyell of the Histories of Troye” (Troya tarixlarining to‘plami) nomli kitob uchun e’lon bo‘lgan. Uilyam Caxton Angliyaning birinchi bosmachi matbaachisi bo‘lib, ushbu reklama uning matbaa tizimida ishlab chiqarilgan birinchi tijorat reklamasidan biridir. Bu reklama, asosan, kitobni sotishni targ‘ib qilish uchun mo‘ljallangan edi. Reklama matni quyidagicha bo‘lgan:

“If it please you, buy this book” (Tarjimasi: Agar sizga yoqsa, bu kitobni sotib oling).

Reklama matni kitobni sotib olishni targ‘ib qilgan va o‘sha davrda matbaachilikni rivojlantirishga katta hissa qo‘shgan. Ushbu reklama nafaqat bosma reklamaning shakllanishiga, balki matbaa sanoatining rivojlanishiga ham turtki bo‘lgan. Mazkur reklama o‘z vaqtida yangi bosma usulidagi axborot tarqatishning muhim bir vositasi bo‘lib, u reklamaning tarixiy rivojlanishiga muhim qadam bo‘lgan.

IV. XIX asr – Sanoat inqilobi va reklama sohasining rivojlanishi.

XIX asrning boshlarida, ayniqsa, sanoat inqilobi natijasida, yoppasiga ishlab chiqarishning boshlanishi bilan reklama sohasida yangi imkoniyatlar paydo bo‘lgan. Bu davrda reklama usullari sezilarli darajada kengayib, tashqi reklama, broshyuralar va afishalar keng qo‘llanila boshlangan. XIX asrning oxirlarida Amerika va Yevropada reklama agentliklari tashkil topa boshlagan. Birinchi reklama agentliklaridan biri, 1840-yilda New Yorkda tashkil topgan **Volney B. Palmer**ning agentligi bo‘lib, u reklama sanoatiga yangi turtki berdi.

Sanoatning rivojlanishi mahsulotlar va xizmatlar ishlab chiqarishni ko‘payishiga sabab bo‘lgan. Bunda reklama mahsulotlarni bozorda ajratish va savdo hajmini oshirish uchun muhim vosita vazifasini bajargan.

V. XX asr – Mass-media va reklama sohasining oltin davri. XX asrning boshida mass-media vositalari, xususan, radio va televideniye reklamaning yangi davriga yo‘l ochdi. Televideniye va radio reklamalari keng tarqalib, katta auditoriyaga tezda yetib borish imkonini berdi. Buning natijasida reklama sohasida katta o‘sish kuzatildi. Jumladan, 1920-yilda birinchi radio reklama efirga uzatildi. Bu reklama usuli butun dunyo bo‘ylab tez tarqaldi. 1940-yillarda esa televizion reklamalar ko‘plab mamlakatlarda efirga uzatila boshlandi. Televizor orqali berilayotgan reklama yangi auditoriya bilan bog‘lanishning samarali usuli sifatida ommalashdi.

VI. XXI asr – Raqamli reklama va internet davri.

Internetning rivojlanishi va raqamli texnologiyalar reklama sohasining yangi bosqichini boshlab berdi. XXI asrda reklama internet, ijtimoiy tarmoqlar va mobil qurilmalar orqali kengayib, auditoriyaga aniq va maqsadli yetib borishni imkonini yaratdi. Internet reklamalari, Google Ads, bannerlar, pop-up reklamalari va ijtimoiy tarmoqlarda reklama yangi davrda reklamaning asosiy vositasiga aylandi.

Facebook, Instagram, Twitter va boshqa platformalarda reklama har qadamda ko‘payib, o‘zining interaktivligi va maqsadli auditoriya yaratish imkoniyatlari bilan ajralib turadi.

Reklamaning rivojlanishi turli davrlarning texnologik va ijtimoiy o‘zgarishlari bilan chambarchas bog‘liq. Dastlabki davrlarda reklama oddiy yozuvlar va tasvirlar shaklida mavjud bo‘lgan bo‘lsa, hozirda reklama raqamli texnologiyalar va internetning ta’siri ostida global miqyosda amalga oshirilmoqda.

Reklama faoliyatining asosiy yo‘nalishlari tashkilot yoki brendning maqsadlariga, auditoriyasiga va bozor sharoitlariga qarab farqlanadi. Har bir yo‘nalish o‘zining alohida strategiyasiga, usullariga va kommunikatsiya kanallariga ega bo‘lib, reklama samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Reklama joylashtirish kanallari turli xususiyatlarga ega bo‘lib, ularning har biri reklamaning auditoriyasiga, maqsadiga va samaradorligiga qarab tanlanadi. Quyida matbuot, televideniye, internet, radio, mobil aloqa va tashqi reklama kanallarining xususiyatlari xususida so‘z yuritamiz.

Matbuot (gazeta va jurnallar) reklamalari qog‘ozda, bosma shaklda bo‘lib, nashrlar va jurnallar orqali tarqatiladi. Matbuotning o‘zi ham ma’lum bir maqsadli auditoriyaga yo‘naltirilgan bo‘lib, o‘qish uchun vaqt ajratgan, ma’lum bir soha yoki mavzu bilan qiziqadigan kishilarga mo‘ljallangan bo‘ladi. Gazetalar va jurnallar reklama joylash uchun batafsil ma’lumot berish imkoniyatiga ega. Bu reklama uchun keng matnlar, tasvirlar va grafikalardan foydalanishga imkon beradi. Gazeta va jurnallar har kuni yoki haftada bir necha marta yangilanadi. Ammo bu, o‘z navbatida, reklamaning amal qilish muddatining qisqa bo‘lishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Gazeta va jurnallardagi reklamalar bosma shaklda bo‘lsa-da, ularning o‘ziga xos jihatlari mavjud. Jumladan, gazetalar keng omma uchun mo‘ljallangan bo‘lib, kundalik yangiliklar va ijtimoiy voqealarni o‘z ichiga oladi. Ular o‘quvchilarga yangiliklar va axborotni tezda yetkazadi, ammo reklama qisqa vaqt davomida samarali bo‘lishi

mumkin. Gazetalarda, asosan, yangiliklar, ijtimoiy va iqtisodiy mavzularga e’tibor qaratiladi.

Jurnallar odatda ma’lum bir soha yoki mavzuga bag‘ishlanadi, masalan, moda, biznes, sog‘liq, texnologiya, fan, ta’lim va hokazo. Jurnal reklamalari maxsus, ya’ni o‘quvchilarning qiziqishlariga mos bo‘lgan auditoriyani maqsad qiladi. Ularning reklama davomiyligi va samaradorligi nisbatan uzoqroq bo‘lishi mumkin.

Televideniye reklamasi. Televideniye orqali berilayotgan reklamalar keng auditoriyaga, jumladan, uyda vaqt o‘tkazayotgan barcha yoshdagi insonlarga yetib boradi. Televizion reklamalarning o‘ziga xos tomoni bunday reklamalar audiovizual vosita orqali amalga oshiriladi, ya'ni ko‘rish va eshitish orqali ma'lumot beriladi. Bu reklama turi juda samarali, chunki u ko‘z va quloqni bir vaqtning o‘zida jalb qila oladi. Televideniyedagi reklamani vaqt orqali boshqarish, kuniga necha marotaba efirga uzatilishini nazorat qilish mumkin. Televizion reklamalardagi yana bir muhim jihat ular dastur vaqtiga qarab reklama joylashishi uchun moslashuvni talab qiladi.

Internet reklama. Bu turdagi reklamalar o‘zining interaktivligi bilan ajralib turadi. Reklama foydalanuvchi bilan o‘zaro aloqaga kirishishi mumkin, masalan, bannerlar, pop-up reklamalari, video reklamalari va ijtimoiy tarmoqlardagi postlar.

Internet orqali reklama berish reklamaning maqsadli auditoriyaga to‘g‘ridan to‘g‘ri yetib borishiga imkon beradi, chunki reklamalar internet orqali foydalanuvchining onlayn xatti-harakatlari va qiziqishlariga asoslangan holda taqdim etiladi. Internetda reklama samaradorligini tezda o‘lchash mumkin. Reklama kampaniyasining muvaffaqiyatini, masalan, bosishlar, ko‘rishlar va konversiyalar orqali tezda tahlil qilish imkoniyati ham mavjud bo‘lib, bu reklama samaradorligini oshirish, shu bilan birga, keyingi strategiyani belgilab olish uchun muhimdir.

Radio reklama. Bu turdagi reklamalar eshitish orqali amalga oshiriladi, radio orqali reklama juda keng auditoriyaga yetib boradi, chunki odamlar radio eshitib, ishlashi yoki sayohat qilishi mumkin. Radio reklamalari odatda qisqa, aniq va tushunarli bo‘lishi kerak. Ushbu reklama turi ko‘pincha yangiliklar, musiqa va boshqa qisqa dasturlar orasida joylashtiriladi.

Mobil reklama. Mobil telefonlar yoki planshetlar ekranida ko‘rsatiladi, bu esa reklama joylashuvi va dizaynini moslashtirishni talab qiladi. Mobil reklama foydalanuvchining hududiy joylashuvi yoki qidiruv tarixiga asoslangan bo‘lishi mumkin, shuningdek, push xabarnomalar orqali foydalanuvchilarni jalb qilish imkoniyati mavjud. Mobil reklamalar orqali foydalanuvchi tezkor javob berishi mumkin, masalan, mahsulotni sotib olish, xizmatga obuna bo‘lish yoki ilova orqali harakat qilish.

Tashqi reklama (billboard, bannerlar, plakatlar). Tashqi reklama katta plakatlar, bannerlar yoki bilbordlar orqali amalga oshiriladi va ular ochiq maydonlarda joylashadi, shuning uchun keng auditoriyaga yetib boradi. Tashqi reklama juda qisqa va aniq bo‘lishi kerak, chunki odamlar ko‘pincha bir tashqi reklamadan ikkinchisiga tezlik bilan o‘tadilar. Shuning uchun reklamada aniq va yodda qoladigan ma’lumot berish zarur**.**

XULOSA. Xullas, reklama kanallari turli xususiyatlarga ega va har biri o‘zining auditoriyasi, samaradorligi va kommunikatsiya usuliga ko‘ra ajralib turadi. Matbuot

(gazeta va jurnallar) uzoq muddatga mo‘ljallangan, shuningdek, to‘liq ma'lumot berishga qulay bo‘lsa, televideniye va radio keng auditoriyaga tezda yetib borishi bilan ahamiyatlidir. Internet esa interaktiv va maqsadli reklama berish imkoniyatini taqdim etadi**,** mobil aloqa esa foydalanuvchi bilan yaqindan aloqada bo‘lish imkonini beradi. Tashqi reklama esa ko‘p odamlarning e’tiborini jalb qilish uchun samarali bo‘ladi. Har bir kanalning o‘ziga xos afzalliklari va cheklovlari bor, shuning uchun reklama strategiyasini tanlashda bu jihatlarni hisobga olish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Тангейт М. Всемирная история рекламы. Пер. с англ. — 3-е изд. — М.: Альпина Паблишер, 2016. С. –20.
2. Leech G. English in Advertising: A linguistic Study of Advertising in Great Britain. L.: Longman, 1966. 270 p.;
3. Ривз Р. Слова в рекламе. – М., 1973. – 110 с.;
4. Flader D. Pragmatische Aspekte von Werbung // Nusser P. Anzei-genwerbung. Miinchen: Wilhelm Fink, 1975. pp. 110-135.
5. Кохтев Н.Н. Язык рекламных текстов. – М., 1981. – 128 с.;
6. Dyer G. Advertising As Communication. London: Methuem, 1982.218 p.;
7. Vestergaard T., Schrader K. The Language of Advertising. Oxford: Blackwell, 1985. 182 p.;
8. Goddard A. The Language of Advertising. L.; N.Y.: Routhledge, 1998. 134 p.;
9. Репев А.П. Язык рекламы. – М.: МГУ, 2008. – 165 с.
10. Schudson M. Advertising, The Uneasy Persuasion. It's dubious impact in Am. Society. N.Y.: Routhledge, 1993. 873 p.;
11. Chiniqulov N.J. Peshlavhalarning lisoniy xususiyatlari. Monografiya. – T.: «Navoiy universiteti» nashriyot matbaa uyi, 2019. – 108 b.;
12. Абдуллаев Б.Х. Ўзбек реклама лингвистикаси: назария ва амалиёт: Филол. фан. бўй. фалс. доктори дисс. автореф. – Андижон, 2020. – 65 б.

JAHON VA O‘ZBEK OLIMLARINING AREALINGVISTIKA FANI SHAKLLANISHIGA QO‘SHGAN HISSASI

Yoqubov Sodiqjon,
Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Arealingvistikaning fan sifatida shakllanishi, zamonaviy qiyosiy tilshunoslikning asosiy tarmoqlaridan biri hisoblangani, arealingvistika fanining shakllanishida jahon va o‘zbek olimlarining qo‘shgan hissasi haqida ma’lumotlar berilgan. Ayni paytda o‘zbek shevalari va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini arealingvistik tadqiqotlarning nazariy asoslariga tayanib, tarixiy-qiyosiy va etnolisoniy jihatdan tadqiq etish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etilgan.

Kalit so‘zlar: Arel-tipologiya, til shajaralari, til ittifoqlari, neolingvistika, izoglossa, areal kartalar, arealogiya, dialektologik atlaslar

Аннотация. В данной статье представлены сведения о становлении ареалингвистики как науки, о том, что она считается одной из основных отраслей современного сравнительного языкознания, о вкладе мировых и узбекских ученых в становление науки ареалингвистики. На данный момент историко-сравнительное и этнолингвистическое исследование узбекских диалектов и их особенностей на основе теоретических основ ареалингвистических исследований является одним из приоритетных направлений. признан одним.

Ключевые слова: ареальная типология, языковые семьи, языковые союзы, неолингвистика, изоглосса, ареальные карты, ареология, диалектологические атласы.

Abstract. This article provides information about the formation of Arealinguistics as a science, the fact that it is considered one of the main branches of modern comparative linguistics, the contribution of world and Uzbek scientists to the formation of the science of Arealinguistics. At the moment, historical-comparative and ethnolinguistic research of Uzbek dialects and their specific features based on the theoretical foundations of arealinguistic research is one of the priorities recognized as one.

Key words: areal-typology, language families, language unions, neolinguistics, isoglossa, areal maps, areology, dialectological atlases

KIRISH. Jahon tilshunosligida tilni areal-tipologik va areallingvistik metodlar orqali o‘rganish, har qanday lingvistik nazariya va konsepsiyalarning boshlang‘ich nuqtasi bo‘lgan shevalarni, ularning o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish muhim masalalardan biriga aylanib bormoqda. Areal lingvistikaning paydo bo‘lishida dialektologiya sohasidagi turg‘un hisoblangan ayrim jihatlarni, dialekt va shevalar mohiyati, xususiyatlari, o‘zaro aloqalari, ularning tasnifi, tavsifi masalasidagi tushunchalarni yangicha baholashga, yangicha usullarda hal qilishga keng yo‘l ochmoqa. Dunyo tilshunosligida areal tilshunoslik ko‘p qirrali sohalardan biri sifatida shakllanmoqda. Chunki arealogiya italyan neolingvistlari, jahon lingvogeograflari hamda tillar ittifoqi yo‘nalishi vakili bo‘lgan tilshunoslarning amalga oshirgan tadqiqotlarini o‘zida mujassamlashtirmoqda. Olib borilayotgan tadqiqotlar asosida areal

lingvistik konsepsiyalarning tadrijiy taraqqiyotini analiz va sintez qilish natijasida dialektlarni umumiy tilshunoslikning bir aspekti sifatida o‘rganish maqsadga muvofiq ekanligi o‘z isbotini topmoqda. Dialektlarni arealogik tamoyillar va lingvistik tadqiqot metodlari asosida o‘rganish muhim muammo sifatida qo‘yilmoqda. Binobarin, til sistemasini yaxlit o‘rganishda dialekt va sheva areallarini tadqiq etish katta ahamiyatga ega (Darveshov I, 2019. 3). Bugungi kunda jamiyatimiz rivojlanishi uchun olib borilayotgan islohotlarni amalga oshirishda o‘zbek tilshunosligi oldiga qo‘yilayotgan vazifalarni bajarishga to‘liq imkoniyat va shart-sharoitlar yaratilib, tilimizni har tomonlama o‘rganish masalasiga bag‘ishlangan maqsadli ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ayni paytda o‘zbek shevalari va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini areal lingvistik tadqiqotlarning nazariy asoslariga tayanib, tarixiy-qiyosiy va etnolisoniy jihatdan tadqiq etish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan. Sohaning nomukammal, oddiy tavsifiy va tasviriy jihatlardan iborat noaniq o‘rinlarni yangicha qarashlar asosida, mental nuqtai nazaridan o‘rganish va to‘ldirishga zarurat sezilmoqda. Zero, “...bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovasion rivojlanish yo‘liga o‘tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g‘oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi” (Ш. Мирзиёев, 2018. 23).

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

“Areal lingvistika” fani zamonaviy qiyosiy tilshunoslik sohasining asosiy yo‘nalishlaridan biri sanaladi. Ushbu soha bugungi kunda ham ilmiy, ham amaliy jihatdan jadal rivojlanib bormoqda. Bu fanni o‘rganishni uning tilshunoslik fanlari orasida tutgan o‘rni, shuningdek, uning qanday fan ekanligini belgilab olishdan boshlash maqsadga muvofiqdir.

Mazkur yo‘nalish qiyosiy tilshunoslikning asosiy tarmoqlaridan bo‘lsa ham, bu sohada ancha sezilarli ishlar amalga oshirilayotgan bo‘lishiga qaramay, tilshunoslikda “areal lingvistika” tushunchasini qanday talqin qilish borasida aniq bir to‘xtamga kelingan emas (Гуров Н.В., Зограф А. «Ареальное языкознание: предмет и метод на материале языков Южной Азии).Shuningdek, xuddi ana shu sohaga taalluqli bo‘lgan “lingvistik geografiya”(lingvogeografiya) va “arealogiya”, “dialektografiya” terminlari talqini masalasida ham muayyan munozaralar mavjud.

Mantiqan olib qaraganda, mazkur ikki termin ko‘p jihatdan bir-biriga mos kelib qoladi. Chunki, “lingvistika” ko‘p hollarda “tilshunoslik” deya talqin qilinadi. Bu nuqtayi nazardan olib qaraganda, “areal lingvistika” va “areal tilshunoslik” bir xil ma’no talqiniga ega bo‘lishi mumkin. Biroq ayrim adabiyotlarda “areal lingvistika”, asosan, dialektologik yo‘nalishda ish ko‘ruvchi tilshunoslik sohasi, “areal tilshunoslik” esa turli o‘lkalarda (mamlakatlar, regionlarda) tilshunoslik fanining taraqqiyoti masalalari bilan shug‘ullanuvchi soha sifatida qaraladi.

Bugungi kunda mavjud ilmiy adabiyotlarda “areal lingvistika”ni “hududiy lingvistika” deya talqin qilinayotgan o‘rinlar ham mavjud. Unga mos keladigan yana bir yo‘nalish “lingvistik geografiya” atamasi ham qo‘llaniladi. Mazkur ikki tushuncha ham mazmun va mantiqiylik jihatidan bir-biriga mos kelsa ham, ayrim lingvistik terminlar lug‘atida ularni farqli terminlar sifatida ham qarash o‘rinlari kuzatiladi.

Jumladan, O.S.Axmanova tomonidan tayyorlangan “Lingvistik terminlar lug‘atida” “areal lingvistika”ni hududiy tilshunoslik, “lingvistik geografiya” esa “dialektografiya” deya talqin qilinadi.

Biz ushbu maqolamizda “areal lingvistika” terminining nomlanishi borasida mulohaza yuritadigan bo‘lsak, uning asosida: lotincha “area” – maydon, hudud hamda “lingvistika” – tilshunoslik ma’nosidagi atamalar yotganligini qayd qilishimiz mumkin.

Ko‘pgina olimlar (B.A.Serebrennikov, A.V.Desnitskaya) “areal lingvistika” terminidan butunlay voz kechishni va uning o‘rniga “lingvistik geografiya” atamasini qo‘llashni taklif qiladilar. Bizningcha, bu ikki teminni bir-biridan farqli ravishda qo‘llash maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz. Ular o‘zaro yaqin tushunchalar bo‘lsa ham, “lingvistik geografiya”ni shevalarni xaritalashtirish metodi sifatida, “areal lingvistika”ni esa tillar, dialekt va lahjalarni lingvistik geografiya metodiga tayangan holda ularning tarqalishi jihatdan kengroq o‘rganuvchi va tadqiq qiluvchi fan sifatida qaralishini ma’qul deb hisoblaymiz.

Tadqiqot metodologiyasi. Adabiy til va sheva, shevalarimizning tarqalishi, ularni o‘rganishda lingvogeografiya metodidan foydalana olish nuqtayi nazaridan sheva materiallarini tahlil qilishga doir muayyan bilimga ega bo‘lish va ularni amaliyotda tatbiq etish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon bevosita amaliy va ilmiy, ma’naviy-ma’rifiy sohalarda amaliy jihatdan alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada bu tadqiqotlar yanada o‘z aksini topgan.

Rossiyalik olimlar N.Gurov va A.Zograflarning ta’kidlashicha, “areal tilshunoslik” bevosita bir-biriga ta’sir qilgan, munosabatga kirishgan tillarni, tillararo aloqalarni o‘rgansa, “areal lingvistika” nafaqat o‘zaro munosabatga kirishgan tillarni, balki sheva va lahjalarni o‘rganishni ham qamrab olishi bilan farqlanadi.

Tahlil va natija. Areal lingvistika fanining asoschisi sifatida nemis olimi I.Shmidt nomi tilga olinadi. Uning “Hind-yevropa tillarining qarindoshligi” monografiyasida (1872) birinchi marta “areal lingvistika” haqida fikr yuritiladi. I.Shmidt o‘sha asarida A.Shleyxerning “til shajaralari” g‘oyasiga qarshi munosabat bildirgan edi.

Areal lingvistikaning keyingi taraqqiyoti dialektologik atlaslarning yaratilishi bilan bog‘liq holda nemis olimi G.Venker (1881), fransuz olimlari J.Jilyeron va E.Edmon (1902-1910) hamda boshqa ko‘plagan tilshunoslar nomlari bilan bog‘liq.

«Areal lingvistika» termini ostida, odatda, quyidagi olimlarning faoliyati va ilmiy izlanishlari nazarda tutiladi: Italiya tilshunosligiga taalluqli neolingvistik ta’limotning bir qanoti vakillari: M.Bartoli, Dj.Bonfante, B.Terrachini, Dj.Devoto va boshqalar; lingvistik geografiya yo‘nalishida: Y^{e}.Koseriu, D.I.Edelman, B.A.Serebrennikov, N.Z.Gadjieva va boshqalar; til ittifoqlari haqidagi ta’limot bo‘yicha: V.Vinter, M.Emene, I.Balaj, Y^{u}.S.Maslov va boshqalar; dialektologiya, lingvistik geografiya va arxeologiya fanlarining tadrijiy rivoji bo‘yicha M.A.Borodina va uning shogirdlari tomonidan ilgari surilgan g‘oyalarga tayaniladi.

M.A.Borodina lingvistik geografiya va areal lingvistika tushunchalarini farqlashni taklif etadi. U lingvistik geografiyani “lingvistik atlaslar tuzish amaliyoti” sifatida va areal lingvistikani esa “areallar teoriyasi” (arealogiya) sifatida qarash to‘g‘ri deya ta’kidlaydi.

D.I.Edelman ham areal lingvistikani hozirgi tillarning yoyilish hodisasini qadimgi areallar asosida o‘rganuvchi soha sifatida talqin qiladi.

B.A.Serebrennikov esa “areal lingvistika” atamasidan butunlay voz kechishni taklif qiladi. Uning o‘rniga “lingvistik geografiya” atamasini qo‘llash lozim deya ta’kidlaydi.

Ana shu qarashlardan ham ma’lum bo‘ladiki, zamonaviy tilshunoslikda fanning nomi borasida turli qarama qarshiliklar mavjud. Ammo o‘zbek tilshunosligida mazkur terminlarni alohida-alohida tushunchalarni ifodalashi belgilab olingan. “Lingvistik geografiya” “areal lingvistika” fanining ish ko‘rish metodi sifatida qaraladi.

Har qanday fanning tadrijiy – evolyusion tarzda rivojlanishi yangilik emas. Sharqda turkologiya, ayniqsa, dialektologiyaga XI asrdayoq Mahmud Koshg‘ariy(Кошғарий Маҳмуд. Девону луғат-ит турк. Тарж. ва нашрга тайёрловчи С.Муталлибов,1960-1963), keyinchalik, Alisher Navoiy (А. Навоий. Муҳокамат-ул луғатайн. Тўла асарлар тўплами. 16-т. 1991) tomonidan tamal toshi qo‘yilgan bo‘lsa, hozirda ham biz uchun ularning ilmiy qarashlari o‘zbek tilshunosligining mayog‘i sifatida noyob qo‘llanma hisoblanadi.

O‘zbek dialektologiyasida yirik monografiyalar, dissertatsiyalarning yuzaga kelishi tufayli endilikda shevalarimizni o‘rganishning qiyosiy-tarixiy va tipologik tadqiqotlarning hozirgi zamon aniq va izchil metodlari bilan tekshirish imkoniyati paydo bo‘ldi. Bu hol til hodisalarining hududiy tarqalish chegaralarini aniqlab beruvchi, lingvogeografik metodlar asosida ish ko‘ruvchi “areal lingvistika” fani bo‘yicha ilmiy asosda tekshirishni taqozo qiladi hamda o‘zbek xalq shevalari atlasini yaratish masalasini galdagi vazifa qilib, kun tartibiga qo‘yadi.

“Areal lingvistika” faqat til tarixi va dialektologiya uchungina ahamiyat kasb etib qolmasdan, u xalq tarixi uchun ham juda muhim, chunki hududiy dialektologik ma’lumotlar muhim tarixiy manba hisoblanadi.

O‘zbek tilshunos olimlari Yᵉ.D.Polivanov, G‘.Olim Yunusov, K.K.Yudaxin, A.K.Borovkov, V.V.Reshetov, Sh.Shoabdurahmonov, A.G‘ulomov, S.Ibrohimov, F.Abdullayev, M.Mirzayev, A.Aliyev vblar tomonidan o‘zbek shevalari yuzasidan olib borilgan bir qator ilmiy izlanishlarda o‘zbek dialektologiyasining lingvo-geografik va areal tadqiqotlari uchun manba yaratildi.

O‘zbek dialektlarida umumturkiy izoglossalar mavjudligini dastlab 1930-yillardayoq, Y.D.Polivanov ko‘rsatib o‘tgan edi. 1944-yilda professor A.K.Borovkov tomonidan «O‘zbek sheva-lahjalarini tekshirishga doir savol-javoblar» anketasi tuzildi.

Professor V.V.Reshetov o‘zbek shevalari dialektologik atlasi tuzish tamoyillarini belgilab, qurama o‘zbek shevalarining 49 ta areal kartasini tuzgan.

Bu O‘zbek dialektologiyasida birinchi lingvistik xaritasi hisoblanadi. Lekin bu xaritalar hozirgacha nashr qilinmagan(Shermatov A. 1981. 4).

Professor M. Mirzayev 1955-yilda «Buxoro viloyatidagi o‘zbek shevalarini o‘rganish uchun anketa» tuzib, ko‘pgina ilmiy muassasa va viloyatlarga tarqatgan edi.

Filolologiya fanlari doktori A.Aliyev 1964-yilda «Namangan dialekti bo‘yicha material to‘plovchilar uchun anketa» chop ettirdi.

O‘zFA A.Navoiy nomli Til va adabiyot institutining o‘zbek dialektologiyasi bo‘limida O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining haqiqiy a’zosi Sh.Shoabdurahmonov boshchiligida Toshkent viloyati shevalari atlasi tuzilgan. Bu tadqiqotlar sezilarli tartibda davom ettirilgan holda 1970-yillarda quyi Qashqadaryo shevalari atlasi yaratildi.

O‘zbek tilini keyingi yillarda areal nuqtai nazardan o‘rganishda A.Shermatov(Shermatov A. Lingvistik geografiya nima? – Toshkent: Fan, 1981.), Q.Muhammadjonov(Муҳаммаджонов Қ. Ареальное исследование узбекских говоров южного Казагистана: Автореф. дисс. ...докт. фил. наук. – Ташкент, 1988; Жанубий Қозоғистондаги ўзбек шевалари. Тошкент: Фан, 1981), A.Jo‘rayev (ДжураевА.Б.Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива), Yu.Ibragimov(Ibragimov Y. M. Janubiy Orolbo‘yi o‘zbek shevalari tadqiqi, T..2000.), N.Murodova(Murodova N.Q. Navoiy viloyati shevalarining lingvoareal tadqiqi. T., Fan. 2006), I. Darveshov(Darveshov I. Areal tilshunoslik:Janubi g‘arbiy namangan shevalarining fonetik-fonologik xususiyatlari. –Namangan.2019) S.Ashurboyev (Ashurboyev S. Areal lingvistikada innovatsiya muammosi. // O‘zbek tilini dunyo miqyosida keng targ‘ib qilish bo‘yicha hamkorlik istiqbollari. Konfrensiya materiallari. 2020. Lingvistik areal va uning tiplari talqiniga doir. // Buyuk ipak yo‘lida umuminsoniy va milliy qadriyatlar: til, ta’lim va milliy qadriyatlar. Konferensiya materiallari. 2020) larning ilmiy taqdqiqotlarining ahamyati kattadir. Qolaversa o‘zbek tilini areal o‘rganilishining nazariy asoslarini batafsil yoritib bergan professor A.B.Jo‘rayevning xizmatlari alohida e’tiborga loyiq. A.Shermatovning lingvogeografiyaga, A.B.Jo‘rayev va N.Murodovalarning areal lingvistikaga doir tadqiqotlarining dunyoga kelishi o‘zbek tilshunosligining katta yutug‘i ekanligini aytib o`tishimiz zarur.

Xususan 2024-yilda Navoiyda Nigora Murodova boshchiligidagi olimlar tomonidan Navoiy viloyati dialektologik atlasi (N.Murodova “O‘zbek tili Navoiy viloyati dialektologik atlasi” Navoiy 2024. “Yoshlar matbuoti” MCHJ da tayyorlangan) yaratildi. Yuqorida amalga oshirilgan tadqiqotlar arealingvistika fani rivojlanishida ulkan qadam hisoblanadi.

Hozirgi kunga qadar ilmiy ijodiy guruh a’zolari tomonidan shevalarni tavsiflash sohasidagi dialektologik izlanishlarning butun taraqqiyoti davomida tadqiq etilgan dialektologik materiallar O‘zbek tili milliy qadriyatlarining atlasini yaratishda faktik material bo‘lib xizmat qiladi. Bunday atlaslar esa xalqimizning tarixini, tilini o‘rganish uchun manba hisoblanadi. Ushbu loyihani amalga oshirishda quyidagi vazifalar rejalashtirilgan:

- o‘zbek xalq shevalarini areal yo‘nalishda o‘rganib, xaritalar yaratish;
- o‘zbek xalq shevalari etnografik leksikasini chuqur o‘rganish;
- xalq og‘zaki ijodi bo‘yicha faktik materiallar to‘plash;
- o‘zbek xalq shevalarining o‘zbek adabiy tili va tarixi boshqa o‘zbek shevalari, ayniqsa, xududiy jihatdan yondosh bo‘lgan o‘zbek shevalari, shuningdek, qardosh turkiy tillar shevalariga munosabati, o‘zaro ta’siri kabi masalalarini yoritish;
- o‘zbek shevalariga noqardosh tillarning ta’sirini o‘rganish;

- tahlil qilinadigan shevalar, ularning vujudga kelishi va rivojlanishi tarixini kuzatish hamda bunday muhim leksik-semantik hususiyatlarni o‘rganib, ularni xaritalashtirish shu asosda darslik va qo‘llanmalar yaratish;
- Xalqaro va Respublika ilmiy-amaliy anjumanlari o‘tkazish;
- o‘zbek shevalarining lug‘aviy-ma’noviy kategoriyalarini tadqiq qilish va ulardagi muhim semantik qonuniyatlarni kuzatish;
- o‘zbek shevalari bo‘yicha to‘plangan sheva materiallari asosida ularning areal tarqalishini belgilash hamda ularni haritalashtirish;
- ko‘p tomli o‘zbek shevalarining izohli lug‘atlari, etnografik, terminologik lug‘atlar yaratish.

Xulosa va takliflar. Ko‘pgina turkiy tillar shevalarining lingvo-geografik va areal tadqiqoti ustida ilmiy tekshirish ishlari muvaffaqiyatli olib borilmoqda. Ammo hanuzgacha mukammal tarzdagi o`zbek shevalarining dialektologik atlasi yaratilmadi.

Bu esa o‘z navbatida o‘zbek shevalari dialektologik atlaslarining yaratilishini zamon talabiga aylantirmoqda. Bugungi kun tilshunoslari, dalektologlari, areolingvistlarining amalga oshirishi lozim bo‘lgan bosh masalasi deb o‘ylayman. Yuqorida keltirilgan manbalar Respublikamizdagi turkiy tillar dialektal atlasini takomillashtirish uchun qimmatli material bo‘lishi shubhasizdir. Shu bilan birga, turkiy tillar hozirgi dialektlarining areal kartalari ayrim hollarda u yoki bu tilning qadimgi dialektal bo‘linishini aniqlashda nafaqat muhim, balki yagona manba bo‘lib qolishini ham aytib o‘tishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Shermatov A. Lingvistik geografiya nima? O‘qituvchi, T.: 1972, 5 b.
2. Гаджиева Н.З. Проблемы тюркской ареальной лингвистики. Среднеазиатский ареал. М., Наука. 1975. 302 стр.
3. Джураев А. Теоретические основы ареального исследования узбекогоязычного массива. Т., Фан. 1991. 220 стр.
4. Murodova N. O‘zbek tili Navoiy viloyati shevalarining lingvoareal tadqiqi. T., Fan. 2006. 220 b.
5. Darvishov I. Areal tilshunoslik: janubi-g‘arbiy Namangan shevalarining fonetik-fonologik xususiyatlari /monografiya/ T.: “NAVRO‘Z”, 2019. – 148 b.
6. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Akademnashr, 2-jild, 2012.
7. Джураев А.Б. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива. – Ташкент: Фан, 1991.
8. Муҳаммаджонов Қ. Ареальное исследование узбекских говоров южного Казагистана: Автореф. дисс. ...докт. фил. наук. – Ташкент, 1988; Жанубий Қозоғистондаги ўзбек шевалари. Тошкент: Фан, 1981.
9. Koshg‘ariy Mahmud. Devonu lug‘otit turk. I . – Toshkent, 1960. – B.69.
10. Shoabdurahmonov Sh. O‘zbek adabiy tili va xalq shevalari. – Toshkent: Fan, 1962.
11. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi.- T.: Navro‘z nashriyoti.2016.

DINIY-MENTAL KONSEPTLARNING TO‘QQIZ KATAKLI MATRITSASI: UMUMIY VA MILLIY BELGILAR QAYSI ZONADA TO‘PLANADI? (INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI "RUH / SOUL" VA "IYMON / FAITH" MISOLIDA)

Mamatkulova Saidaxon
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
Andijon davlat chet tillari instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi "Ruh / Soul" va "Iymon / Faith" konseptlarining belgilari uch komponent (tushunchaviy, obrazli, qadriyatli) va uch zona (yadro, yaqin periferiya, uzoq periferiya) kesishmasidagi to‘qqiz katak bo‘yicha qayta ko‘rib chiqiladi. Maqsad ikki til qaysi kataklarda mos kelishini, qaysilarida ajralishini va bu ajralish yadroda yoki periferiyada turishini aniqlashdir. Material izohli, frazeologik va paremiologik lug‘atlardan hamda ikki badiiy to‘plamdan olingan 48 birlikdir. Belgilar yagona leksikallashuv mezoni bilan baholandi, qo‘shma belgilar ikki xil sanoq qoidasida hisoblandi. Natijaga ko‘ra izomorflik tushunchaviy yadroda to‘planadi, yaqin periferiyadagi allomorflik esa sanoq qoidasiga sezgir bo‘lib, qat’iy qoidada 19, yumshoq qoidada 8 birlikni beradi. Xulosa qilinadiki, diniy-mental konseptlarda milliy o‘ziga xoslik yadroda emas, periferiyaning qadriyatli qatlamida barqaror ko‘rinadi.

Kalit so‘zlar: diniy-mental konsept; to‘qqiz katakli matritsa; yadro va periferiya; izomorfizm; allomorfizm; lakuna nomzodi; sanoq qoidasi; qadriyatli komponent.

Аннотация. В статье признаки концептов "Ruh / Soul" и "Iymon / Faith" в английском и узбекском языках рассматриваются по девяти клеткам, образованным пересечением трёх компонентов (понятийного, образного, ценностного) и трёх зон (ядра, ближней и дальней периферии). Цель состоит в том, чтобы установить, в каких клетках два языка совпадают, в каких расходятся и находится ли расхождение в ядре или на периферии. Материалом послужили 48 единиц из толковых, фразеологических и паремиологических словарей и двух художественных подкорпусов. Признаки оценивались по единому критерию лексикализации, составные пометы подсчитывались по двум правилам. Изоморфизм сосредоточен в понятийном ядре, а алломорфизм ближней периферии чувствителен к правилу подсчёта и даёт 19 единиц при строгом и 8 при мягком правиле. Сделан вывод, что национальная специфика религиозно-ментальных концептов устойчиво проявляется не в ядре, а в ценностном слое периферии.

Ключевые слова: религиозно-ментальный концепт; девятиклеточная матрица; ядро и периферия; изоморфизм; алломорфизм; кандидат в лакуны; правило подсчёта; ценностный компонент.

Abstract. The article re-examines the features of the concepts "Ruh / Soul" and "Iymon / Faith" in English and Uzbek across the nine cells formed by three components (notional, figurative, evaluative) and three zones (core, near periphery, far periphery). The aim is to determine in which cells the two languages coincide, in which they diverge, and whether the divergence lies in the core or in the periphery. The material consists of 48 units drawn from explanatory, phraseological and paremiological dictionaries and two fiction subcorpora. Features were assessed by a single lexicalisation criterion, and combined labels were counted under two rules. Isomorphism clusters in the notional core, whereas allomorphism in the near periphery is sensitive to the counting rule, yielding 19 units under the strict rule and 8 under the lenient one. It is concluded that the national specificity of religious-mental concepts appears stably not in the core but in the evaluative layer of the periphery.

Keywords: religious-mental concept; nine-cell matrix; core and periphery; isomorphism; allomorphism; lacuna candidate; counting rule; evaluative component.

KIRISH

Ruh va iymon haqidagi tasavvurlar dunyo dinlarining umumiy merosiga tayanadi. Shu sababli ularni qiyoslagan tadqiqotchi oldida doim bir savol turadi. Ikki tildagi o‘xshashlik umuminsoniy diniy tajribadan keladimi, farq esa milliy madaniyatga tegishlimi, yoki bu ikki qatlam konsept tuzilishida aralashib ketganmi? Taassurotga tayangan javobni esa tekshirib bo‘lmaydi. Tekshiriladigan javob uchun konsept belgilarini qayerda turganiga qarab joylashtiradigan va har bir joyda sanash imkonini beradigan tuzilma kerak.

Tadqiqotda shunday tuzilma sifatida to‘qqiz katakli matritsa qo‘llandi. Uning qatorlari konseptning tushunchaviy, obrazli va qadriyatli komponentlari, ustunlari esa yadro, yaqin va uzoq periferiyadir. “Ruh / Soul” va “Iymon / Faith” konseptlari bo‘yicha jami 48 birlik matritsaga tushdi. Umumiy sanoq ma’lum, unda 14 izomorf, 22 allomorf, 9 lakuna nomzodi va 3 ochiq birlik bor. Biroq umumiy raqam savolning faqat yarmiga javob beradi. U qaysi katak qaysi turdagi belgi bilan to‘lganini, milliy xoslik konsept markazidami yoki chetidami ekanini ko‘rsatmaydi. Bundan tashqari, umumiy nisbat qo‘shma belgilarni qanday sanashga bog‘liq. Qoida yumshatilsa, 14 va 22 o‘rnida 26 va 10 hosil bo‘ladi. Bu tebranish kataklarga qanday taqsimlanishi hali ko‘rsatilmagan.

Maqolaning maqsadi matritsani katakma-katak o‘qish va sanoq qoidasining ta’sirini zonalar bo‘yicha tekshirishdir. Tadqiqot savoli quyidagicha. Diniy-mental konseptlarda ikki til matritsaning qaysi kataklarida mos keladi va qaysilarida ajraladi, ajralish esa yadroda yoki periferiyada joylashadimi va bu xulosa sanoq qoidasi o‘zgarganda saqlanib qoladimi?

ADABIYOTLAR TAHLILI

Matritsaning qatorlari V. I. Karasik modelidan olingan. Olim madaniy konseptni qadriyatli, obrazli va tushunchaviy tomonlarga ajratiladigan ko‘p o‘lchovli hosila deb ta’riflaydi [1, c. 129]. Uning modeli komponentlarni vazifasiga ko‘ra ajratadi va lisoniy manzaraning ontologik xususiyatlari, jumladan notekis konseptuallashuv bilan bog‘lanadi [1, c. 129–130]. Biroq model qaysi komponent markazda, qaysi biri chekkada turishini aytmaydi. Bu bo‘shliqni maydon yondashuvi to‘ldiradi. Z. D. Popova va I. A. Sterninning nominativ maydon talqinida konseptni bevosita nomlaydigan birliklar yadroni, bilvosita ifodalaydiganlari periferiyani egallaydi [2, c. 47–48]. Yu. Sh. Nurmuhammedov yadroni markaz va qobiqqa, periferiyani yaqin, uzoq va eng uzoq yaruslarga bo‘ladi hamda konseptning qat’iy chegarasi yo‘qligini ta’kidlaydi [3, б. 40–41]. Yu. G. Kokorina konseptual maydonni hajmli, to‘yinganligi bilan farqlanadigan konsentrik tuzilma sifatida tasvirlaydi [4, c. 182–183]. Bundan turli konseptlarda yadro zichligi har xil bo‘lishi kelib chiqadi.

Qiyosning kutiladigan natijasini ham Popova va Sternin aniq belgilagan. Ikki konseptosferani solishtirish umuminsoniy komponentni ham, milliy xoslikni ham ochadi, ayrim konseptlar esa, masalan makon va vaqt, milliy yuklamani kam tashiydi [2, c. 25, 27]. Mualliflar tavsifga mos keladigan, farq qiladigan va endemik birliklarni hamda lakunalarni birga kiritishni talab qiladi [2, c. 44, 45–46]. Matritsadagi to‘rt belgi turi aynan shu talabga javob beradi.

Diniy materialda universal va milliy qatlamni ajratish masalasi V. A. Maslova ishida ochiq qo‘yilgan. Uning fikricha, til madaniy kodlarni shakllantiradi [5, c. 27], birlikning qaysi kod bilan bog‘lanishi esa uning madaniy-milliy konnotatsiyasini belgilaydi [5, c. 56]. Maslova V. N. Teliya Bibliyadagi umuminsoniy axborotni ham lingvokulturologiyaga kiritganini qayd etadi, o‘z ob’ektini esa yagona etnos va unga qarindosh etnoslarning madaniy axboroti bilan chegaralaydi [5, c. 12]. Matritsa uchun bu farq zonalar o‘lchovi bilan bog‘lanadi. Muqaddas matndan kelgan umumiy qatlam yadroda, xalq nutqida shakllangan qatlam periferiyada kutiladi.

Ruh konsepti bo‘yicha eng yaqin gipotezani L. M. Dzuganova ilgari surgan. Ingliz, rus va kabardin-cherkes materialida u uch tilda ruhning markaziy qismi yaqin, uni talqin qilish doirasi esa tilga qarab o‘zgaradi, deb taxmin qiladi [6, c. 4] va ingliz soul ning sakkiz belgisini, jumladan o‘lmaslik hamda ruh va tana qarama-qarshiligini ajratadi [6, c. 10–13]. E. Slingerland diniy tilni qiyoslashda tana tajribasidagi umumiylik asos bo‘lishini, lekin farq uchun ham joy qolishini yozadi [7, p. 1]. O. Yu. Nuzhdina ingliz soul ni ichki hayotni boshqaruvchi a’zo, insondan tashqaridagi nomoddiy substansiya va Xudo bilan bog‘lovchi bo‘g‘in sifatida tavsiflaydi [8, c. 7], ruscha душа li birikmalarning atigi 10 foizi soul bilan o‘girilishini ham ko‘rsatadi [8, c. 9]. A. Wierzbicka soul va

mind ni etnopsixologiya va madaniyat tarixi nuqtai nazaridan o‘rgangan [9]. Yu. S. Stepanov E. Benvenist talqiniga suyanib, lotincha fides va foedus so‘zlari ortida kuchli va kuchsiz tomon o‘rtasidagi kelishuvni ko‘radi [10, c. 266].

Sharh qilingan ishlarda yadro va periferiya farqi ko‘pincha umumiy gipoteza darajasida qoladi. Uni katak darajasida sanab tekshirish, ayniqsa natija sanoq qoidasiga qanchalik bog‘liqligini o‘lchash, o‘zbek-ingliz juftligida amalga oshirilmagan.

TADQIQOT MATERIALI VA METODLARI

O‘zbek tomonining manbalari izohli lug‘atning ikki jildi [11; 12], Sh. Rahmatullayev tuzgan frazeologik lug‘at [13], “O‘zbek xalq maqollari” [14] hamda H. Berdiyorov va R. Rasulov lug‘ati [15] bo‘ldi. Ingliz birliklari A. V. Kunin lug‘atidan [16], J. Ayto [17] va J. Speake [18] tahrir qilgan Oksford lug‘atlaridan olindi. Nutq dalillari muallif tuzgan ikki badiiy to‘plamdan keltirildi. O‘zbek to‘plami 1 278 225, ingliz to‘plami 1 019 718 so‘zni qamraydi.

Matritsaga uch turdagi birlik kirdi. Ruh freymidan o‘n slot, iymon freymidan o‘n bir slot tushunchaviy komponentni, ruhning yetti modeli (sakkiz qatorda) va iymonning sakkiz modeli obrazli komponentni, to‘qqiz aksiologik o‘q qadriyatli komponentni to‘ldiradi. Iymonning yo‘qotish va sadoqat slotlari ikki qatlamga ajralgani uchun ikki birlikdan hisoblandi. Natijada ruh konsepti 22, iymon konsepti 26 birlik berdi.

Zona belgidan mustaqil ravishda belgilandi, bu esa natijada aylanma mantiq paydo bo‘lishining oldini oladi. Ikki tilning birortasida lug‘at yoki paremiyaga kirmagan, faqat badiiy nutqda yoki bitta yozuvchi metaforasida uchragan birlik uzoq periferiyaga yozildi. Qolgan birliklardan yadroga konsept nomining birinchi lug‘aviy ma’nosini ta’riflovchi qismlar va shu ta’rifdan to‘g‘ridan to‘g‘ri chiqadigan obraz hamda o‘qlar olindi. Ruh uchun bunday ta’rif ruh va jon ning diniy ma’nosidir [11, 119-b.; 12, 400-b.], iymon uchun esa imon ning Xudoga ishonch ma’nosi [11, 237-b.]. Boshqa ma’nolar, frazeologiya va paremiyaga tayangan birliklar yaqin periferiyani tashkil qildi.

Belgilar yagona leksikallashuv mezoni bilan qo‘yildi. Har ikki tilning lug‘ati yoki maqollarida bor belgi izomorf, ikki tilda faqat nutqda uchragani “izomorf (nutq darajasida)”, bir tilda lug‘atda va ikkinchisida faqat nutqda uchragani allomorf hisoblandi. Bir tilda bor, ikkinchisida izlab topilmagan belgi lakuna nomzodi, bir tomoni tekshirilmagani ochiq deb olindi. Model mos kelib, nom, obraz, ob’ekt yoki ifoda farq qilganda qo‘shma belgi qo‘yildi.

Qo‘shma belgilar ikki qoida bilan sanaldi. Qat’iy qoidada tarkibida allomorf qism uchragan har qanday qo‘shma belgi farq sifatida hisoblanadi. Yumshoq qoidada umumiy model, o‘q yoki qadriyat qayd etilgan 12 qo‘shma belgi izomorf deb olinadi. Ikki qoida natijasini kataklar bo‘yicha qiyoslash maqolaning asosiy metodik qadamidir. Eksperiment va korpus ma’lumoti bilan to‘ldirilishi kutilayotgan kataklar sanoqqa kiritilmadi. Assotsiativ eksperiment keyingi bosqichda o‘tkaziladi.

Cheklovlar ham hisobga olindi. O‘zbek maqollari va iboralari OCR matnidan olingan va asl nashr skani bilan solishtirilishi lozim. Lakuna nomzodi atamasi faqat foydalanilgan manbalar doirasidagi yo‘qlikni bildiradi.

NATIJALAR

1. Yadro: umumiy mohiyat va bitta milliy istisno

Ikki matritsaning yadro ustunida 9 birlik bor, shundan beshtasi izomorf, uchtasi allomorf va bittasi lakuna nomzodi. Izomorflikning asosiy qismi tushunchaviy yadroga to‘g‘ri keladi, bu katakdagi 6 birlikning 4 tasi ikki tilda mos. Ruh konseptida ruhning ilohiy manbadan kelishi, tanadan ajralishi va o‘limdan keyin saqlanishi uchala slotda ham ikki tilda lug‘atga kirgan. O‘zbek tilida o‘lim akti *jon bermoq, joni chiqmoq, joni uzilmoq* bilan [11, 119-b.], ingliz tilida *give up the ghost* bilan [17] ifodalanadi, marhumning keyingi holati esa *ruhi pok* va *(God) rest his soul* [17] birliklariga tayanadi. Iymon yadrosida e’tiqod ob’ekti izomorf (*imon keltirmoq* va *place (put) one’s faith in*) [11, 237-b.; 16, c. 260–261].

Yadrodagi allomorflik nomga yoki obrazga tegishli. Iymon yadrosidagi akt sloti o‘zbek tilida konsept nomining o‘zi bilan, ingliz tilida esa boshqa leksema bilan (*get religion*) beriladi [17]. Ruhning tanada joylashuvi ikki tilda juftlik sifatida leksikallashgan, ammo o‘zbek maqolida jon

mehmon (*Jon — tanga mehmon*) [15, 103-b.], H. Melvillening romanida esa ruh tana ichiga qamalgan ("Ahab's soul, shut up in the caved trunk of his body") [19]. Shu obraz obrazli komponentning yadrosiga ham kiradi va u yerda ruhni tananing mehmoni yoki mahbusi deb biladigan model ham allomorf deb baholanadi. Obrazli yadrodagi ikkinchi birlik, FAITH IS AN OBJECT, ikki tilda izomorf.

Yadrodagi yagona lakuna nomzodi qadriyatli qatorda turadi va bu tasodif emas. Izohli lug'at ruh ning birinchi ma'nosini *арвоҳ* so'zi bilan izohlagani uchun [12, 400-b.] ajdodlar ruhi o'qi zona mezoniga ko'ra yadroga kiradi. O'zbek paremiyasida bu o'q faol, *Teng yeganni tangri suyibdi, Ortiq yeganni arvoh uribdi* maqolida arvoh me'yorni buzganni jazolaydi [14, 118-b.]. Ingliz tomonidagi eng yaqin birlik, *Never speak ill of the dead*, marhumning ta'sirini emas, tiriklarning nutq odobini tartibga soladi [18]. Iymonning qadriyatli yadrosi esa bo'sh, matritsada bu katak "mezon bo'yicha birlik yo'q" deb qayd etilgan. Demak, qadriyatli komponent yadroda faqat bitta birlik bilan qatnashadi va u ham milliy belgidir.

2. Yaqin periferiya: farqlarning asosiy maydoni

Yaqin periferiya 31 birlik bilan matritsaning eng to'la zonasi. Qat'iy sanoqda bu yerda 19 allomorf, 6 izomorf va 6 lakuna nomzodi bor. Tushunchaviy katak 15 birlikning 10 tasida allomorf belgi beradi. Ularning ichida sof leksikallashuv farqi ham, qo'shma belgi ham uchraydi. Masalan, ruhiy holat o'zbek tilida ruh bilan, ingliz tilida soul emas, spirits bilan nomlanadi (*high spirits, low spirits*) [16, c. 707]. Qasam sloti ingliz lug'atida ikkala konseptda ham bor (*upon my soul!, by my faith, i' faith*) [16, c. 704, 260–261], o'zbek materialida esa u badiiy nutq bilan cheklanadi.

Obrazli katakdagi 9 birlikning 5 tasi allomorf. Vertikal o'q modeli (GOOD SPIRITS ARE UP), savdo modeli (SOUL IS A COMMODITY), jonlilik holati (SOUL IS LIVELINESS) va axloq o'lchovi (FAITH IS A MORAL MEASURE) ikki tilda bor, faqat nom yoki ob'ekt farq qiladi. Masalan, savdo modelida ingliz tilida *sell one's soul* [16, c. 704], o'zbek tilida *imonini sotmoq* [11, 237-b.] keladi. Bu katakda lakuna nomzodlari ikkita va ular qarama-qarshi yo'nalishga ega. FAITH IS A CONTRACT faqat ingliz, FAITH IS WEALTH faqat o'zbek tomonida leksikallashgan (*Chin boylik — imon boyligi*) [14, 323-b.].

Qadriyatli katak 7 birlikdan iborat. Unda bitta izomorf o'q bor, u iymonni moddiyatga qarshi qo'yadi (*You cannot serve God and Mammon*) [18]. To'rt o'q allomorf. O'z jonining qadri ikki tilda paremiyada mavjud, lekin o'zbek maqoli shirinlik obraziga (*Har kimning joni o'ziga shirin*) [14, 468-b.], ingliz maqoli qonun obraziga (*Self-preservation is the first law of nature*) [18] tayanadi. Sabrda qadriyat umumiy, uni tashuvchi nom esa boshqa (*Kamoli imon — sabr* [14, 217-b.] va *possess one's soul in patience* [16, c. 704]). Ikki o'q ingliz tomonida topilmadi. Bular mol, jon va or ierarxiyasi (*Mol — jonim sadag'asi, Jon — orim sadag'asi*) [14, 321-b.] hamda duo va ota-ona roziligi (*Ota rozi — xudo rozi*) [14, 392-b.].

3. Uzoq periferiya: nutq darajasidagi o'xshashlik

Uzoq periferiyada 8 birlik bor, ularda allomorf belgi umuman yo'q. Uchta izomorf birlikning hammasi "izomorf (nutq darajasida)" belgisini olgan. Bular SOUL IS A LIVING BEING, FAITH IS LIGHT va e'tiqodni insonga qilingan amal bilan o'lchash o'qi. Oxirgisi qadriyatli komponentning uzoq periferiyadagi yagona birligi. U. Hamdam qahramoni iymonini o'lim to'shagidagi kishiga yordam berish bilan o'lchaydi ("Агар ўламан деб ётган шу кишига ҳозир ёрдам бермасам, иймонимни аниқ бой бераман…") [20]. H. Melville hikoyachisi Xudoning irodasini yaqin kishiga yaxshilik qilishda ko'radi [19]. Ikki lakuna nomzodi tushunchaviy qatorda va nutq darajasida. Iymonning Allohdan kelishi faqat o'zbek, ahd ma'nosidagi sadoqat (*plight one's faith, keep faith with*) esa faqat ingliz nutqida qayd etilgan. Uchta ochiq birlik (kema obrazi SOUL IS A SHIP, bino obrazi FAITH IS A BUILDING va jonzot obrazi FAITH IS A LIVING BEING) bitta yozuvchining metaforasi bo'lib, ikkinchi tilda maxsus qidirilmagan. Shunday qilib, uzoq periferiyada ikki madaniyat badiiy nutqda yaqinlashadi, lug'at darajasida esa bu zona hech narsa aytmaydi.

4. Sanoq qoidasi kataklarni qanday o‘zgartiradi

Yumshoq qoidaga o‘tganda izomorf ustuniga ko‘chadigan 12 qo‘shma belgi komponentlar bo‘yicha teng taqsimlanadi, har bir komponentdan to‘rttadan. Zonalar bo‘yicha esa taqsimot keskin notekis. Ulardan faqat bittasi (iymonning akt sloti) yadroda, qolgan 11 tasi yaqin periferiyada. Uzoq periferiyada qo‘shma belgi yo‘q. Kataklar bo‘yicha natija 1-jadvalda berilgan.

1-jadval. “Ruh / Soul” va “Iymon / Faith” matritsalaridagi birliklarning kataklar bo‘yicha taqsimoti (qat’iy va yumshoq sanoq qoidasida)

Katak (komponent, zona)	Jami	Izomorf	Allomorf	Lakuna nomzodi	Ochiq	Yumshoq qoidada izomorf / allomorf
Tushunchaviy, yadro	6	4	2	0	0	5 / 1
Tushunchaviy, yaqin periferiya	15	3	10	2	0	6 / 7
Tushunchaviy, uzoq periferiya	2	0	0	2	0	0 / 0
Obrazli, yadro	2	1	1	0	0	1 / 1
Obrazli, yaqin periferiya	9	2	5	2	0	6 / 1
Obrazli, uzoq periferiya	5	2	0	0	3	2 / 0
Qadriyatli, yadro	1	0	0	1	0	0 / 0
Qadriyatli, yaqin periferiya	7	1	4	2	0	5 / 0
Qadriyatli, uzoq periferiya	1	1	0	0	0	1 / 0
Jami	48	14	22	9	3	26 / 10

Jadval muallif tomonidan ikki konsept matritsasi asosida tuzilgan, oxirgi ustun 12 qo‘shma belgini izomorf deb qayta sanash natijasidir.

Jadvaldan ikki xil xulosa kelib chiqadi. Yadroda qoida o‘zgarishi manzarani deyarli o‘zgartirmaydi, izomorflik ikkala holda ham ustun (5 va 6). Yaqin periferiyada esa nisbat ag‘dariladi. Qat’iy qoidada 19 allomorf va 6 izomorf bor, yumshoq qoidada 17 izomorf va 8 allomorf. Qadriyatli yaqin periferiyada allomorf ustuni butunlay bo‘shab qoladi. Bu katakda yumshoq qoidada faqat ikki turdagi birlik qoladi, ya’ni yo ikki tilda umumiy qadriyat, yo faqat o‘zbek tomonida leksikallashgan qadriyat. Yumshoq qoidadan keyin ham allomorf qolgan 10 birlikning 6 tasi leksikallashuv farqidir, ya’ni belgi bir tilda lug‘atga kirgan, ikkinchisida faqat nutqda yashaydi.

5. Lakuna nomzodlarining yo‘nalishi

Lakuna nomzodlari sanoq qoidasidan mustaqil, shu sababli ular eng barqaror ko‘rsatkichdir. To‘qqiz nomzoddan sakkiztasi periferiyada. Yo‘nalish bo‘yicha ular teng taqsimlanmagan. Oltitasi ingliz tomonida topilmagan va o‘zbek tomonida qayd etilgan belgidir (ajdodlar ruhi, mol, jon va or ierarxiyasi, duo va ota-ona roziligi, vatan va millat, iymonning Allohdan kelishi, FAITH IS WEALTH). Teskari yo‘nalishdagi uchta nomzod esa ko‘z va ruh sloti, FAITH IS A CONTRACT va ahd ma’nosidagi sadoqatdir. Qadriyatli komponentdagi uch nomzodning hammasi birinchi guruhga mansub. Ingliz tomoniga xos lakuna nomzodlari tushunchaviy va obrazli qatorlarda, ayniqsa shartnoma motivi atrofida to‘planadi.

MUHOKAMA

Natijalar L. M. Dzuganovaning ruh konsepti haqidagi gipotezasini [6, c. 4] o‘zbek-ingliz juftligida katak darajasida tasdiqlaydi, ammo bir aniqlik kiritadi. Umumiylik butun yadroda emas, aynan tushunchaviy yadroda zich. Ruhning ilohiy manbadan kelishi, tanani tark etishi va o‘limdan keyin qolishi ikki madaniyatda lug‘atga kirgan bilim sifatida mos keladi. E. Slingerland ta’kidlagan umumiy tajriba asosi [7, p. 1] diniy-mental konseptlarda shu katakda ko‘rinadi.

V. A. Maslova ajratgan ikki qatlam [5, c. 12] matritsada zonalarga to‘liq mos kelmaydi. Kutilganidek, umumiy qatlam yadroda, lekin milliy qatlam ham yadroga kirib keladi. Ajdodlar ruhi

o‘qi o‘zbek lug‘atidagi ruh ta’rifining o‘zidan o‘sib chiqadi. Kabardin-cherkes tilida marhum ruhi bilan bog‘liq marosim formulasi va ajdod ruhining avlodlarni kuzatib turishi haqidagi iboraning mavjudligi [6, c. 10, 19] bu belgini faqat o‘zbek tiliga xos deb aytishga yo‘l qo‘ymaydi. Ehtimol, u islomdan oldingi qatlamga yoki Sharq xalqlari uchun umumiy tasavvurga tegishli, biroq buni tekshirish uchun tarixiy material kerak.

Nazariy modelda ma’naviy konseptlarda qadriyatli komponent yadroga kiradi, degan kutish bor edi va u oldindan qabul qilinmay, empirik tekshirish uchun qo‘yilgan edi. Ruh va iymon matritsasi bu kutishni tasdiqlamaydi. Qadriyatli 9 birlikdan 7 tasi yaqin periferiyada, yadroda esa bittasi bor. Ammo bu natijani zona mezonidan ajratib o‘qib bo‘lmaydi. Yadro birinchi lug‘aviy ma’no ta’rifiga bog‘langan, ta’rif esa odatda tushunchani beradi, bahoni emas. Demak, qadriyatli birlik yadroga faqat ta’rif bilan bevosita bog‘langanda kiradi va bu holat ajdodlar ruhida ro‘y bergan. Boshqacha mezon, masalan assotsiativ reaksiyalar barqarorligi, boshqa natija berishi mumkin. Shuning uchun xulosani mezon doirasidagi natija deb qabul qilamiz.

Z. D. Popova va I. A. Sterninning universal va milliy komponent haqidagi qoidasi [2, c. 25, 27] matritsada aniq joy topadi. Diniy-mental konseptlar makon yoki vaqt kabi neytral emas, ularning milliy yuklamasi bor, lekin u yadroning tushunchaviy qismida emas, periferiyaning qadriyatli qismida. Qadriyatli komponentda har uchinchi birlik lakuna nomzodi, tushunchaviy komponentda bu nisbat 23 dan 4, obrazli komponentda 16 dan 2. Lakuna nomzodlarining asimmetrik yo‘nalishi ham ahamiyatli. O‘zbek tomonidagi ortiqcha belgilar jamoa va ajdod bilan bog‘liq qadriyatlarda, ingliz tomonidagi ortiqcha belgilar esa Yu. S. Stepanov fides va foedus qatorida ko‘rgan shartnoma motivida [10, c. 266] to‘planadi.

Sanoq qoidasi masalasi ochiq qolmasligi kerak. Qat’iy qoida tanlangani asosli, chunki qo‘shma belgidagi nom farqi aynan nominativ asimmetriyani qayd etadi. Lekin jadval ko‘rsatganidek, yaqin periferiyada allomorflik ustun degan xulosa shu tanlovga bog‘liq. Qoidaga bog‘liq bo‘lmagan xulosalar uchta. Tushunchaviy yadro izomorf, lakuna nomzodlari periferiyada va qadriyatli komponentda to‘planadi, uzoq periferiyadagi o‘xshashlik esa faqat nutq darajasida. Yana bir nozik joy bor. Umumiy tushuncha, juftlik yoki obraz qayd etilgan to‘rt qo‘shma belgi (tanada joylashuv, ruhiy holat, odam sanog‘i, kuch) ikki qoidada ham allomorf ustunida qoladi. Ular ham ko‘chirilsa, nisbat 30 izomorf va 6 allomorfga o‘zgaradi. Bu hisob qoidaning chegarasi qayerdan o‘tishini aniq yozib qo‘yish zarurligini ko‘rsatadi. Moddiy konseptlar bilan solishtirish ham shu sababli faqat taxminiy. Ma’naviy konseptlarda allomorf ulushi 48 dan 22, ya’ni taxminan 46 foiz, moddiy konseptlarda 51 dan 17, ya’ni taxminan 33 foiz, ammo moddiy konseptlarda birliklar yiriklashtirilgan guruhlar bilan sanalgan.

Uzoq periferiya hali to‘liq emas, ochiq birliklar va eksperimentni kutayotgan kataklar to‘ldirilgach, bu zonadagi nisbat o‘zgarishi mumkin.

XULOSA

“Ruh / Soul” va “Iymon / Faith” konseptlarining to‘qqiz katakli matritsasi ikki tilning mos kelish va ajralish joylarini aniq ko‘rsatadi. Ikki til eng ko‘p tushunchaviy yadroda mos keladi, bu katakdagi 6 birlikdan 4 tasi izomorf. Ajralish asosan yaqin periferiyada, biroq uning allomorf shakli sanoq qoidasiga sezgir va yumshoq qoidada 19 dan 8 ga tushadi.

Qoidadan mustaqil ko‘rsatkich lakuna nomzodlaridir. Ularning 9 tadan 8 tasi periferiyada, qadriyatli komponentdagi uchtasi esa o‘zbek tomonida leksikallashgan qadriyatlardir. Demak, diniy-mental konseptlarda universal komponent tushunchaviy yadroni, milliy-madaniy komponent periferiyaning qadriyatli qatlamini egallaydi. Ajdodlar ruhi bu qoidadan yagona istisno bo‘lib, milliy belgining ham yadroga kirishi mumkinligini ko‘rsatadi. Keyingi bosqichda assotsiativ eksperiment va korpus ma’lumotlari uzoq periferiya kataklarini to‘ldirib, bu taqsimotni tekshirishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002.
2. Попова З.Д., Стернин И.А. Семантико-когнитивный анализ языка. – Изд. 2-е, перераб. и доп. – Воронеж: Истоки, 2007.
3. Нурмуҳаммедов Ю.Ш. Таянч концептлар фразеологик репрезентлашувининг лингвомаданий аспекти. Монография. – Самарқанд: СамДЧТИ нашриёти, 2022. – 152 б.
4. Кокорина Ю.Г. Структура концептуального поля археологии (на примере терминов вещеведения) // Когнитивные исследования языка. Вып. VII. Типы категорий в языке. – М.; Тамбов, 2010. – С. 182–183.
5. Маслова В.А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. – М.: Издательский центр “Академия”, 2001.
6. Дзуганова Л.М. Языковая концептуализация души (на материале английского, русского и кабардино-черкесского языков): автореф. дис. … канд. филол. наук: 10.02.19. – Нальчик, 2007. – 24 с.
7. Slingerland E. Conceptual Metaphor Theory as Methodology for Comparative Religion // Journal of the American Academy of Religion. – 2004. – Vol. 72, № 1.
8. Нуждина О.Ю. Концепты ‘душа’ и ‘тело’ в языковой картине мира (на материале английского и русского языков): автореф. дис. … канд. филол. наук: 10.02.19. – М.: МГОУ, 2004.
9. Wierzbicka A. Soul and Mind: Linguistic Evidence for Ethnopsychology and Cultural History // American Anthropologist. – 1989. – Vol. 91, № 1. – DOI: 10.1525/aa.1989.91.1.02a00030.
10. Степанов Ю.С. Константы: Словарь русской культуры. Опыт исследования. – М.: Школа “Языки русской культуры”, 1997. – 824 с.
11. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 5 жилдли. II жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2006.
12. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 5 жилдли. III жилд / Таҳрир ҳайъати: Т. Мирзаев ва б. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2007.
13. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – 405 б.
14. Ўзбек халқ мақоллари / Тузувчилар: Т. Мирзаев ва б. – Тошкент: Шарқ, 2005. – 512 б.
15. Бердиёров Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремиологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984. – 288 б.
16. Кунин А.В. Англо-русский фразеологический словарь. – 4-е изд., перераб. и доп. – М.: Русский язык, 1984. – 944 с.
17. Ayto J. Oxford Dictionary of English Idioms. – 4th ed. – Oxford: Oxford University Press, 2020.
18. Speake J. (ed.) The Oxford Dictionary of Proverbs. – 6th ed. – Oxford: Oxford University Press, 2015.
19. Melville H. Moby-Dick; or, The Whale. – Project Gutenberg (elektron nashr).
20. Ҳамдам У. Мусулмон // ziyouz.uz электрон кутубхонаси (мурожаат санаси: 28.09.2026).

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA O‘ZLASHMA QATLAM MASALALARINI YORITILISHI

Muxammadiyev Nodir,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti,
2-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ma’lumki, har bir tilga xos bo‘lgan va o‘zlashgan so‘zlar ma’lum xususiyat, ya’ni o‘ziga xos qirralarga ega. Shunga ko‘ra tilning o‘z va o‘zlashgan qatlamini o‘zaro farqlab o‘rganish muhim sanaladi. Tilshunoslikning leksikologiya sohasi tilga o‘zlashgan so‘zlarning qaysi manba asosida o‘zlashtirilganini, jamiyatda ro‘y berayotgan ijtimoiy o‘zgarishlarni, xalqning moddiy hayoti va ma’naviy olamini aks ettiradi. Iste’mol darajasiga ko‘ra faol va nofaol til birliklari fan va texnikaning tinimsiz rivoji natijasida jamiyatga o‘zlashadi, til sohiblarining nutqiga ko‘chadi. Mazkur maqolada o‘zbek tiliga o‘zlashgan ayrim leksik birliklarning semantik xususiyatlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: leksikologiya, o‘zlashma, faol va nofaol til birliklari, o‘z qatlam, leksik birlik.

Аннотация. Как известно, слова, которые присущи и усвоены каждому языку, имеют определенную особенность, то есть свои грани. Соответственно, важно различать собственный и освоенный пласт языка. Область лексикологии языкознания отражает, по какому источнику заимствуются слова, присущие языку, социальные изменения, происходящие в обществе, материальной жизни и духовном мире народа. По уровню потребления активные и неактивные языковые единицы в результате неустанного развития науки и техники ассимилируются в обществе, мигрируют в речь носителей языка. В данной статье освещаются семантические особенности некоторых лексических единиц, заимствованных из узбекского языка.

Ключевые слова: лексикология, ассимиляция, активные и неактивные единицы языка, собственный слой, лексическая единица.

Annotation. It is known that words that are unique and assimilated to each language have a certain characteristic, that is, specific edges. Accordingly, it is considered important to study the self and the acquired layer of the language in a different way. The field of lexicology of linguistics reflects on the basis of what source words are borrowed into the language, the social changes taking place in society, the material life and spiritual world of the people. According to the level of consumption, active and inactive Language units are assimilated into society as a result of the relentless development of Science and technology, moving to the speech of language owners. This article will highlight the semantic features of certain lexical units assimilated into the Uzbek language.

Keywords: lexicology, appropriation, active and inactive Language units, own layer, lexical unit.

Leksikologiya tilning lug’at boyligini o‘rganuvchi soha. Bu sohada tilimiz boyliklari sanalgan so’zlar va iboralarning oddiy, mexanik yig’indisi emas, balki birliklar va elementlar tizimidir. Bu tizimdagi so’z va elementlar yaxlit bir “organizm”ning “to’qimali” va “hujayrali” munosabatida bo’ladi: so’zlarning ifoda va mazmun tomonlari orasidagi aloqalar, leksik ma’no va uning semalari o’rtasidagi butun va qism munosabatlari, so’z ma’nolarning paradigmatik va sintagmatik xususiyatlari

shundan dalolat beradi. Bu tizimning asosiy birligi so’z ekanligini hisobga olsak, leksikologiyada bevosita so’zning o’zi bilan bog’liq masalalari ham ko’riladi: so’zning til birligi sifatidagi mohiyati, so’z strukturasi (ifoda va mazmun planlari, semantik tarkibi), leksik ma’no va uslubiy semalar, leksik ma’no va etimon, leksik ma’no taraqqiyoti, udual va okkazinal ma’nolari shular jumlasidandir.

O‘zlashgan birliklar haqida fikr bidirar ekanmiz, bu haqida tilshunoslarimizdan G‘.Abdurahmonov hamda S.Mamajonovlar tomonidan ilgari surilgan g‘oyalarga tayanamiz. Ushbu olimlar o‘zbek tiliga chet tillardan o‘zlashgan so‘zlarni to‘rt guruhga bo‘lib o‘rganishni tavsiya etganlar:

1) arab tilidan o‘zlashgan so‘zlar;

2) fors-tojik tilidan o‘zbek tiliga kirib kelgan so‘zlar;

3) 1917 yilgi oktyabr to‘ntarishidan keyin o‘zbek tilida paydo bo‘lgan rus-baynalmilal so‘zlari[1].

Z.M.Qodirov “Tilda bazus va ustqurtma” nomli maqolasida hozirgi kunda o‘zbek tilida mavjud o‘zlashgan qatlam so‘zlarini to‘rtta qatlamga ajratgan:

1.Arabcha o‘zlashma qatlam.

2.Fors-tojikcha o‘zlashma qatlam.

3.Rus-baynalminal o‘zlashma qatlam.

4.Boshqa tillardan o‘zlashma qatlam[2].

O‘zbek tilining izohli lug‘atida P harfi bilan boshlanuvchi jami 1047 ta so‘z mavjud. Bu so‘zlar o‘z hamda o‘zlashma qatlam bilan hosil bo‘lgan. O‘zlashma so‘zlar fors tilidan, yunon, lotin, nemis, fransuz hamda rus tillaridan so‘z olish orqali kirib kelgan. Shulardan 215 ta so‘z fors tilidan kirib kelgan. Shulardan ba’zilarining ro‘yxatini keltirib o‘tamiz.

1) padarkush – ota qotili

2) pad arona - otalarcha

3) payom – (da’vat)

4) pajmurda – so‘limoq, so‘lg‘in

5) pazanda – laziz taomlar pishirish san’ati sohibasi

6) pay – (tomir, tovon)

7) payvand – biror o‘simlikning novda yoki kurtagini boshqa o‘simlik tanasiga o‘tkazish, ulash usuli.

Fors-tojik tilidan kirgan so‘zlarning ba’zilari keyinchalik tub va arabcha so‘zlar bilan birlashib, yangi ma’nodagi leksema hosil bo‘lishiga sabab bo‘lgan. Masalan, hammuallif (forscha+arabcha); hammaslak (forscha+arabcha); hamfikr (forscha+arabcha); ko‘ngilxushlik (turkiycha+forscha);

Ilk g‘arb svilizatsiyasi paydo bo‘lgan joy Yunoniston bo‘lib, yunon tili shu svilizatsiya vakillari so‘zlashgan tildir. Yunon tili – yunon tili arixidagi dastlabki bosqichda – mill. av. XIV-XII asrlardan milodiy I-IV-asrlargacha amalda bo‘lgan (hozirda o‘lik til); greklarning qadimiy tili. Hind-yevropa tillari oilasida qadimiy makedon tili bilan birgalikda alohida yunon guruhini tashkil etadi. 115 ta yunoncha so‘zni O‘TILda P bilan boshlanuvchi so‘zlar tarkibida uchratimiz mumkin:

[1] Ibodov N. Anatomiyadan qisqacha lotincha-ruscha-o‘zbekcha lug‘at. –Toshkent, 1995. 80 b

[2] Qodirov Z. Tilda bazus va ustqurma. Maqola. Research focus jurnali 2022-yil 3-son 3-bet.

1) Pielet – buyrak jomining yallig‘lanishi
2) Pasxa –xristian dinining pravoslav mazhabida shu dinning asoschisi Isoning tirilishiga bag‘ishlangan bayram
3) Patriarxat – ibtidoiy tuzumning matriarxatdan keying, oilada, xo‘jalik va ijtimoiy munosabatlarda erkaklar hukmronlik qilgan davri, otalik davri.
4) Pafos – ko‘tarinki ruh, jo‘shqinlik, zavq-shavq.
5) Pero – siyoh, tush va shu kabilar bilan yozish uchun ruchka uchiga o‘rnatib ishlatiladigan yozuv-chizuv asbobi.
6) Perigey – oy orbiasi yoki yer sun’iy yo‘ldoshi orbitasining yerga eng yaqin nuqtasi.
7) Perimetr – yopiq egri chiziqning uzunligi (masalan, ko‘pburchakning perimetri uning hamma tomonlari yig‘indisiga teng)
8) Pegologiya – bola ta’limoti
9) Peritonit – qorin pardasi
10) Pantezm - Xudo
11) Papax- telpak
12) Paragraf – kitob, maqola kabi matnlarning ma’no jihatidan mustaqillikkka ega bo‘lgan, sarlavha nomi
13) Parabola – I) ochiq, yassi egri chiziq; to‘g‘ri konusning uning yasovchilaridan biriga parallel tekislik bilan kesishishidan hosil bo‘ladi. II) badiiy adabiyotda ramzga molik kinoyaviy obraz; ramz va ramziy hikoya o‘rtasidagi adabiy tur
14) Paradigma – I) Til birliklari, grammmatik shakllarning umumiy ma’nosiga ko‘ra birlashuvchi, xususiy ma’nosiga ko‘ra farqlanuvchi tizimi II) biror so‘zning turlanish yoki tuslanish shakllari tizimi.
15) Paradoks – ko‘pchilik omonidan qabul eilgan an’anaviy fikr, tajribaga o‘z mazmuni va shakl bilan keskin zid bo‘lgan, kutilmagan fikr, mulohaza.
16) Parazit – tekinxo‘r, hamtovoq
17) Pako - qadimgi
18) Paleografiya – qadimgi qo‘lyozmalar va yozuvlarni, yozuv belgilarining yaratilish tarixini hamda ularning tashqi ko‘rinishi (yozilish usuli, harflar shakli, yozuv yozilgan material turi kabilarni) o‘rganadigan fan.
19) Paleolit – eng qadimgi tosh asri, davri.
20) Pandemiya – epidemik kasallikning bir mamlakat, bir necha mamlakat yoki qit’ada yoppasiga tarqalishi
21) Panzooteya – hayvonlar o‘rtasida yuqumli kasallikning butun mamlakat, bir necha mamlakat, qit’a bo‘ylab juda tez va keng tarqalishi.

Bundan tashqari hozirda mega so‘zi bilan boshlanuvchi leksemalar ham yunonchaga mansub. Masalan, megapolis, megafon.

Professor B.X.Eshonqulov o‘zlashgan qatlamga tegishli bo‘lgan so‘zlar boshqa tilga ko‘chganda o‘sha tilga xos bo‘lgan Grammatik va fonetik qonunlarni qabul qilishini qayd etgan[3]. O‘z navbatida B.X.Eshonqulov o‘zbek tiliga arabcha so‘zlar kirib kelishini rus olimi R.A.Budirov tomonidan e’tirof etilgan lug‘aviy o‘zlashmalarning o‘z

[3] Sulaymonova N., Abzalova M. O‘zbek tilidagi arabiy so‘zlar imlosi. –Toshkent, 2008. 132 b.

tilidagi shakli bilan so‘z qabul qilgan tildagi shakli o‘zaro sakkizta funksional qiymat bilan munosabatga kirishishiga aytib o‘tgan:

1. Aniq ma’noga ega bo‘lgan so‘z yangi tilda mavhum ma’noni ham ifodalashi mumkin.
2. Jinsga taalluqli ayrim so‘zlar boshqa tilga o‘zlashganda turga taalluqli so‘zga aylanadi.
3. So‘zlar o‘zlashganda bir ma’noli so‘zdan ko‘p ma’noli so‘zga o‘zgaradi.
4. Ba’zi so‘zlar muqobilsiz holda boshqa tillarga kirib keladi.
5. Noarxaik so‘zlar arxaik so‘zga aylanishi mumkin.
6. O‘zlashma so‘zlarning lug‘aviy mustaqilligi yo‘qoladi.
7. Bir tildagi atamalar o‘zlashgan holda so‘zga aylanadi.
8. Ba’zi so‘zlar so‘z birikmasiga aylanadi[4].

Yuqorida keltirilgan misollarga asoslanib, shunday xulosa chiqarsa bo‘ladi:

1) hech qaysi til alohida olingan til sifatida rivojlana olmaydi;

2) til lug‘at boyligi oshishi obyektiv va subyektiv ta’sirlar natijasida ko‘payib boradi;

3) o‘zbek tilida olinma so‘zlarning miqdori ko‘pchilikni tashkil etadi;

4) ma’lum bir tildan o‘zbek tiliga kirib kelgan so‘zlarning katta qismi yangi tilning imlo va talaffuz qoidalariga to‘lig‘icha amal qilishi tufayli aksariyat o‘zlashma so‘zlar fonetik va morfologik yozuv tamoyillarini qabul qiladi, shu sabab o‘zbek tilida shakliy yozuv tamoyili asosida yoziladigan olinma so‘zlar nisbatan kamdir;

5) o‘zbek tiliga fors, arab va rus tillari orqali ko‘plab so‘zlar o‘zlashgan;

6) fan-texnika jadal sur’atlarda taraqqiy etayotgan hozirgi davrda o‘zbek tili lug‘at boyligi ingliz tilidan olingan so‘zlar hisobiga yanada boyib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Sulaymonova N., Abzalova M. O‘zbek tilidagi arabiy so‘zlar imlosi. – Toshkent, 2008. 132 b.

2.Eshonqulov B.X. O‘zbek adabiy tilida arabcha lug‘aviy o‘zlashmalarning paradigmatik asimmetriyaga munosabati. –Toshkent, 1996.

3. Talabov E. Arab tili darsligi. –Toshkent, 1993. 408 b.

4. Ibodov N. Anatomiyadan qisqacha lotincha-ruscha-o‘zbekcha lug‘at. –Toshkent, 1995. 80 b

5. Qodirov Z. Tilda bazus va ustqurma. Maqola. Research focus jurnali 2022-yil 3-son.

6. Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish. — Toshkent. Yangi asr avlodi, 2009. — 264 b

7. Usmonov S. “Umumiy tilshunoslik” Toshkent “O‘qituvchi” 1972. 300 b.

[4] Eshonqulov B.X. O‘zbek adabiy tilida arabcha lug‘aviy o‘zlashmalarning paradigmatik asimmetriyaga munosabati. – Toshkent, 1996. 6-b.

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA LINGVOMADANIY BIRLIKLARNING O‘RGANILISHI

Jumaniyazova Surayyo Ravshonovna,
NavDU O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada lingvomadaniyatshunoslikka doir tadqiqotlar tahlil qilinib, jahon va o‘zbek tilshunosligida lingvomadaniy birliklarning o‘rganilishi, mazkur birliklar til sathining boshqa birliklaridan o‘zida milliy-madaniy semalarni aks ettirishi bilan ajralib turishi haqida fikr-mulohazalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: lingvomadaniyatshunoslik, lingvomadaniy birliklar, konnotativlik, milliy-madaniy sema, leksik birliklar, frazeologizmlar, metaforalar, turg‘un o‘xshatishlar.

Аннотация. В данной статье анализируются исследования по лингвистике и культурологии и комментируется изучение лингвокультурных единиц в мировом и узбекском языкознании, то, что эти единицы отличаются от других единиц языкового уровня тем, что они отражают национально-культурную тематику.

Ключевые слова: лингвокультурология, лингвокультурные единицы, коннотативность, национально-культурная тема, лексические единицы, фразеология, метафоры, статические сравнения.

Annotation. This article analyzes researches in linguocultural studies, discusses the study of linguocultural units in world and Uzbek linguistics, and discusses how these units differ from other units of the language level in that they reflect national-cultural semantics.

Keywords: linguistic and cultural studies, linguistic and cultural units, connotativity, national-cultural semantics, lexical units, phraseologisms, metaphors, stable analogies.

Kirish. XIX – XX asrlar tilshunosligida tilning madaniyatga oid tarkibini tadqiq etish ko‘zga tashlana boshladi. Lingvomadaniyatshunoslik (Lingvokulturologiya) XXI asrda jahonning yetakchi yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bugungi kunda ko‘pgina olimlar lingvomadaniyatshunoslikka doir tadqiqotlar yaratayotgani mazkur fanning istiqbolidan darak berib turibdi.

Adabiyotlar tahlili. Taniqli rus tilshunosi V.A.Maslova muayyan xalq yoki qardosh xalqlar tilining lingvokulturologik xususiyatlari alohida o‘rganilishi lozimligini qayd etadi [1].

Keyingi yillarda boshqa rivojlangan tillar qatori o‘zbek tilshunosligida ham lisoniy birliklarni lingvomadaniy jihatdan tadqiq etishga e’tibor kuchaymoqda. Tilshunos olima D.Xudoyberganova o‘zining “Matnning antroposentrik tadqiqi” nomli monografiyasida o‘zbek tilidagi badiiy matnlarni lingvokulturologik jihatdan tahlil qilib, xalq madaniyati, milliy-madaniy qadriyatlarning matnda aks etish masalasi yuzasidan o‘z fikr-mulohazalarini yoritib berdi [2]. Chunki badiiy matnning o‘zi ham xalqning urf-

odatlari, an’analari, milliy-madaniy qadriyatlarini o‘zida aks ettiruvchi lingvomadaniy birlik hisoblanadi.

Anglashiladiki, o‘zbek tilida lingvomadaniy birliklar vazifasini faqatgina tilning leksik birliklari emas, balki ana shunday xususiyatlarni o‘zida aks ettirgan sintaktik birliklar, xususan, badiiy matnlar ham bajara olishi mumkin. Mazkur birliklar til sathining boshqa birliklaridan o‘zida milliy-madaniy semalarni aks ettirishi bilan ajralib turadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola mazmunini yoritishda tasniflash, tavsiflash, qiyoslash, differensial-semantik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Ijodkor tomonidan qo‘llangan frazeologizmlar, etalonlar, ramzlar, metaforalar, turg‘un o‘xshatishlar, nutqiy etiketlar, urf-odat va marosimga doir so‘zlar, topishmoqlar, milliy realiyalar, arxetiplar, mifologemalar, lakunalar, pretsedent birliklarni tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur birliklar matnda badiiylikni ta’minlash bilan bir qatorda xalqimizning milliy-madaniy o‘ziga xosliklarni ifodalovchi, keyingi avlodga yetkazuvchi lingvomadaniy birliklar sanaladi.

Tilshunos olima D.Xudayberganovaning “Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati”da lingvomadaniy birlik (lingvokulturema)larga quyidagicha ta’rif beriladi: “**LINGVOMADANIY BIRLIK**. Lisoniy belgining ma’nosi va madaniy mazmun birikuvidan tarkib topuvchi, madaniy muhit bilan til o‘rtasidagi bog‘liqlikni aks ettiruvchi, semantikasida madaniy axborot yaqqol namoyon bo‘luvchi til birliklari. Jumladan, *frazeologizmlar, etalonlar, ramzlar, metaforalar, turg‘un o‘xshatishlar, nutqiy etiketlar, urf-odat va marosimga doir so‘zlar, topishmoqlar, milliy realiyalar, arxetiplar, mifologemalar, lakunalar, pretsedent birliklar* va b. Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, lingvomadaniy birliklar til birliklariga nisbatan chuqurroq darajadagi birlik hisoblanadi. Lingvomadaniy birlik so‘z, so‘z birikmasi, gap va matn vositasida ifodalanishi mumkin. Lingvomadaniy birliklarga konnotativlik xos bo‘lib, u mazkur birlikni yaratgan xalqning madaniy kontekstiga bog‘liq ravishda anglashiladi.”[3]

Olimaning mazkur lug‘atida lingvomadaniy birlik sifatida keltirilgan barcha terminlarning izohi keltiriladi. Lug‘at zamonaviy tilshunoslik masalalari yuzasidan izlanish olib borayotgan filologlar, doktorantlar va magistrlar uchun manfaatlidir. Chunki tilshunosligimizda yangi paydo bo‘layotgan zamonaviy terminlar izohiga ehtiyojimiz katta.

Bundan tashqari tadqiqot jarayonida bir qator olim va olimalarimizning ilmiy izlanishlari orqali tilimizdagi lingvomadaniy birliklarga oid qarashlari bilan ham imkon qadar tanishishga harakat qildik. Jumladan, Sh.Usmanova o‘zbek tilidagi lingvomadaniy birliklarni quyidagi guruhlarga ajratganligining guvohi bo‘ldik**:**

1. Muqobilsiz leksika va lakunalar. Har qanday til yoki dialektda boshqa tilga bir so‘z bilan tarjima qilib bo‘lmaydigan so‘zlar mavjud bo‘ladi. Bunday so‘zlarga muqobilsiz leksika deyiladi: *palov, patir surpa, do‘ppi* kabi.

Bir tildagi so‘z boshqa tillarda muqobilini topmagan o‘rinlarda har doim lakuna hodisasi voqelanadi. Lakuna (lot. lacuna – bo‘shliq, chuqurlik) tarjimada muqobili topilmagan bo‘shliq. Masalan yurist advokat ma’nosini anglatgan *lawyer* so‘zidan boshqa advokatlik kasbini turli darajalarini ifodalaydigan *attorney* “vakil”, *barrister* “oliy sud advokatlari”, *solicitor* “tashkilotlarga maslahat beruvchi advokat”, *counsel*

“quyi sud advokati”, *counselor* “maslahatchi” degan so‘zlar mavjud. O‘zbek va rus tillarida yuqoridagilarga faqat bir so‘zgina muqobil bo‘la oladi.

2. Mifologiyalashtirilgan til birliklari. Bular arxiteplar, mifologemalar, udumlar va rivoyatlar, taomillar va urf-odatlar sanaladi.

3. Tilning paremiologik fondi. Bunga maqol va matallar kiradi. Masalan, *Mehmon kelar eshikdan, rizqi kelar teshikdan*.

4. Tilning frazeologik fondi. Masalan, *ko‘rpasiga qarab oyoq uzatmoq*. 5.O‘xshatishlar, ramzlar, stereotiplar. Masalan, *qo‘ydek yuvosh, xoch, nemislarning tartibliligi, o‘zbeklarning mehmondo‘stligi, qozoqlar qaysarligi.*

6. Metaforalar va obrazlar. Obraz so‘z bilan madaniyatning bog‘liqligi haqida asosiy ma’lumot beruvchi muhim lisoniy mohiyat sanaladi. Obrazlilik ongimizda “suratlar”ni gavdalantiradigan qobiliyatni hosil qiladigan til birliklarining real xususiyatidir.

7. Tillarning stilistik qatlami. Adabiy til va noadabiy til shakllari o‘rtasida o‘zaro aloqaning mavjudligi jamiyat madaniy tarixining barcha rivojlanish bosqichlariga o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

8. Nutqiy muomala.

9.Nutq etiketi. Insonlarning o‘zaro munosabatida ijtimoiy va madaniy o‘ziga xos nutqiy muomala qoidalari” [4]. Yuqoridagi keltirilgan fikr-mulohazalardan anglash mumkinki, lingvomadaniy birliklar muayyan bir xalqning milliy qadriyatlari, urf-odat va an’analari, milliy tafakkuri, turmush tarzi, madaniyati, tarixi kabilarni o‘zida mujassamlashtirishi bilan xarakterlanadi. Shuning uchun ham mazkur birliklarni xalq hayoti bilan uzviy bog‘liqlikda o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

D.Jamoliddinova: “Til tizimi birliklari, shu jumladan, terminlar ham xalq madaniyati, mentaliteti, milliy ongi bilan bog‘liq holda tadqiq etilgandagina uning tavsifi mukammal bo‘la oladi” [5] degan xulosaga keladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, lingvomadaniy birliklar matnda badiiylikni ta’minlash bilan bir qatorda xalqimizning milliy-madaniy o‘ziga xosliklarni ifodalovchi birlik sanalar ekan, bu borada davr talablari asosida muayyan ijodkor asarlari yuzasidan keng qamrovli izlanishlar olib borish oldimizga qo‘ygan maqsadlarimizdan biridir. Badiiy matnlarda frazeologizmlar, etalonlar, ramzlar, metaforalar, turg‘un o‘xshatishlar, nutqiy etiketlar, urf-odat va marosimga doir so‘zlar, topishmoqlar va boshqa lingvomadaniy birliklar qatorida terminlarga nisbatan ham lingvomadaniy birlik sifatida qarab, til sohiblarining milliy ongi bilan bog‘liq holda o‘rganish alohida izlanish talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Academia, 2001. – С.18.
2. Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013.
3. Xudayberganova D. Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – - Toshkent-2024. –B 46.
4. Usmamova Sh. Lingvokulturologiya. – Toshkent, 2019. – B. 28.
5. Жамолиддинова Д. Бадиий матнда терминларнинг лингвопоэтик ва лингвокультурологик хусусиятлари. Филол. фан. док. (DSc) дисс. – Тошкент, 2021. – Б 71.

GAZETA TILIDA GAP QOLIPLI FRAZEMALAR

Rahmatova Yulduz,
NavDU tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada publitsistik uslub shakli sanaluvchi gazeta matnida gap qolipli frazemalarning semantik-struktur xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: publitsistik uslub, gazeta tili, frazema, gap qolipli frazema, semantika, transformatsiya, olamning frazeologik manzarasi.

Аннотация: В статье рассматриваются семантико-структурные особенности фразеологизмы структурно соответвующие предложению в газетном тексте, которые считаются формой публицистического стиля.

Ключевые слова: публицистический стиль, газетный язык, фразеологизм, фразеологизмы структурно соответвующие предложения, семантика, трансформация, фразеологическая картина мира.

Abstract: The article examines the semantic and structural features of phraseological units structurally corresponding to a sentence in a newspaper text, which are considered a form of journalistic style.

Keywords: journalistic style, newspaper language, phraseology, phraseological units structurally corresponding sentences, semantics, transformation, phraseological picture of the world.

Kirish. Publitsistik uslubning eng xalqchil, tezkor ommaviy aloqaga ega turi gazeta publitsistikasi bo‘lib, bu esa uning leksikasi boshqa janrlarga nisbatan keng qamrovli va rang-barang ekanligini ko‘rsatadi. Biroq , gazeta tili, xususan, uning leksikasi fikr oqimiga qarab o‘ziga xos xususiyat kasb etadi. Aslida publitsistikaning oyoqqa turishida gazetaning roli o‘ziga xos, gazeta publitsistikasi sharhlashga asoslangan bo‘lib, uning vazifasi matnning mazmuni va mohiyatini ommabop tarzda ochib berishdir. Jamiyatdagi ayni paytda yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotni, avvalo, sharhlaydi.

Adabiyotlar tahlili. Publitsistik uslubning eng xalqchil, ommabop shakli gazeta tilidir, gazeta “dunyoda, mamlakatda, shaharda sodir bo‘layotgan barcha voqealarni qisqa-qisqa aks ettiradigan va ko‘zga ko‘rinadigan “ijtimoiy hayot parchalariga – faktlar, voqealar, hodisalar, shaxslarga ...” o‘z talqinini beradigan “ko‘zgudir” [1, 173]. I.P.Lisakova, L. Yemelyanseva, A.Boboyeva, A.Abdusaidov gazeta tili yuzasidan tadqiqot olib borishgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani yoritishda komponent tahlil, tavsiflash usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Gazeta tilining o‘ziga xos xususiyati frazemalarning faol qo‘llanishidir. Tildagi ko‘pgina frazemalar uchun leksemadan farqli o‘laroq, ekspressiv-

emotsional bo‘yoqdorlik ajralmas xususiyat hisoblansa-da, qo‘llanish ko‘lamiga e’tibor qaratilsa, ularning asosiy qismining uslubiy jihatdan neytralligi aniqlanadi. Sababi frazema yordamida u yoki bu predmet, hodisa nomlanibgina qolmasdan, o‘sha predmet yoki hodisaga, shaxsga so‘zlovchining ekspressiv munosabati ham biriktiriladi [2,7]. Masalan, gazeta tilida *ko‘ngil* komponentli frazemalar miqdori ko‘pligi bilan ajralib turadi: *ko‘ngli to‘q, ko‘ngli kir, ko‘ngli to‘lmoq, ko‘ngli joyiga tushmoq, ko‘ngli yorishmoq, ko‘ngli og‘rimoq, ko‘ngli tog‘dek ko‘tarilmoq* kabi. Bu kabi gap qolipli frazemalarni qo‘llash orqali xalqning turmush tarzi, fe’l-atvori, jamiyatdagi o‘zgarishlarga va islohotlardan ko‘zlangan maqsadning amaldagi holatiga munosabati, manfaatdorlik, minnatdorlik kabilar ifodalaganligini ko‘rish mumkin.

Ma’lumki, frazemalar tilda ko‘p vaqt bir qolipda qo‘llanaverib, bo‘linmaydigan yaxlit, bir butun holga kelib qolganligi va tarkibida eng kamida ikkita mustaqil so‘z ishtirok etishi, yaxlit holda yoki uning bir qismi ko‘chma ma’noda qo‘llanilgani uchun obrazlilikka, ta’sirchanlikka boyligi bilan ajralib turadi [3,24]. Gazeta maqolalarida turli sohalarda faoliyat yuritayotgan kishilarning faoliyati ruhiy holati, shaxsiy sifatlari bilan uyg‘un tarzda ko‘lamli ifoda etiladi, shuning uchun ham maqolada munosabatlarni ifodalash uchun qo‘llanuvchi leksemalar frazemalar tarkibida mavjud bo‘ladi. Shaxslarga xos ijobiy va salbiy munosabatni ifodalash maqsadida tilda gap qolipli frazemalar shakllangan. “Yangi O‘zbekiston” gazetasida chop etilgan maqolalar tahlilga tortilganda, shaxs faoliyati va ruhiyatini ifodalovchi frazemalarning tarkibida, asosan, ruhiy holatni ifodalovchi *ko‘ngil* so‘zi faol ishtirok etishi aniqlandi.

Masalan: *Sport bilan shug‘ullanarkansiz, yashashdan* ***ko‘nglingiz to‘layotganini*** *his* qilasiz (R.Madiyeva, Ruhiy va jismoniy uyg‘unlik yoxud qishki bog‘ qo‘ynidagi muhtasham manzara. 2025-yil 18-yanvar soni). Ushbu maqolada sog‘lom turmush tarziga amal qilish tartibi, kamharakatlilikning oqibatlari, ekologik muammolarning inson salomatligiga ta’sir o‘tkazayotgani sababli, maqola muallifi jismoniy faollikning ruhiyatga ta’sirini sport bilan shug‘ullanish orqali sezish mumkinligini ta’kidlar ekan, maqolada qo‘llangan ***ko‘ngli to‘lmoq*** holat ifodalovchi frazemani fikrning ishonarliligini ta’kidlash va jonlilikni ta’minlash uchun qo‘llaganligini payqash qiyin bo‘lmaydi.

Shaxsning ruhiy holatini ifodalovchi frazemalar tarkibida *ko‘ngil* leksemasi ishtirok etar ekan, ushbu leksema frazemaning semantik shakllanishida markaz vazifasini bajaradi. *Ko‘ngil* leksemasi ijobiy ma’noni ifodalovchi *ko‘ngli to‘q, ko‘ngli to‘lmoq, ko‘ngli joyiga tushmoq, ko‘ngli yorishmoq, ko‘ngli tog‘dek ko‘tarilmoq, ko‘ngli xotirjam tortmoq* kabi gap qolipli frazemalar tarkibida semantik tayanch a’zo sifatida qatnashadi. Masalan, *Ayollari qadrlangan xalqning ertangi kunidan* ***ko‘ngli to‘q.*** *Bugun xotin-qizlarga hurmatni har jabhada ko‘ryapmiz*. **(**B.Zokirov, Yurtimiz ayollariga ko‘z tegmasin! 2025-yil 7-mart soni**).** Jumlalarning yaxlit kompozitsiyani kasb etishida frazema mazmunining o‘rni bor. *Ayollari qadrlangan xalqning ertangi kunidan* ***ko‘ngli to‘q.*** *Bugun xotin-qizlarga hurmatni har jabhada ko‘ryapmiz* jumlalaridagi *ko‘ngli to‘q* frazemasi ifodalovchi “ishongani holda xotirjam” [4,284] ma’nosi orqali mamlakatning ayollarga bo‘lgan e’tibori xalqona yo‘sinda ta’sirchan ifodalangan; milliy-mental qiymatga ega frazemaning semantik tarkibida metaforik asos mavjudligni ko‘rish mumkin. Shuningdek, *ko‘ngli to‘q* frazemasining “to‘q”

komponentini qo‘llash asosida fikr ifodalangan: *Ayollari qadrlangan xalqning ertangi kunidan* ***ko‘ngli to‘q.*** Ushbu gap qolipli frazemadagi “to‘q” so‘zini to‘g‘ri ma’noda tushunish hech qanday qiymat anglatmaydi. *Ko‘ngli to‘q* frazemasining “to‘q” obrazli asosini keltirish orqali ayolni qadrlagan yurtda farovonlik bo‘lishi, ayol e’zozlangan yurt gullab-yashnashi, bunday yurt xalqining kelajagi porloq bo‘lishi frazema bilan ifodalab berilgan.

Ushbu frazema ikkinchi bir o‘rinda ham “xotirjamlik” mazmunida keltirilgan: *Ana endi jiyaningdan* ***ko‘nglim to‘q,*** *deya chuqur nafas oldi.* **(**S.Eshmurodov, Kreativ iqtisodiyot uning manbai – bilim va ijodiy qobiliyat. 2025-yil 25-fevral soni**).**

Frazemalarning grammatik tabiatida kontekstga moslashuv, grammatik talabga ko‘ra, muayyan grammatik shaklni olish, masalan, tarkibida fe’l komponenti bo‘lgan frazemalarning ko‘pchiligi kesim vazifasida kelganda, kesimlik shakllarini oladi, “xotirjam bo‘ldi”, “tinchlandi” ma’nosini beruvchi *ko‘ngli joyiga tushmoq* frazemasida *tushmoq* so‘zi tasdiq mazmunida bo‘lsa, kontekstda gap semantikasiga mos tarzda inkor mazmunida kelishi ham mumkin: *Mendagi bezovtalikni his qilib, bugun zamon boshqacha ekanini, to‘g‘ri ishlagan kishining yo‘liga hech kim g‘ov bo‘lmasligini aytganida ham unchalik* ***ko‘nglim joyiga tushmagandi****.(*A.Rahmonov, Biznes tajriba to‘plash va tavakkaldan boshlanadi. 2025-yil 12-yanvar soni).

Shu ma’noda, gazetalarda bosilayotgan maqolalarda hayotdan mamnunlik, oilalardagi baxtiyorlik, tinchlik, kishilarning ish faoliyatlaridan xursandligi, faoliyatidagi muvaffaqiyatlar kabilar insonlarda harakatlarning samarali kechayotganligini, maqsadlarning amalga oshayotganini, kishilarning madaniy saviyasi yuqorilashganini ko‘rsatadi, yana bir o‘rinda *ko‘ngli ko‘tarilmoq* gap qolipli frazemasi “xursand bo‘lmoq” mazmunini ifodalasa, *ko‘ngli tog‘dek ko‘tarilmoq* frazemasi “juda xursand bo‘lmoq” tarzida ma’noni kuchaytirish maqsadida qo‘llangan: *Abduqodir Husanovning “Manchester Siti” klubiga o‘tishi barcha vatandoshlarimiz qatori bizni ham xursand qildi.* ***Ko‘nglimiz tog‘dek ko‘tarildi*** **(** R.Haydarov**,** Xalqning ko‘nglini ko‘tarish oson ish emas. 2025-yil 7-mart soni). Bu o‘rinda sodda gap qolipli frazema yoyiq holda keltirilgan: *ko‘nglimiz ko‘tarildi – ko‘nglimiz tog‘dek ko‘tarildi* tarzida, sodda gap qolipli frazemaning agensi olmoshlar bilan ham ifodalanishi mumkin. Chunki, olmoshlar ko‘pincha otlar o‘rnida qo‘llanadi. Ya’ni agens ot bilan ifodalansa ham, olmosh bilan ifodalansa ham qaratqichli aniqlovchi vazifasida kuzatiladi. Olmoshning ot o‘rnida kelishi uning asosiy leksik-semantik xususiyati bo‘lib, bu imkoniyat gapda voqe bo‘ladi [5,17]. Maslan, *Bizning* ***ko‘nglimiz tog‘dek ko‘tarildi*** tarzida. Bu o‘rinda muallif ixchamlik yo‘lini tanlagan, qarashlilik ma’nosi frazema komponentida (*ko‘nglimiz*) mavjudligi sababli, takrorning oldi olingan.

Ko‘ngil komponentli frazemalarning ko‘pchiligi insonda yuz beruvchi ijobiy yoki salbiy holatni, insonning fe’l-atvori, fikr-o‘ylarini aks ettiradi. *Ko‘ngli xotirjam tortmoq* frazemasi lug‘atlarda *ko‘ngli xotirjam bo‘lmoq* varianti bilan keltiriladi, uning ma’nosi “tinchlanmoq” hisoblanadi. Masalan: *Ishonchli tizim ishlab chiqish bo‘yicha davlatimiz rahbari tomonidan topshiriqlar berilganini eshitib, ko‘pchilik qatori mening ham* ***ko‘nglim xotirjam tortdi*** (Jonibek Ali, Xulosalar fursati**.** 2025-yil 1-yanvar**).** Tilning frazeologik tarkibi lingvistik va madaniy hamjamiyatda milliy o‘ziga xoslikni ko‘rsatadigan ko‘zgudir, tilning o‘ziga xos semantik-sintaktik qurilishga ega bo‘lgan

leksik zaxirasidir, “frazemalar ham qurilishi jihatidan nutqiy hosila, ma’no jihatidan lisoniy – yaxlit, tayyor birliklardir. Lekin maqollarni iboralardan farqlovchi omil birinchisining kommunikativ, ikkinchisining nominativ tabiatidir” [6,55].

Xulosa va takliflar. Umuman olganda, o‘zbek tilida *ko‘ngil* komponentli frazemalar semantik maydonining kengligi va emotsional-ekspressiv jihatdan rang-barangligi bilan katta hajmni egallagan, o‘z qatlamning boyligi sanalmish ushbu leksik birliklardan gazeta tilida unumli foydalanish ularning nisbatan kommunikativ ustunligi hamda faolligi bilan izohlanadi. Publitsistik matnda ekspressivlik va jonlilikni ta’minlash maqsadida *ko‘ngil* komponentli frazemaning eng ko‘p tanlanishi uning vazifasining kengayishiga va ommaviy qo‘llanishiga olib kelgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Матвеева Т.В.Функциональные стили в аспекте текстовых категорий. – Свердловск: Изд. Уральс. ун-та, 1990.
2. Mengliyev B. Hozirgi o‘zbek adabiy tili / Darslik – T.: Tafakkur bo‘stoni, 2018.
3. Бозорбоев К. Ўзбек сўзлашув нутқи фразеологизмлари: Филол.фан. номз.дисс. – Самарқанд, 2001.
4. Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O‘razova I., Rixsieva K. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2022.
5. Виноградов В.В. Русский язык. – М., 1947.
6. Жўраева Б. Мақолнинг ёндош ҳодисаларга муносабати ва маъновий хусусиятлари. – Т.: Фан, 2006.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI

NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI ELEKTRON JURNALI

№ 3 (1),
2025-yil, MART

O‘zbekcha matn muharriri: Sharopova Ra’no Jaxonovna
Ruscha matn muharriri: Boltayeva Gulchehra Shokirovna
Inglizcha matn muharriri: Maxammadov Bobir Isan o‘g‘li
Musahhih: Sharopova Ra’no Jaxonovna
Texnik muharrir: Maxammadov Bobir Isan o‘g‘li

XXI ASR TILSHUNOSLIGI: TAHLIL VA TALQIN ILMIY-METODIK JURNALI

3-jild, 1-son

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL OF LINGUISTICS OF XXI CENTURY

VOLUME 3, ISSUE 1

Tahririyat bilan bog‘lanish:
Manzil: Navoiy shahar, Ibn Sino ko‘chasi, 45-uy
Web-site: http://lingej.nspi.uz
Tel: +998(97) 378 – 34 -45

Editorial staff of the journal:
Address: 45, Ibn Sino street, Navoi city
Web-site: http://lingej.nspi.uz
Tel: +998(97) 378 – 34 -45